Ta'lim deyilganida an'anaga ko'ra uni sistemaga solingan tayyor bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi deb tushuniladi. O'z-o'ziga ta'lim berish (bunda o'quvchi o'ziga kerakli axborotni o'zi tanlab olib, qanday axborot kerakligini va uni qanday qilib olish mumkinligini o'zi belgilaydi) – sistemaga solingan tayyor bilimlarni mustaqil o'zlashtirishdir, deb talqin qilinardi. Ta'limning no'anaviy shakllarida esa, mana shu asosiy shart buzilishi mumkin. Bilimlar tabiatan tasodifiy, sistemaga solinmagan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga zid bo'lishi mumkin. Ularni sistemaga solish, tartibga keltirish, haqiqiylikini belgilash va ziddiyatlarini bartaraf etish-talabaning o'z ishi va tashvishidir. U tayyor tasavvur va tushunchalarni, dunyo manzarasini o'zlashtirib olmasdan, balki, dunyo to'g'risidagi o'z tasavvurini bir talay tasavvurlar, tushunchalar va bilimlardan o'zi yaratadi.

Ta'limning aynan mana shunday metodlari kundalik turmushda muhim rolni o'ynaydigan bo'lib bormoqda, shunga ko'ra an'anaviy ta'limni uzluksiz ta'limga aylantirishni dastlabki asos deb hisoblamoq kerak.

Ta'lim jarayoni – pedagogning va u rahbarlik qilayotgan talabalarning bilim, ko'nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

O'qitish talabalar shaxsini shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirish, umumiy hamda maxsus bilim berishning eng muhim vositasidir. O'qitish jarayoni davomida talabalarning bilim olish kuchlari rivojlantiriladi.

O'qituvchi – o'quv materialini o'zlashtirish jarayonining tashkilotchisidir, modomiki shunday ekan, u hamma tashkiliy shakllaridagi o'qitish metodikalarini (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminar mashg'ulotlari, talabalarning mustaqil ishlari metodikalarini) bilishi, egallab olgan bo'lishi kerak. Shu o'rinda A.Distervegning quyidagi gaplarini keltirish mumkin, "Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi". Mashg'ulotlar talabada idrok va xotira, diqqat-e'tibor va tafakkur, tasavvur va mantiqni birlashtirishi kerak, unda o'zlashtirishga ehtiyoj va mayl-rag'bat nechog'lik zo'r bo'lsa, natija hamshunchalik samarali bo'lib chiqadi.

Ta'limning faolligi. Bernard Shou bir kuni: *"Agar siz odamni o'qitib, biror narsaga o'rgatmoqchi bo'lsangiz, u hech qachon hech narsani o'rganmaydi"*, degan ekan. Materialni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun talaba shu materialni ustida faol ishlashi kerak. Shunchaki quloq solib tinglash yoki ko'zdan kechirib chiqishning o'zi etarli emas. O'quvchi materialni o'ylab ko'rishi, muhokama qilib chiqishi yoki mazkur mavzuga doir uyvazifasini bajarishi kerak.

O'qituvchi bilan bog'lanadigan teskari aloqa. Teskari aloqa, bu – ko'zlangan biror maqsadga erishildimi-yo'qmi, shu to'g'ridagi axborotni qo'lga kiritishdir. Ta'lim aniq bilinib turadigan biror teskari aloqasiz olib borilishi mumkin, lekin bunda uning qanday o'tayotganini nazorat qilib borish qiyin va natijalar hech bir kutilmagandek bo'lib chiqishi mumkin. Teskari aloqa vositasi bilangina o'quvchi o'zining undan talab etilayotgan narsani o'rganmoqdami-yo'qmi va bu ishni u to'g'ri bajarmoqdami-yo'qmi, bilib olishga qodir bo'ladi. Bevosita bog'lanadigan

teskari aloqa ta'lim samaradorligini oshiradi: o'quvchi materialni yaxshi o'zlashtirib olgani uchun darhol rag'batlantiriladi, uning xatolari esa, o'z vaqtida tuzatilishi mumkin. Shunday qilib, qaytadan o'qib chiqishga hojat qolmaydi, chunki talabalarda noto'g'ri tushunchalar hosil bo'lishi mumkin emas; bundan tashqari, noto'g'ri tushunchalarning o'zi keyingi xatolar manbai bo'lib qola olmaydi. Teskari aloqaning pallaslanishi nechog'lik uzoq davom etadigan bo'lsa, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish va o'quv jarayonini nazorat qilib borishda uning samaradorligi shuncha kam bo'ladi.

“O'qituvchi – talaba” munosabatlari o'rniga ikkita shogird munosabatlari yuzaga keladiki, bulardan har birini ikkinchisiga nisbatan ustoz deb qarash mumkin. Faqat ustunlik qilish o'rniga muloqat qatnashchilari teng bo'ladigan yoki kim mazkur paytda zarur axborotga ega ekanligiga qarab galma-gal ustun bo'ladigan munosabatlar qaror topadi. Odamning umri bo'yi davom etib boradigan jarayon tariqasidagi uzluksiz ta'lim kontseptsiyasi, avvalo, uzluksiz ta'lim qanday shaklda bo'lishi kerak, degan muammoga duch kelmoqda. Umrbod auditoriyada o'tirib riyozat chekishga aylanib ketmasmikin, u. Bu degan gap pedagogik ta'lim shaklining butun umrga va jamiyat hayot-faoliyatining hamma sohalariga yoyilib ketishi degan bo'lar edi. Bunday bo'lishi dargumonligi ustiga uning zaruriyati ham yo'q.

Ta'lim jarayonida mashg'ulotlar asosan quyidagi shakllarda tashkil etiladi:
Ma'ruza – rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma'lum bir maxsus soha bo'yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda ta'lim oluvchilarga etkaziladi. Bu jarayonda ta'lim beruvchi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari bilan tanishtiradi. Nazariy dars asosan maxsus jihozlangan sinfxonalarda o'tkaziladi. Bu sinfxonalarda turli texnik vositalar ishlatilishi mumkin. Ma'ruza:

- umumlashtirilgan shakldagi ilmiy bilimlarga asos soladi;
- ma'ruzalar: informatsion, muammo ma'ruzalari va aralash xillarga bo'linadi;
- ma'ruza talabalarning mustaqil ishlari va amaliy mashg'ulotlarda ishlab chiqiladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari – aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladiki, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didakik harakatga aytiladi. Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari kasb-hunar ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv poligonlarida ish o'rnida jolashgan real vositalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari: bilimlarni chuqurlashtirib, kengaytiradi, aniqlashtiradi, mustahkamlaydi, nazariy bilimlarini miyaga jo qilib, kasb faoliyatining amaliy ko'nikma va malakalariga aylantiradi.

Mustaqilishlar: - ma`ruza bilimlarini chuqurlashtirib, kengaytiradi va bilimlarni mustahkamlash, ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun nazariy baza hozirlaydi.

O`quv amaliyoti. Talabalarning olgan nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarini real vaziyatlarda qo`llash orqali ularda malakalarni shakllantirishga qaratilgan mashg`ulotdir.

Kurs ishlari (loyihalari). Fanga oid topshiriq yoqi loyihalarni talabalarga bajartirish orqali ularda amaliy ko`nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg`ulotlar.

Maslahatlar. Talabalarga qo`shimcha mashg`ulotlar yoki maslahatlar tashkil qilish orqali ularda bilim va ko`nikmalarni chuqur o`zlashtirishga qaratilgan mashg`ulotlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta`lim mazmuniga qo`yiladigan talablar yanada kuchaydi. O`tkazilayotgan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari shuni ko`rsatmoqdaki, bugungi talaba (yoki o`quvchi)larning aksariyati (masalan, yuqori sinf o`quvchilarining tanminan 70-75 foizi) o`qishga qiziqmay qo`yishdi. Buning sabablaridan biri dars mobaynida o`qituvchi bilan talaba (yoki o`quvchi) o`rtasida muloqotning umuman yo`qligidir. Shuningdek, umumiy o`rta maktabda, o`rta-maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi, xalq tarbiyashunosligi va pedagogik ruxshunoslar xizmati to`g`ri yo`lga qo`yilmagan. Umuman olganda, o`qituvchi o`zining kuchli va zaif tomonlarini, ayniqsa, o`z sohalari bo`yicha etarlicha bilimga ega emasliklarini yopish uchun talaba (yoki o`quvchi)ga ortiqcha talablar qo`yadilar. Talaba (yoki o`quvchi)lar o`qituvchining bo`sh tomonini tez anglaydilar. Shuning uchun, u hadiksirab emas, balki o`qituvchi hurmatini joyiga qo`yib munosabatga kirishishi mumkin. Bunday muhitni va talaba (yoki o`quvchi)larning ruhiy kayfiyatini o`qituvchi ba`zan sezmaydi. Talaba (yoki o`quvchi)lar o`qituvchini har doim kuzatib boradi. Ular undan iliq so`z, mehr-muhabbat va muruvvat kutadilar. *Ta`limni tashkil etish shakllari* pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo`lgan, barqaror va mantiqan tugallangan ko`rinishi bo`lib, unga muntazamlilik va yaxlitlik, o`z-o`zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o`tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

MARKAZIY OSIYODA O`SIMLIKLAR BIOXILMA-XILLIGINI KO`PAYTIRISHDA ASALARILARNI O`RNI VA RO`LI

Hamidov G`, Bozorov I., Saynazarov M.

Farg`ona davlat universiteti

Hozirgi kunda yer yuzida aholi sonining jadal suratlarda o`sib borishi uning atrof muhitga bo`lgan bevosita yoki bilvosita ta`sirini kuchayishiga sabab bo`lmoqda. Biz insonlar oldida turgan eng katta dolzarb vazifalardan biri shuki, tabiatga zarar yetkazmasdan o`z ehtiyojlarimizni qondirishdir.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konventsiyada (Rio-de-janeyro,1997) ta'kidlangandek, barcha mamlakatlarga o'zlarining xududlaridagi tirik mavjudodlarning xilma-xilligini saqlab qolish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashlari zaruriyati yuklatiladi.

Konventsiyani tasdiqlagan mamlakatlar quydagilarga amal qilishlari talab etiladi: flora va faunaning biologik komponentlarini aniqlash, hamda ularni o'sish (yashash) muhitini belgilash; ulardan foydalanishning milliy strategiyasi va rejasini ishlab chiqish; bioxilma-xillikning har xil ekosistemalardagi o'rni va ro'lini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish, qaysiki O'zbekistonning ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) 2010 yilni Xalqaro biologik xilma-xillik yili deb e'lon qildi. BMT shu tariqa sayyoramiz tabiatini ximoya qilish va undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish masalasiga e'tibor qaratish, ekologik tizimni saqlash va noyob tabiat obyektlarini saqlab qolish yo'lidagi xarakatlarni birlashtirishga intilmoqda. Bioxilma-xillikni saqlab qolinishi biosferadagi dinamik jarayonlarni barqarorlashtirishda muhim dastur amal ro'lini o'ynaydi, hamda u ekologik, genetik, sotsial-iqtisodiy, estetik va reaksiyon ahamiyat kasb etadi.

Botanikaga doir adabiyotlarda Farg'ona vodiysida 500 turdan ortiq yemxashak o'simliklari, shifobaxsh va alkaloidli o'simlik turlari 600 atrofida, asalshirali o'simliklar 500 dan ortiq, efir moyli o'simliklar turlari 141 tur. Bundan tashqari, saponinli, taninli, ozqabop va boshqa turlar mavjud, ularni kadastrini tuzish kelgusi yillardan olib borilsa yaxshi bo'lar edi.

Farg'ona vodiysi, qolaversa butun Markaziy Osiyodagi barcha ekosistemalarga tushayotgan antropogen tazyiqlarning ko'lamini ortib bormoqda. Bu ta'sirot ayniqsa kam tarqalgan, hamda endem turlarga ko'proq o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Shuningdek ushbu guruhlariga xalq tabobatida keng qo'llaniladigan shifobahsh o'simliklar, manzarali va ozuqabop turlar kiradi. Shuningdek "chillaki" tabiblar tomonidan dorivor o'simliklarimiz cheksiz ravishda terilib, yo'q qilib yuborilmoqda.

Ta'bir joiz bo'lsa shuni aytib o'tish kerakki keyingi yillarda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan bog'dorchilik va asalarichilikka katta e'tibor qaratmoqdalar. Qaysiki "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror*ni qabul qildilar.

*Bu qarorga ko'ra asalarichilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo'jaliklari faolyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko'paytirish, asalni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatni oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni respublikamizning barcha hududlariga tadbiiq etish.

Bu birinchidan aholini toza asal bilan taminlash hamda oziq- ovqatga bo`lgan ehtiyojini qondirish bo`lsa; ikkinchidan nafaqat O`zbekistonda balki Markaziy Osiyoda bioxilma-xillikni saqlab qolishga oid maqsadlar hisoblanadi. Yurtimizda shahar ko`chalariga, xiyobonlarga va yo`l chetlariga turli xil manzarali va noyob o`simliklar (soxta kashtan, yapon saforasi, gledichiya va lola daraxti)ni ekish biologik xilma-xillikni saqlashga doir ishlar hisoblanadi. Markaziy Osiyoda o`simliklar bioxilma-xilligini ko`paytirishda asalarichilikni ilmiy asosda keng targ`ib qilish asosiy istibolli ishlardan sanaladi.

Ko`p olimlarning ilmiy faolyatida hashorotlar haqida fikr yuritilishi bu “qanotli do`stlarimiz”ning o`simliklar hayotida o`rni va ro`li muhim ekanligidan dalolat beradi.

Xashorotlar bilan o`simliklar gullarining munosabatlari va o`zaro moslanuvchanliklari evolutsiya masalalari bilan shug`ullanish anchadan beri olib borilsa ham hanuzgacha bu masalaga qiziqish ortib bormoqda.

Bu boradagi hozirgi zamon ilmiy g`oyasiga, ya`ni o`simliklarning changlanishida xashorotlarning o`rni va ro`li masalasiga I.Kyolreyter (Kelreuter, 1760; rus tilida nashri, 1940 y) asos soladi. U birinchilardan bo`lib aniqlaydiki, ko`pchilik o`simliklar va ularning gullari xashorotlar bilan changlanmasa ular xosil bermaydi.

Evolutsiya ta`limotining asoschilaridan bo`lgan Ch. Darvin: “Turli- tuman xushro`y va xushbo`y gullarimizning mavjudligi uchun biz xashorotlardan qarzdormiz” deb bejiz aytmagan edi (turlarning kelib chiqishida tabiiy tanlovning ro`li, 1859, 365-b).

Xa, darxaqiqat o`simliklar olamining serjilo va betakror bo`lishida ularni xashorotlar tufayli chetdan changlanishi katta ro`l o`ynaydi. Bu jarayon o`simliklar evolutsiyasida, ularning mukammallashib borishida asosiy omillardan sanaladi.

Xashorotlar o`simliklarning gullariga qo`nib, ularning nektar va gul changlarini o`ziga ozuqa sifatida oladilar. Shu jarayonda o`simliklar gullarining otalik elementlari, yani changlari boshqa o`simliklar onalik elementlariga o`tib changlanadi va urug` xosil bo`ladi.

A.T.Bolotov, T.A.Xayt, N.Myuller (Myuller, 1873) va boshalarning ishlarida, o`simliklar gullarining xashorotlar orqali changlanish jarayonida, ularning o`zaro bir-biriga moslanishlari bayon qilingan. Olimlarning tadqiqotlari tufayli beqiyos darajada, o`simliklar olamidagi changlanish va urug`lanish xashorotlarsiz sodir bo`lmas edi, shu bois “qanotli do`stlarimizning “ o`simliklar olamidagi o`rni va ro`li g`oyat katta.

Yopi urug`li o`simliklarning evolutsiyasi, dastlabki vaqtlardanoq xashorotlar evolutsiyasi bilan bevosita bog`liq ravishda shakllangan va bu jarayon umumiy biologik progressga, xashorotlar va o`simliklar olamining yuksalishiga omil bo`lgan. Bu yerda biz qiziq xolatga duch kelamiz, ya`ni o`simliklar va hayvonot olamining bir-birlariga ijobiy ta`siri, qaysiki bu ular tomonidan muaffaqiyatli ravishda yashash uchun kurashga asos bo`lgan. (Skot 1927, Taxtajyan 1954).

Evulutsiya jarayonida o`simliklar oldiga yangi-yangi vazifalar qo`yilaveradi, qaysiki ular doimiy ravishdagi o`zgaruvchanlik reaksiyalari bilan javob qaytaradilar, ya`ni gullardagi moslanish sodir bo`ladi. Entomofiliya doimiy ravishda changlatuvchilar va gullarni o`zgarishiga ularni mukammallashuviga zamin tayyorlaydi. Bu narsa o`z navbatida har xil murakkablikdagi changlanishga olib keladi. U xashorotlar va o`simliklar orasida tarmoqlanishga hamda yangi turlarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. (Grinfeld, 1978) shubha tug`dirmaydiki u – yopiq urug`lilar xashorotlarni biologik progressga olib kelgan. Xashorotlarni yopiq urug`lilarning nektar va gul changlari bilan doimiy ravishdagi ovqatlanish moslanuvchanlikni (adaptatsiya)mukammallashuviga olib keladi. Bu borada xashorotlarda maxsus nektar va gul changini oluvchi apparat-xobotokni (xartum) shakllanishiga sabab bo`lgan.

Evulutsiya jarayonida gulli o`simliklar va xashorotlar bir-birlariga bog`liq bo`lmagan xolatda yuzaga kelishgan, lekin keyinchalik ular bir-birlari bilan yaqin munosabatda evolutsiyalarini davom ettirishgan. Bu narsa o`z navbatida koevolutsiyaga olib kelgan.

O`simliklarni xashorotlar tufayli changlanishi, ularni genetik rekombinatsiyaga, ya`ni o`zgaruvchanlikka olib kelgan. Qaysiki tashqi muhitning salbiy tasiriga chidamli yo`nalishlar yuzaga kelgan. O`simlik albatta nektarni xashorotlar uchun ajratmaydi, xashorot esa ongsiz ravishda guldan- gulga qo`nib chetdan changlanishni sodir etadi. Bu tasodifan yuzaga kelgan bog`lanishlik, ularning moslanuvchanligini aks ettiradi, hamda bu xolat ikki tomon uchun ham afzallikni keltirib chiqaradi. (Gelston, Devis, Satter, 1983).

Albatta bizning vazifamiz xashorotlar va o`simliklarning gullari orasidagi bir-birlarini taqozo qiluvchi evolutsion jarayonni va uning tafsilotlarini batafsil tahlil qilish emas. Faqat biz organik olamning tarixida entomofiliyaning ro`li va o`rniga e`tibor qaratmoqchimiz.

Knut Fegri va Lenderta van der Peylalarning “Changlanishning ekologik asoslari” (Osnovi ekologii opileniya, 1982) noli monografiyasida xashorotlar bilan o`simliklar gullari orasidagi bevosita bo`g`lanishlik va ularning bir-birlarini taqozo etishlik muammolari atroflicha yoritilgan.

D.K.Shapiro, B.A.Bandyukova, M.F.Shemotkovlarning (1985) ta`kidlashlaricha barcha xashorotlarning ichida asalarilar gul changini eng ko`p ist`emol qilishi bilan ajralib turadi. Ularning ma`lumotlariga ko`ra xar bir asalari kun bo`yi 200 gr midorida gul changi to`playdi, asalari oilasi esa 1 kg gacha, butun mavsum bo`yicha esa 50 kg gacha. Betakror, yoqimli hid taratuvchi gullar xashorotlarni o`ziga jalb qiladi va ular orqali gullarning changlarini (otalik elementlarini) boshqa o`simliklarga yuboradi. O`simliklar bilan xashorotlar million yillar davomida bir-birlariga moslashib go`yoki o`zaro ittifoq tuzganlardek tuyuladi. Xashorotlar o`simliklarni chetdan changlatib, behisob darajada ulkan vazifalarni amalga oshiradi.

Evolutsiya va koevolutsiya jarayonlari turlarning shakllanishi va kelib chiqishi bilan bir atorda, mavjud taksonlarni, shuningdek bioxilma-xillikni saqlab olishning ham nazariy asoslari hisoblanadi.

Yuoridagi fikrlardan shu narsa ma`lum bo`ladiki o`simliklar va hashorotlarni tabiatda bir-biridan alohida-alohida ko`rish mumkin emas ya`ni o`simlik bor joyda asalari, asalari bor joyda o`simlik mavjud degan xulosa keladi. Shuning uchun mamlakatimizda bioxilma-xillikni saqlashda manzarali o`simliklar bilan bir qatorda asal-shirali o`simliklar qoplamini kengaytirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Tubanda ba`zi bir asalshirali o`simliklarni keltiramiz.

Qashqarbeda. Bu o`simlikning chorvachilik uchun eng yaxshi ozuqabop va asalarichilik uchun esa eng yaxshi asalshirali o`simlik hisoblanadi. Qasharbedani madaniylashtirish qo`shni qozog`iston va qirg`izistonda yaxshi yo`lga qo`yilgan. qasharbedadan 55 -73 sentenergacha hosil olish mumkin. Bu miqdor esa ko`p yillik beda va esparset hosilidan ham yuqori hisoblanadi. Qasharbeda madaniylashtirilganda uning shira midori 250-300 kg gacha yetishi olimlar tomonidan aniqlangan. Qasharbedaning bu foydali hususiyatlarini hisobga olib uni madaniylashtirish uchun tajriba uchastksida urug`idan ekib ko`riladi.

Qasharbeda ikki yillik o`simlik bo`lganidan birinchi yili faqat bitta to`g`ri poya chiqaradi xolos, balandligi 50-60 sm gacha yetadi. Ikkinchi yili esa poyasi sershox bo`lib, balandligi 1,5-2 m gacha yetadi. Gullash davri iyunning boshlaridan iyulning o`rtalarigacha davom etadi. Gulining shira miqdori 0,16 mg, shira tarkibida shakar miqdori 50% ni tashkil etadi. Bunday sharoitlarda shira miqdori gektariga 390 kg ni tashkil qiladi.

Burchoq. Burchoq ham yaxshi ozuqabop hamda asalshirali qimmatli o`simlik hisoblanadi. Burchoqni oktyabr -noyabr oylarida ekish mumkin. Tajribalarimizda urug` saralab ekilganda 50-60% unib chiqishi kuzatildi. Unib chiqishi aprel oyining boshlariga to`g`ri keladi. U ko`p yillik o`simlik bo`lganidan ikkinchi va uchinchi yillari gulga kiradi. Birinchi yili esa bir poyali bo`lib, balandligi 20-30 sm dan oshmaydi. Ikkinchi yildan boshlab esa 110-120 sm gacha yetadi. Gullashi maydan boshlanib, iyulning o`rtalarigacha boradi.

Gulining shira miqdori 0,28 mg bo`lib tarkibida 41% shakar moddasi bor. Burchoqning shira miqdori gektariga 150 kg gacha bo`ladi. Burchoq agrotexnikasi ham qashqarbedaniki kabidir.

Arslonquyruq. Kuzda ekilgan urug` aprel oyining boshlarida unib chiqa boshlaydi. Birinchi yili o`simliklarning bo`yi 100-110 sm gacha, ikkinchi yildan 160-170 sm gacha yetadi. Gullashi esa asosan ikkinchi yildan boshlanadi. Gullashi iyunning boshlaridan to iyulning o`rtalarigacha cho`ziladi. Urug`i iyul oyining oxiri va avgust oylarida pishadi. Gulining shira miqdori 0,67 mg, tarkibida esa 65% shakar moddasi bor. Gektariga hisoblaganda 178 kg shira beradi. Arslonquyruq juda tez ko`payadi, bir marta ekilgan joyda ko`p yillar saqlanib turaveradi. Arslonquyruq ariqzorlar atroflariga ekilsa, asalarilar uchun yaxshi ozuqa bazasi yaratiladi.

Tog`rayhon. Tog`rayhon ham sug`oriladigan maydonlarda yaxshi o`sb rivojlanadi. Urug`ning unib chiqishi 75%. Gullashi ikkinchi yildan boshlanadi, iyun-iyul oylarigacha davom etadi. Gulining shira miqdori 0,15 mg, shakar miqdori esa 41% ni tashkil etadi. Shirasi gektariga hisoblanganda 147 kg gacha boradi.

Xulosa o`rnida shuni aytib o`tish kerakki inson tabiatni muhofaza qilishi undagi organizmlarni bioxilma-xilligini saqlashi nafaqat tabiat va o`zi uchun balki kelajak avlod uchun ham ekanligini unutmasligi kerak. Sun`iy ekosistemalarga zarar keltiradigan parazit va zararkunanda hashorotlar va bosha organizmlarga arshi kurashning biologic usullarini izlab topish va amaliyotga o`llash nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Insoniyat oldida turgan yana bir asosiy vazifalardan biri shuki o`simliklar va hayvonlar o`rtasidagi biotik bo`g`lanishni mumkin qadar buzmaslik balki ular o`rtasidagi bu zanjirni barqarorlashtirish hamda mustahkamlash hisoblanadi. Shu orqali yer yuzida bioxilma-xillikni saqlab qolishning imkoni bo`lsa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Ch.Darvin. Turlarning kelib chiqishida tabiiy tanlovning ro`li.1859. 365-b.
2. Knut Fegri va Lenderta van der peylalarning "Changlanishning ekologik asoslari" Osnovi ekologii opileniya. 1982.
3. Hamidov.G`.H. O`zbekistonning asosiy asal shirali o`simliklari. Toshkent 1969. 9-11 b.
4. Hamidov.G`.H. O`zbekistonning asalli o`simliklari. Fan. Toshkent 1977. 6-43 b.

PEGANUM HARMALA L – EKOLOGIK SOF TABIIY VOSITA

Marupova M., Qurbanova Sh.

Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot intstituti

Annotatsiya: Maqolada Ozbekiston hududida tabiiy holda o`suvchi isiriq o`simligining umumiy tavsifi, biologik xususiyatlari, tarkibidagi kimyoviy moddalar, o`simlikning dorivorlik jihatlari va xalq tabobatida undan turli kasalliklarni davolashda qo`llanilishi, shuningdek, uning shifobaxshligining kimyoviy dori preparatlaridan afzallik tomonlarini yoritilgan. Keltirilgan ma`lumotlar ilmiy jihatdan faktlarga asoslangan bo`lib, hozirgi davrda turli viruslar orqali, allergik qo`zg`atuvchilar tufayli kelib chiqadigan, yuqori nafas yo`llarining ayrim yallig`lanish kasalliklarini davolash va oldini olishda isiriqdan bevosita yoki bilvosita foydalanish mumkinligi bayon etilgan.

Kalit cўzлар: алкалоидлар, paganin gidroxloridi, vazitsinon, peganidin, pegamin, peganol, deoksipiganin.

Turli mikroorganizmlar va viruslarning dori preparatlari va antibiyotiklarga moslashib borishi kasalliklarni davolashda tabiiy vositalarni qo`llash zaruriyatini ko`rsatadi. Chunki dori preparatlari kimyoviy birikmalardan sintez qilinib, organizm

uchun begona modda sifatida baʼzi organlar faoliyatiga salbiy taʼsir qiladi va boshqa bir kasallikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun shifobaxsh oʻsimliklar qatorida isiriq oʻsimligidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Harmala, oddiy isiriq (Могильник) – Nitrariaceae - tuyatovondoshlar oilasiga mansub, bir yillik va koʻp yillik oʻt oʻsimlik. Barglari qiyshiq qirqilgan, gullari oq, hidi yoqimsiz, mevasi noʻxatdek, koʻp urugʻli, uch chanoq boʻlib, yoriladiigan koʻsakcha (N.I. Annenkov, 1878).

Ushbu ajoyib oʻsimlik butun Oʻzbekiston boʻylab keng tarqalgan boʻlib, dasht va yarim choʻllarda, oʻtloq va quruq, shoʻrxok yerlarda, qishloqlar atroflari va choʻldagi quduqlar yaqinida, loy va qumli tuproqlarda oʻsadi. Koʻpincha chakalakzorlarni hosil qiladi.

Maqsad: kasalliklarni davolashda tabiiy vositalar qatorida isiriqni qoʻllash maqsadida uning kimyoviy tarkibini oʻrganish, bir qator kasalliklarni davolash uchun vositalarni tayyorlash bilan tanishishdir. Paganin gidroxloridini ajratib olish usullari va dori-darmonlarni tayyorlash texnikasini oʻrganish.

Tadqiqotning uslubiyoti: kimyoviy tahlilning sifat va miqdoriy metodlari. Kimyoviy tarkibi: harmalada 1,5 - 3% alkaloidlar mavjud boʻlib, ulardan taxminan 60% peganin (vazitsin) va vazitsinon, alkaloidlar peganidin, pegamin, peganol va deoksipiganin ham topilgan. Urugʻlarida umumiy alkaloidlardan 3,5 - 6,6% mavjud boʻlib, ularning 60% garmalin, taxminan 30% garmin va oz miqdordagi garmalol, peganin va deoksivazitsinon, shuningdek 14,25% yogʻni oʻz ichiga oladi.

Xalq tabobatida revmatizm, qichima va boshqa teri kasallarini isiriqdan tayyorlangan vanna orqali davolashgan, isiriq oʻtidan tayyorlangan damlama shamollash, bezgak, uyqusizlikda tinchlantiruvchi vosita sifatida foydalanilgan. Isiriq asab tizimining falaji, epilepsiya, bezgak, koʻz kasalliklari va turli xil teri kasalliklarini davolashda ishlatilgan. Kavkazda u uyqu keltiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Zigʻir urugʻi bilan aralashtirilgan isiriq urugʻlaridan tayyorlangan damlamani astma, nafas qisilishi, kapsikum bilan sifilisni davolash uchun tavsiya etish mumkin.

Natijalar: tadqiqotlar natijasida quyidagilar aniqlandi: Fargʻona vodiysida bu oʻsimlik yetarli miqdordagi biomassasiga ega, u bir qator kasalliklarni davolash uchun xalq tabobati vositalarini tayyorlashda yaxshi xom ashyo hisoblanadi. Oʻsimlikning yer usti qismlari xom ashyo sifatida olib kelindi. Undan paganin gidroxloridini ajratib olish usullari va dori-darmonlarni tayyorlash texnikasi oʻrganilmoqda. Shuningdek, koʻpchilik jamoa boʻlib uzoq vaqt faoliyat yuritiladigan yopiq joylar havosini oson va ekologik havfsiz, qulay usul bilan dezinfeksiya qilish uchun quritilgan isiriqni tutatib yuborish kifoyadir.

Isiriqdan shifobaxsh giyoh sifatida qator kasalliklarni davolash hamda oldini olishda foydalanishning afzalliklari - tabiiy, kimyoviy dorilarga nisbatan bezarar; arzon va hamyonbop. Undan shifobaxsh vosita tayyorlash uy sharoitida ham ortiqcha qiyinchilik tugʻdirmaydi, eng asosiysi - xalq tabobatida sinalgan dorivor giyoh.

Isiriq urug`i qaynatmasini tayyorlash usuli: emalli idishga bir litr suv quyib, tozalab qobig`idan ajratilgan, yuvilgan isiriq urug`larini solinadi va past olovda 20-30 daqiqa qaynatiladi. Qaynatma achchiq choy rangiga kiradi. Undan milk va boshqa og`iz yaralarini, tomoq og`riqni davolash uchun og`iz va tomoqni chayish orqali muolaja qilinadi.

Olingan natijalar asosida quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

- isiriq xalq tabobati o`ekti sifatida an`anaviy tibbiyotda keng qo`llaniladi;
- xom ashyo uchun o`simlikning yer ustki qismlari (gullari, bargi, poyasi, urug`lari) ishlatiladi;
- isiriqning yer ustki qismlari erta bahorda (aprel oyida) o`simlik g`unchalayotgan davrida yig`ib olinadi va salqin joyda quritiladi;
- urug`larini kech kuzda pishib yetilgandan so`ng yig`ib olish maqsadga muvofiqdir;
- o`simlik tarkibida 1,5 - 3% alkaloidlar mavjud, ulardan taxminan 60% peganin (vazitsin) va vazitsinon, alkaloidlar peganidin, pegamin, peganol va deokspiganin ham topilgan;

Ushbu o`simlikning biologik xususiyatlari, ekologiyasi, agrotexnikasi va boshqa muhim xususiyatlari FJSTI kimyo va biologiya kafedrasida o`rganilmoqda.

Eslatma: isiriq tarkibidagi ayrim kimyoviy moddalar zaharli ekanligini yodda tutish lozim. Shu o`rinda buyuk kimyogar olim D.I. Mendeleevning: "Zaharli moddalar yo`q, balki zaharli me`yorlar bor", degan qimmatli iborasini keltirish o`rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari. 2-kitob „Fan“, 1992
2. Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari. 5-kitob „Fan“, 1992
3. S.S.Sahobiddinov, O`simliklar sistematikasi „O`qituvchi“ , 1980
4. Xolmatov X. X. Farmakoknoziya, Meditsina“, 1990
5. Po`latova T.P, Xolmatov X.X. Dorivor o`simliklar, Meditsina“, 2006.
6. Qosimov A.I, Nabiev M.M. Botanikadan qisqacha izohli lug`at, „O`ituvchi,, 2000.

ALKOGOL ICHIMLIKLARINING INSON ORGANIZMIGA SALBIY TA`SIRI, ALKOGOL MIQDORINI ANIQLASH VA SAMARALI DAVOLASH USULLARI

Nazirtashova R. M., G`anijonov H. I.

Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

Annotatsiya: Bugungi kunda alkogol ichimliklarni ichish insondagi irodasizlik, hoyu-xavaslarga berilish hissi orqali, bu zararli odatni doimiy yashash tarziga aylantirish oqibatida insonlarga ham ma`naviy, ham moddiy zarar yetkazmoqda. Inson organizmida esa, alkogolni uzoq muddat iste`mol qilish ichki a`zolarining tuzatib bo`lmas o`zgarishlariga olib kelishi uzoq yillik mutaxasislarning tajribalarida

o`z isbotini ko`rsatyapti. Surunkali alkogolizm fonida alkogolli kardiomiopatiya, alkogolligastrit, alkogollipankreatit, alkogolligepatit, alkogollinefropatiya, alkogolli ensefalopatiya, turli shakldagi anemiya, immun tizimi kasalliklari, miyaga qon quyilishi xavfi va subaraxnoidal qon ketish kabi kasalliklar rivojlanishi uchun asos bo`lib xizmat qilmoqda.

Kalit so`z: alkogolizm, psixologiya, sindrom, mastlik, psixoz, alkogolik.

Hozirgi kunda tarkibida etil spirti bo`ladigan ichimliklar tibbiyotda dori modda sifatida qo`llanilmaydi, chunki, organizm o`rganib qolib, foydasidan zarari ko`p bo`lmoqda. Spirtli ichimlik iste`mol qilganda, dastlab oshqozonda so`riladi, 5 daqiqadan keyin qonda aniqlanadi. Qondagi alkogol darajasi qondagi alkogol miqdorini aniqlaydi, asosan, qon tahlili yordamida yoki bugungi zamonaviy tibbiyotda jadval yoki onlayn kalkulyatorlar yordamida qondagi alkogolning o`rtacha bahosini olish mumkin. Odam ichkilikka ruhiy va jismoniy tobe bo`lishi natijasida asta sekin alkogolizm rivojlanadi. Alkogolizm- ichkilikbozlik, surunkali alkogolizm, surunkali alkogolli intoksikatsiya, etilizm, alkogolli toksikomaniya va boshqalar surunkali psixik progredient kasallik, toksikomaniyaning bir turi, alkogolga (etil spirtga) ruju qo`yish va unga aqliy va jismoniy jihatdan qaram bo`lish bilan tavsiflanadi. Alkogolizm qabul qilinadigan alkogol miqdorini nazorat qila olishni yo`qotish, alkogolga nisbatan tolerantlikning oshishi (shirakayflikni ta`minlash uchun zarur bo`lgan spirtli ichimlik dozasining ko`payishi), abstinent sindrom, a`zolarining toksik shikastlanishi va mastlik paytida sodir bo`lgan ayrim voqealarni eslay olmaslik bilan xarakterlanadi. Alkogolik-alkogolizmga chalingan bemor. Alkogolli ichimliklarning ta`sir qiluvchi komponenti — etanol- oshqozon-ichak trakti orqali tezda so`riladi, inson miyasiga kirib, asab hujayralari bilan aloqa qiladi. Qonda etanolning konsentratsiyasi spirtli ichimliklar ichilgach 45-90 daqiqa o`tib maksimal darajaga yetadi. Etanol organizmdan o`pka, buyraklar, sut va ter bezlari, najas bilan o`zgarmagan holda va asosan jigarda sodir bo`ladigan biotransformatsiya orqali chiqib ketadi. Birinchi sutka davomida organizmdan spirtni chiqarib tashlash va parchalash davom etadi:

1. Sitozolda oksidlanishi: $C_2H_5OH + 2HAD \rightarrow C_2H_4O + 2HAD^{\circ}H$ — 70-80% etanolni metabolizatsiya qiluvchi va sog`lom odamlarda asosiy chiqib ketish yo`li.

2. Jigarning mikrosomal etanol oksidlovchi tizimi yordamida oksidlanish.

3. Nihoyat, to`qimalarning katalaza, oksidaza va peroksidazalar yordamida oksidlanish. Sog`lom odamlarda u etanol metabolizmning 15 foizini tashkil etadi, alkogolizm bilan kasallangan bemorlarda uning miqdori oshadi.

Asetaldegidning yakuniy yo`li: aldegid degidrogenaza yordamida asetatga aylanishi, so`ng asetil- KoA ishtirokida uning ko`mir kislotasi va suvgacha oksidlanishi: $C_2H_5O H \rightarrow \text{asetat} \rightarrow CO_2 + H_2O + \text{energiya}$. Sog`lom odamda oksidlanish darajasi muttasil va soatiga har bir inson vazni kilogrammi uchun taxminan 0.1 g sof etanolni tashkil etadi. Qabul qilingan alkogolning 10 foizigacha miqdori buyraklar va nafas orqali o`zgarmagan holda chiqib ketadi. Organizm o`zini haddan ortiq

miqdordagi spirtli ichimliklar tushishidan himoya qilishining tabiiy usuli qayt qilish refleksi hisoblanib, alkogolizm rivojlanishi bilan u refleks zaiflashadi. Spirtli ichimliklarni qabul qilishning sababiuning odamga ta'siri, masalan, eyforiya, uyquchanlik, soxta isinish hissi va boshqalarni chaqirishidir. Bugungi kunda alkogolli ichimliklarni o'tkir va surunkali iste'mol qilishning miya tizimlarining neyro kimyoviy funksiyasiga ta'siri o'rganilmoqda, masalan, etanolning markaziy asab tizimiga ta'sirining mexanizmlarida gamma-aminomoy kislotaga katta e'tibor qaratilmoqda. Alkogolizm psixik buzilishlar va ichki a'zolarning o'ziga xos alkogolli shikastlanishlarining kuchayib boradigan simptomatologiyasi bilan ajralib turadi. Alkogolni organizmga ta'sir qilishining patogenetik mexanizmlari tirik to'qimalarga, xususan, inson tanasiga etanolning bir necha turdagi ta'siri bilan vositalanadi. Alkogolli ichimliklarni surunkali ravishda iste'mol qilish oqibatida ushbu tizimlar faoliyatining buzilishi spirtli ichimliklarga qaramlikning rivojlanishi, abstinent sindrom, alkogolga qarshi tanqidiy nuqtai nazarining o'zgarishi va boshqalarga olib keladi. Alkogolning oksidlanishida organizmda surunkali intoksikatsiyaning rivojlanishiga olib keladigan zaxarli modda — asetaldegid hosil bo'ladi. Asetaldegid, ayniqsa, qon tomirlari devorlariga (ateroskleroz rivojlanishini rag'batlantiradi), jigar to'qimasiga (alkogolli gepatit), miya to'qimasiga (alkogolli ensefalopatiya) kuchli toksik ta'sir ko'rsatadi. Fiziologik, xulqiy va kognitiv hodisalarning kombinatsiyasi, bunda alkogolli ichimliklar ichish bemorning qiymat tizimida birinchi o'ringa chiqadi. Tashxis qo'yish uchun yil davomida quyidagi alomatlarining kamida uchitasi kuzatilgan bo'lishi kerak. Ko'pgina shifokorlar uchun ichkilikka qaramlik sindromi alkogolizm tashxisini qo'yish uchun yetarli hisoblanadi, biroq post-sovet psixiatriyasi ancha qat'iyroqdir. Alkogol hujayra membranalariga toksik ta'sir ko'rsatadi, neyromediator tizimlarining faoliyatini buzadi, qon tomirlarini kengaytiradi va issiqlik chiqarilishini ko'paytiradi, siydik ajralishini va oshqozonda xlorid kislotasi sekretsiyasini oshiradi. Alkogolni uzoq muddat suiste'mol qilish ichki a'zolarning tuzatib bo'lmaz o'zgarishlariga olib keladi. Surunkali alkogolizm fonida alkogolli ikardiomiopatiya, alkogolli gastrit, alkogolli pankreatit, alkogolli gepatit, alkogolli nefropatiya, alkogolli ensefalopatiya, turli shaklda anemiya, immun tizimi kasalliklari miyaga qon quyilishi xavfi va subaraxnoidal qon ketish kabi kasalliklar rivojlanadi. Bundan tashqari, alkogol ichimliklarni uzoq vaqt iste'mol qilish ko'plab kasalliklarni keltirib chiqaradi:

- Gaye-Vernike sindromi; Subaraxnoidal qon ketish;
- Miya ichki qon ketishi; Steatogepatit;
- Jigar sirrozi; Pankreatit;
- Gastrit; Mallory-Veyss sindrom
- Qizilo'ngach saratoni; Oshqozon saratoni;
- To'g'ri ichak saratoni; Gemolitik anemiya;
- Aritmiya; Alkogolli kardiomiopatiya;
- Nefropatiya; Alkogolli polinevropatiya.

Etanolning markaziy asab tizimiga ta`siri natijasida paydo bo`ladigan patologik holat. Alkagolning qanday ta`sir ko`rsatishi nerv sistemasining turiga, mijozga, odamning xulq-atvoriga bog`liq bo`ladi. Alkogolning umumiy ta`siri markaziy asab tizimining ingibitsiyasi bilan xarakterlanadi, dastlabki bosqichlarda yuzaga keladigan eyforiya va qo`zg`alish markaziy asab tizimining tormoz mexanizmlari zaiflashuvi belgilari hisoblanadi. Akogolli mast bo`lish jarayonida nafaqat miya po`stlog`ining funksiyasi, balki subkortikal tuzilmalar (miyacha, bazal yadrolar, miya poyasi) ham ingibitsiya qilinadi. Alkogolli mast bo`lishning uch darajasi farqlanadi: yengil, o`rtacha va og`ir, ular etanolning toksik va psixoaktiv ta`siridan kelib chiqqan psixik va nevrologik alomatlarning progressiv o`shishi bilan tavsiflanadi. Alkogolli mastlikning tabiati ko`plab omillarga bog`liq: organizmni etanolga ta`sirchanligi, iste`mol qilinadigan spirtli ichimlikning dozasi va turi, spirtli ichimliklarni qabul qilish muhiti, ichish vaqtida iste`mol qilingan oziq-ovqatning miqdori va sifati, organizmning jismoniy holati. Simptomatika o`z harakatlariga tanqidiy fikrlashning pasayishi, yuzaki fikrlash, harakatlarning noaniqligi va tormozlanganligidan (yengil mastlikda) atrofdagilar bilan aloqa qila olmaslik, qo`pol ataksiya (harakatlarning buzilishi) va og`ir zaharlanishlarda sopor va komaga tushishgacha o`zgarib turadi. Alkogolizmda o`limning eng ko`p uchraydigan sabablari yurak qon- tomir kasalliklari hisoblanadi. Xususan, alkogol miokard shikastlanishi surunkali buyrak yetishmovchiligini rivojlanishiga olib keladi va o`lim xavfi bilan tahdid qiluvchi qorinchalar fibrillyatsiyasi xavfini oshiradi Surunkali alkogol iste`mol qiluvchilarda yurak va qon tomir kasalliklari 22 marta ko`p uchraydi. Alkogolizm shuningdek, o`tkir alkogolli intoksikatsiya, o`tkir pankreatitda pankreonekroz, alkogolli jigar sirrozi oqibatida o`lim bilan yakunlanishi mumkin. Alkogoliklar o`z joniga qasd qilishi va hayotga tahdid soluvchi baxtsiz hodisalarga tushib qolishlari ehtimoli yuqori bo`ladi. Ichkilikbozlikni davolash u paydo bo`lishining barcha sabablariga yo`naltirilgan bo`lishi kerak: 1)psixoterapiya: ambulatoriya sharoitida davolashni davom ettirilishiga motivatsiyalashtirishni, xulq-atvor ,suggestive, emotsional-stress psixoterapiyasini olib borish; 2)alkogolga patologik moyillikni bartaraf etish : a)patologik moyillikning barcha turlarida-antikonvulsant karmazepin kuniga 200-400 mg, neyroleptik flufenazin12.5-25mg 3-4 haftada 1 marotaba mushak ichiga ,bromokriptin 2.5 mg dan kuniga 2 marotaba; b) depressiv o`zgarishlar ustunligida-antidepressantlar amitriptilin kuniga 75-100 mg yoki fluvoksamin kuniga 50-100 mg; c)xulq –atvor buzilishlari ustunligida-neyroleptik peretsiazin kuniga 10-20 mg. Bunday muolajalar muvaffaqiyatli bo`lsa, bemorda yuzaga kelgan qiyinchiliklar va muammolarni alkogol «yordamisiz» hal qilish mumkinligi haqida g`oyaviy nuqtai nazar paydo bo`ladi. Xususan, kognitiv-xulqiy terapiya alkogolizmni davolash uchun samarali usuldir, psixoterapiyaning bu usuli alkogolikni o`z fikrlari, hissiyotlarini nazorat qilish va o`z navbatida alkogolli ichimliklar ichish istagi uyg`ongan vaqtda o`zini qanday tutishni o`rgatadi. Bu psixologik jarayonlarni o`tkazish natijasida alkagoliklarda irodali bo`lish,o`zini boshqarish qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda,alkogol ichimliklarga ruju qo`yish , salomatligimizga,

moddiy va ma'naviy hayotimizga zarar yetkazib, jamiyatimizdagi ko'plab muommalarga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farmakologiya darslik S.S.Azizov, Toshkent.2006.
2. O'zbekiston Milliy inseklopediyasi birinchi jild. Toshkent .2000
3. Гофман А.Г. Клиническая наркология.-М.: Медпрактика,2002
4. Барденштейн Л.М., Герасимов Н.П., Можгинский Ю.Б., Беглянкин Н.И. Алкоголизм, наркомании, токсикомании: учебное пособие. -:ГЭОТАР-Медиа,2007.
5. www.library.ziyonet.uz
6. www.avitcenna.uz

OVQAT MAHSULOTLARI VITAMINLAR TARKIBINI O'ZGARISHINI ANIQLASH

Rahmatullaev I. R., Yakubov I. Y.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Vitaminlar haqidagi ta'limot – vitaminologiya hozirgi vaqtda mustaqil fan tarmogidir, vaholanki bundan 100 yil oldin organizmning normal hayot kechirishi uchun oqsil, uglevod, yog'lar, mineral moddalar va suvning qabul qilinishini yetarli deb hisoblaganlar. Lekin amaliyot va tajribalarning ko'rsatishicha organizmning normal rivojlanishi va o'sishi uchun bu moddalarning o'zi etarli emas ekan. Ovqat tarkibida qandaydir moddalarning etishmasligi bilan sodir bo'ladigan kasalliklar epidemik xarakterga ega ekanligi tarixdan ma'lum.

Vitaminlar oziq—ovqat mahsulotlarining tarkibiy qismi hisoblanadi, lekin asosiy oziq moddalar—uglevod , oqsil va yog'ga nisbatan inson organizmi uchun juda kam miqdorda talab qilinsada, moddalar almashinuvining meyoriy borishi uchun g'oyat muhim ro'l o'ynaydi. Organizmda vitaminlarning kamayishi yoki bo'lmasligi biokimyoviy jarayonlarning susayishiga sabab bo'lib , og'ir oqibatlariga olib kelishi qator tadqiqotchilarda isbotlangan. Shuningdek, vitaminlar organizmdagi biokimyoviy reaksiyalarning borishini taminlovchi qator biokatalizatorlar -fermentlarning tarkibiga kirib , ularning aktiv markazini tashkil etadi.

Hozirda, organizmda bo'lishi muhim bo'lgan vitaminlarning soni 30 dan ortiq bo'lib, Ularning xar—birini organizmdagi funktsiyasi g'oyat zarur va muxim hisoblanadi. Shuning uchun ham, inson salomatligi uning tanovvul qilayotgan oziq—ovqatining sifati, miqdoriga e'tibor sog'lom turmush tarzining asosiy omili hisoblanadi.

Bu borada albatta, oziq ovqatning tozaligi, uning saqlash qoidalari va muddatlarini bilish muxim zaruriyatlardan biri ekanligini hisobga olib, sh yo'nalishdagi tadqiqot natijalarini e'tiboringizga havola etamiz. Chunki, oziq—ovqat mahsulotlari vaqt o'tishi bilan sifat—tarkibi o'zgaradi.

Shuni hisobga olgan holda xar—bir ozuqa maxsulotini qanday saqlash kerak, qancha vaqt saqlash mumkinligini bilishimiz juda muxim Sababi, vaqt o`tishi bilan oziq—ovqat maxsulotlari tarkibidagi zaruriy vitaminlarning miqdori o`zgaradi. Birinchi navbatda, ularni tayyorlash—pishirish jarayonini o`zida ulardagi ancha qism vitaminlar parchalanib, kamayayishi ehtimoli ko`p.

Tajribada, xromatografik analiz usuli yordamida aniqlanilganda qoramol go`shti 20 daqiqa (20 minut) qaynatilganda undagi vitamin B₁ ning miqdori 15 % ga, B₂ esa 11 % kamaygan. 120 daqiqa qaynatilganda esa B₁ ning 62 % parchalanib ketishi ma`lum bo`ldi. Mayda to`rg`algan kartoshka qovurilganda undagi vitaminning 81 % parchalangan. Sabzi butinicha qaynatilganda undagi vitamin C ning 54 % parchalangan. Baliq pishirilganda uning tarkibidagi 30—46 % vitamin A parchalanar ekan.

Oziq—ovqat maxsulotlari saqlanish vaqtida ham tarkibidagi vitaminlarning kamayishi (parchalanishi) kuzatildi. Masalan, shivit (ukrop), piyoz, petrushka va salat bargi bir kecha—kunduz saqlanishi davomida 58 % vitaminlari yo`qoladi.

Yangi poliz ekinlarining uzoq muddat saqlanishi natijasida ulardagi vitamin C ning uchdan bir qismi yo`qolgan. Olib borilgan tajribalarda aniqlanishicha, saqlanayotgan yangi poliz maxsulotlariga quyosh nurining tushishidan saqlanish kerak.

Ularni saqlanish xarorati 0 dan +4 gacha bo`lganda undagi vitaminlar kam parchalanib ozuqalik qimmati ham yaxshi bo`lar ekan. Go`sht va go`sht maxsulotlari 0 gradusda, baliq –2 gradus, sut va sut maxsulotlari uchun esa xarorat + 6-8⁰ C dan yuqori bo`lmasligi maqsadga muvofiq ekan.

ПРИЧИНА И АНАЛИЗ ДЕТСКОЙ ИНВАЛИДНОСТИ (ПО МАТЕРИАЛАМ Г.ТАШКЕНТА, УЗБЕКИСТАН)

Акбарова Д.К.

Ташкентская медицинская академия

Введение. В настоящее время в структуре детской заболеваемости, инвалидности и младенческой смертности все большее значение приобретают врожденные пороки развития (ВПР), которые встречаются у 4,0-6,0% новорожденных, а их вклад в структуру младенческой смертности составляет более 20,0% [4, 8, 9-13]. Многие из детей с пороками развития умирают в первые месяцы и годы жизни, а большинство оставшихся в живых нуждаются в постоянной медицинской и социальной помощи [1, 3, 5, 9]. Анализ причин детской инвалидности и смертности детей первого года жизни в Российской Федерации и в ряде стран мира (Англия, Германия, Швеция, Япония) свидетельствует о том, что пороки развития в структуре этих показателей занимают 1-3 места [1].

Цель исследования. Определение роли врожденных пороков развития в структуре детской инвалидности.

Материал и методы. Изучение структуры детской инвалидности проводилось в динамике сплошным методом с использованием МКБ-10. Данные, полученные из органов государственной статистики, были внесены в специальный «Журнал учёта, динамики, изменения уровня и причин инвалидности». Число детей-инвалидов ежегодно в среднем варьирует от 5131 до 6500 (2001-2011). Проанализированы данные о состоянии здоровья детей-инвалидов, уровне их медицинского обслуживания по годам, районам и поликлиникам г.Ташкента, что позволило правильно выбрать базы (районы, поликлиники) и объекты (дети-инвалиды и их семьи, здоровые дети и их семьи). Изучение основных причин детской инвалидности проводилось сплошным методом в семейных поликлиниках, расположенных на территории Шайхонтахурского, Алмазарского, Чиланзарского и МирзоУлугбекского районов г.Ташкента. Выбор районов с различным уровнем детской инвалидности продиктован необходимостью выявления факторов, определяющих эти различия, и резервов снижения детской инвалидности.

Результаты и их обсуждение. Врождённые аномалии, являясь важнейшей причиной инвалидности детского населения и показателем её распространённости, составили 21,2 на 10 тыс. детского населения. Следует отметить, что если причиной детской инвалидности в 78,5% являются 5 классов болезней, но при этом, почти 60% причин детской инвалидности падают всего на 2 класса болезней: болезни нервной системы и врождённые аномалии (пороки развития). Несмотря на значительные успехи в изучении генетических основ возникновения и распространения врождённых аномалий (пороки развития) в популяции, они остаются одной из самых важных проблем здравоохранения. В г.Ташкенте ВПР стабильно занимают третье место среди причин младенческой смертности на протяжении 10 лет. Во-первых, по мере снижения частоты соматических заболеваний в структуре причин перинатальной и неонатальной заболеваемости и смертности существенно возрос удельный вес врождённых аномалий [2, 6]. Во-вторых, в детскую инвалидность значительный вклад вносят врождённой и наследственной патологии. Врождённые аномалии (пороки развития, хромосомные нарушения) в г. Ташкенте в структуре причин детской инвалидности занимали второе место (21,0%). При этом уровень распространённости врождённой патологии в г. Ташкенте составил 21,2‰. Существенные различия у лиц разного пола отсутствовали: у мальчиков этот показатель составил 24,1 у дево-чек-23,9‰. Ведущее первое место занимают врождённые вывихи бедра (5,3), далее следует расщепление губы и нёба (заячья губа), волчья пасть (3,1), синдром Дауна и хромосомные болезни (3,0), врождённые аномалии глаза и уха (2,5), микроцефалии (2,2), врождённые пороки сердца (2,3). Причём все перечисленные нозологические формы болезней в основном устанавливаются в возрасте от 0 до 4 лет, за

исключением врождённых аномалий глаза и уха которые в основном выявляются в возрасте 5-6 и 7-14 лет. Следует отметить, что если врождённый вывих бедра, микроцефалия, расщепление губы и нёба (заячья губа), волчья пасть чаще были причиной инвалидности у девочек, то врождённые аномалии глаза и уха, врождённый парок сердца, синдром Дауна и хромосомные болезни - у мальчиков. Поэтому органы здравоохранения, в настоящее время прежде всего, должны проводить комплекс профилактических мер, направленных на раннее выявления и предупреждение возникновения врожденных аномалий, путём внедрения программ мониторинга, скрининга за течением беременности и родов, состоянием здоровья плода. Вместе с тем, следует отметить, что подавляющее большинство сомато-неврологических нарушений, приводящих к смерти новорождённых и инвалидизации детей, могут быть устранены без применения сложной и дорогостоящей медицинской помощи. Согласно, Международной декларации прав матери и новорождённого, (Барселона, 2001) прежде всего надо заняться вплотную профилактикой детской инвалидности, врождённых аномалий развития, наследственной патологии новорожденных, которая начинается с пренатального периода путём формирования здорового образа жизни и обязательного оздоровления групп беременных женщин высокого риска и всех женщин репродуктивного возраста как в амбулаторно-поликлинических учреждениях, так и в санаториях-профилакториях. Следует повысить качество медосмотров молодёжи, лиц, вступающих в брак обязательного медико-генетического консультирования всех супружеских пар с тщательным контролем за их здоровьем, следить за не допущения ранних, родственных браков. Нужно расширить пренатальную диагностику, неонатальный скрининг врождённых аномалий развития и наследственной патологии с дальнейшей их возможной пренатальной коррекцией с учётом здоровья будущего новорождённого и матери, планирования семьи. Активное выявление и реабилитацию детей с психоневрологическими отклонениями необходимо проводить уже в родильных комплексах путём обязательного осуществления лечебно-реабилитационных мероприятий всех новорождённых группы риска силами специалистов психоневрологического профиля в неонатальном периоде и в раннем детском возрасте, так как в более старших возрастах реабилитационные мероприятия уже не эффективны.

Выводы. Полученные данные демонстрируют реальную социально-медицинскую значимость патологии, обусловленной врождёнными аномалиями (пороки развития), хромосомными болезнями, и их роль в перинатальной патологии и детской инвалидности. Для предотвращения и снижения уровня болезней, врождённых аномалий необходимо усилить профилактику этих болезней, в двух направлениях - генотипическом и фенотипическом: а) предупреждение ранних и искоренение родственных

браков, увеличение интергенетических интервалов (до 3-х лет); б) ограничение деторождения в случаях высокого риска наследственной и врожденной патологии; в) элиминацию генетически поражённого плода в ранние сроки беременности при наличии возможностей дородовой диагностики патологии плода. Этот подход направлен на регулирование самой супружеской парой функции репродукции путём ограничения или полного отказа от деторождения; г) повышение медицинских знаний родителей, внедрение навыков здорового образа жизни, оздоровление среды обитания человека.

Литература

1. Антонов О.В. Научные, методические и организационные подходы к профилактике врожденных пороков развития у детей: автореф. дис. ... д-ра мед.наук / О.В. Антонов. - Омск, 2007. - 32 с.
2. Асадов Д.А. Значимость экономических потерь от инвалидности детства и пути оптимизации медицинских мероприятий по их снижению / Д.А. Асадов, М.К. Шарипова // Педиатрия (Узб.). - 2003. - Спец. вып. -С. 6-10.
режимом характеризуется крайне неудовлетворительной динамикой и нестабильностью параметров, вытекающими из особенностей технологии производства. В то же время агротехнические нормы предписывают высокую точность стабилизации температуры (+/-1градус), своевременное её изменение в зависимости от уровня фотосинтетически активной облученности, фазы развития растений и времени суток. Все эти обстоятельства предъявляют высокие требования к функционированию и техническому совершенствованию оборудования автоматизации управления микроклиматом в теплицах. Современные технологии выращивания овощей, рассады, цветов и зеленных культур требуют постоянного поддержания определенных режимов микроклимата в теплицах. Тепличное производство относится к числу наиболее энергоемких производств. В среднем затраты на обогрев теплиц составляют 40-80% от себестоимости продукции. К примеру, на обогрев 1 Га зимних теплиц расходуется более 200 тонн условного топлива в год, поэтому повышение эффективности его использования имеет важное значение на основе программирования с использованием микропроцессорной техники:

- повышать урожайность (до 40%);
- уменьшить себестоимость продукции;
- возможность стандартизации агротехники и питательных растворов по культурам, что облегчает технологический процесс;
- автоматизация и перевод на базу электроники рабочих процессов, что сводит до минимума расход труда, воды, удобрений;
- более легкая борьба с болезнями и вредителями растений;
- возможность использования территорий, непригодных для обычного выращивания овощных культур;
- значительное улучшение условий для работающих в теплицах.

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ КАК ВАЖНЕЙШЕЕ УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ГАРМОНИЧНОЙ ЛИЧНОСТИ

Уринов Р.Я.

Самаркандский институт иностранных языков Узбекистан

Одной из высших ценностей человека является здоровье. Здоровье - это состояние полного благополучия, которое включает в себя следующие компоненты: высокую работоспособность, устойчивость к заболеваниям; уверенность в себе, основанная на способности управлять своими чувствами и мыслями; стремление и умение управлять собственным здоровьем и строить свое поведение без ущерба для благополучия других людей. Важнейшим фактором сохранения и укрепления здоровья исследователи считают здоровый образ жизни. Здоровый образ жизни - индивидуальная система поведения человека, обеспечивающая ему физическое, душевное и

социальное благополучие в реальной окружающей среде и активное долголетие.

В системе общечеловеческих культурных ценностей базисной является здоровье, т.к. оно определяет возможность освоения человеком всех других ценностей, является залогом жизнестойкости и прогресса общества. В ряде научных работ устанавливается прямая взаимосвязь между здоровьем и счастливой полноценной жизнью, при этом здоровье рассматривается как непреходящая ценность [2, с. 45].

Однако общеизвестно, что гармоничное развитие личности предполагает не только достижение высокого уровня образованности. Одной из важнейших предпосылок гармоничного развития является сохранение и укрепление здоровья человека. Деятельность учащихся в образовании сопряжена с высокими нагрузками, часто ведущими к перегрузкам, что определяет необходимость учёта фактора здоровья в её организации.

Таким образом, здоровье детей является важным условием эффективного их участия в образовании, а различные отклонения и ухудшения его создают препятствия в достижении учащимися заданного уровня образованности, соответствующего Государственному образовательному стандарту. В то же время, статистические данные по состоянию здоровья детей показывают, что меры по здоровью сбережению, принимаемые в практике образования, недостаточно эффективны. Анализ научной литературы показывает, что формирование здорового образа жизни связывают с физкультурным образованием.

Развитие физической культуры и спорта в школе приносит обоснованный экономический эффект всему государству, позволяет воспитывать патриотично настроенную здоровую молодежь, способную в будущем сохранить ценности нации, решать государственные задачи защиты отечества и социально-экономического преобразования общества.

Физическим воспитанием детей школьного возраста признаны заниматься семья и педагогический коллектив школы. И всё-таки особое место в этом воспитательном процессе отводится учителю физической культуры.

Организм ребенка, как показали исследования Л.И. Степановой, подвергается одновременно воздействию множества факторов среды: экологической, антропогенные и техногенные факторы, социально-экономической, социально-психологической и др. Воздействия, которым подвергается ребенок, должны фиксироваться и учитываться детским садом для получения объективных результатов мониторинга, и для повышения эффективности работы с детьми и их родителями.

Особую важность приобретает эта информация, если ребенок попадает в группу риска, если имеющиеся у него отклонения находятся в прямой зависимости от образа жизни. Формирование мотивации здорового образа

жизни, безусловно, сложнейшая педагогическая задача, которая может быть решена только на основе добротной психологической теории. Современная психологическая наука обозначила общие принципы понимания и интерпретации здоровья как объекта исследования. Добиться интеграции медико-биологического, психологического и социально-педагогического знания, ориентирующего на духовно-нравственное становление личности ребенка, гуманитарного стиля мышления возможно только в условиях культуру-ориентированной образовательной системы.

Исследователи (В.Ю. Питюков, Е.Н. Щуркова и др.) отмечают, что создание благоприятного психологического климата в дошкольном образовательном учреждении основа благополучия и здоровья детей. Психологический климат выступает условием, обеспечивающим не только гармоничное развитие личности, но и гарантом сохранения здоровья. Так при благоприятном климате ребенок раскрывается, проявляет свои дарования, активно взаимодействует с педагогом и другими детьми, при неблагоприятном, напротив, становится пассивным, замкнутым, отстраненным, что в дальнейшем приводит к серьезным психосоматическим расстройствам [2, с. 51-52].

Действенным рычагом формирования ЗОЖ должно быть гигиеническое воспитание населения. Территориальные центры здоровья, врачебно-физкультурные диспансеры (отделения, кабинеты), косметологические лечебницы (отделения, кабинеты), кабинеты пропаганды ЗОЖ различных медицинских учреждений (Служба формирования здорового образа жизни) основой содержания своей деятельности обязаны сделать пропаганду принципов формирования ЗОЖ, воспитание системы поведенческих реакций, благотворно сказывающихся на здоровье всех людей начиная с младенческого возраста.

Абдульманова Л.В. определяет содержание понятия «культура здоровья» как осознание ребенком себя как части природы, своего уникального и совершенного создания, выполнение определенных правил, движений, действий, способствующих сохранению целостности системы «человек - природа» и сигнализирующих окружающим свою эмоциональную расположенность и открытость миру [1, с. 14].

В настоящее время наиболее актуальными проблемами укрепления и сохранения здоровья людей стали биологические и психологические аспекты здорового образа жизни, и, прежде всего, потому, что проблема здоровья остается одной из самых важных и нерешенных для человечества. До сих пор нет общепринятой, научно обоснованной теории здоровья, отсутствует и единая концепция здоровья человека как целостного состояния организма. В исследовании О.А. Ахвердова, В.А. Машна дается определение культуры здоровья, которая рассматривается как интегративное личностное образование, являющееся выражением гармоничности, богатства и

целостности личности, универсальности ее связей с окружающим миром и людьми, а также способности к активной творческой жизнедеятельности.

Здоровье подрастающего поколения является в настоящее время вопросом государственной важности. Особенно остро стоит проблема здоровья среди учащихся школ третьей ступени и колледжей. Эффективность воспитания и обучения подростков зависит от здоровья. Здоровье - важный фактор работоспособности и гармонического развития молодого организма. Основными причинами ухудшения состояния здоровья является низкий уровень жизни, безответственное отношение к своему здоровью, низкое материальное обеспечение учреждений здравоохранения, спортивных и учебных заведений.

В погоне за интеллектуальным развитием, высокой образованностью теряется фундаментальная основа для полноценного и гармоничного развития личности - ее физическое и духовное здоровье. Активно внедряются в массовую школу новые средства и технологии обучения. Исследователями отмечается, что на всех уровнях образования молодежи отсутствует обучение здоровому образу жизни, выработки навыков его соблюдения, снижена мотивация к адекватному поведению.

Формирование ЗОЖ - всенародная задача, и работники здравоохранения, стоящие на форпосте этой общегосударственной программы, сами должны быть примером соблюдения ЗОЖ. Однако практика этого не подтверждает (не более 10 % врачей регулярно занимаются утренней гигиенической гимнастикой, не менее 40 % медиков курят). Основные доступные для всех способы формирования ЗОЖ предполагают искоренение вредных привычек, воспитание культуры общения, поведения, питания, соблюдение режима труда и отдыха, систематические занятия физической культурой и спортом, повышение общей санитарной культуры и гигиенических знаний.

Здоровый образ жизни направлен не только на охрану и укрепление здоровья, но и на гармоничное развитие личности, оптимальное сочетание физических и духовных интересов, возможностей человека, рачительное использование его резервов.

По словам Адама Смита, шотландского мыслителя «...Жизнь и здоровье составляет главный предмет заботливости внушаемой каждому человеку природой. Заботы о собственном здоровье, о собственном благосостоянии, обо всем, что касается нашей безопасности и нашего счастья, и составляют предмет добродетели, называемой благоразумием. Оно не допускает нас рисковать нашим здоровьем, нашим благосостоянием, нашим добрым именем. Одним словом, благоразумие, направленное для сохранения здоровья считается качеством почтенным».

Литература

1. Абдульманова Л.В. Здоровый образ жизни как ценность культуры здоровья. Теоретические и прикладные проблемы детской антропологии // Материалы международной научно-практической конференции 3-4 декабря 2003 года. - Часть 2. - Ставрополь, 2003.
2. Айдаркин Е.К. Интегральная оценка уровня здоровья человека на основе технологии индивидуальных психофизиологических портретов / Под ред. Е.К. Айдаркина, Л.Н. Иваницкой // Здоровьесберегающие технологии - основа качества образования: Сб. науч. трудов. - М., 2006. - С. 12-14.

ОИЛАДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АЁЛЛАР САЛОМАТЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ

Ўринова Ф.Ў.

Фарғона давлат университети.

Соғлом авлод миллат равнақи ва истиқболини таъминловчи қудратли куч. Физиологик ва психологик жиҳатдан мукамал бўлган шахсина келажакка ишонч билан қарайди, ўз олдига қўйган мақсадлари йўлида олға интилади, ўзини ўзи такомиллаштириб боришга ҳаракат қилади, мамлакат мустақиллигини мустаҳкамлаш, халқ фаровонлигини ошириш йўлида амалий ҳаракатларни ташкил эта олади.

Маълумки, оилада соғлом фарзанд туғилиши кўп жиҳатдан она саломатлигига боғлиқдир. Агар она қандайдир касаллик билан хасталанган бўлса, ундан соғлиғи заиф ёки турли туғма нуқсонли фарзандлар туғилади. Шу сабабли, умумий амалиёт врачлари биринчи навбатда фертил ёшдаги аёллар (ФЁА) ва ҳомиладорларни сифатли тиббий кўрикларини ўтказиш билан унинг саломатлик ҳолатини баҳолаш, касалликларни эрта даврларида аниқлаш, тўғри ташхис қўйиш ва даволаш тадбирларини ўтказиш муҳимдир. Соғлиқни сақлаш бирламчи тизимида болалар ва аҳолининг катта ёшдаги қисмининг ҳар йилги диспансеризациясини юқори даражада ўтказилиши зарурлигини инкор этиб бўлмайди.

Илмий тиббий адабиётлардан маълумки, фертил ёшдаги аёлларда гинекологик касалликлар билан бир қаторда унинг турли аъзо ва тизимларида шикастланишлар ривожланади. Бу касалликлар гуруҳини умумлаштириб экстрагенитал касалликлар (ЭГК) дейилади. Назарий жиҳатдан мулоҳаза қилганда Жаҳон Соғлиқни Сақлаш Ташкилоти (ВОЗ)да рўйхатга олинган инсонларда учрайдиган 10 минг касалликларнинг ҳаммаси ҳомиладор аёлларда ЭГК тарзида учраши мумкин (гениталий касалликлар, ҳомиладорлик билан боғлиқ касалликлар ва абортдан кейинги ҳолат булардан истиснодир). Лекин буларга ҳомиладор давридаги баъзи аъзоларнинг физиологик гиперфункцияси билан боғлиқ бўлган симптом ва синдромлар (масалан, субфебрилитет, лейкоцитоз, ЭЧТ ошиши, тинка қуриши, шишинқирашлик ва

б.) кирмайди. Демак, ЭГК тушунчасига фақат терапевтик эмас, балки неврологик, инфекцион, онкологик, жаррохлик, тери-таносил ва бошқа касалликлар ҳам киради.

Тажриба шуни кўрсатадики, оиладаги болалар сони шунча бўлиши қулай, маълумки, кўп туғиш (5та ва ундан кўп) нафақат онанинг ҳаёти ва саломатлигига, балки хаста, заиф ва тез касалга чалинувчан болалар туғилиши билан хавфлидир.

ФЁА – аҳолининг 15 ёшдан 49 ёшгача бўлган алоҳида қатлами бўлиб, у соғлом турмуш тарзига риоя қилган, ҳамда оила аъзоларини соғломлаштириш бўйича қатор ташкилий ва даволаш, аҳоли ўртасида касалликларнинг профилактикаси тадбирларини бажарган тақдирда соғлом авлод яратиш қобилиятига эгадир. Ҳозирги кунда УАВ ФЁАлар билан бир қаторда акушер-гинекологлар билан бирга ҳомиладор аёлларни ҳам кузатувга олмақда. Биргалиқдаги кузатувнинг асосий афзаллиги унинг доимий ва мунтазамлигидир. Агар УАВ ФЁАни сифатли тиббий кўригини ўтказиш учун олган билимлари асосида керакли кўникмаларни юқори савияда бажара олса (бажариш ҳаракатлари автоматлашган тарзда), соғлиқни сақлаш бирламчи тизимида ФЁАга бериладиган ёрдам акушер –гинеколог берадиган ёрдам даражасидан кам бўлмасдан, балки ундан юқорироқ ҳам бўлиши мумкин.

Ҳомиладорликка қарши кўрсатмаларни мутлақ ёки нисбий монелигини юқори савияда аниқлаш, кейинчалик соғломлаштириш ва аёл саломатлиги учун зарарсиз бўлган алоҳида у ёки бу контрацепция усулини танлаш катта аҳамиятга эга. Булар билан бир қаторда УАВ соғлом турмуш тарзи, репродуктив саломатлик ва оилани режалаштириш бўйича аёлларга маслаҳат бериш кўникмаларини маҳорат билан бажариши зарур. Ҳомиладор аёлларга туғруқгача бўлган тўлақонли, кенг қамровли, сифатли кузатув ва туғруқдан кейинги даврда ўз вақтида юқори даражада бирламчи тиббий - санитар ёрдам кўрсатишни амалга ошириши керак. ФЁАларда ЭГК аниқланганда УАВ ушбу хасталик давосига тўғри ва савияли йўналиш танлаши шарт. Яъни, амбулатор шароитда ЭГК бўлган ФЁАларни кузатув ва даволаш, зарурият бўлганда шифохонага йўллаш, ёки давони тор мутахассислар билан бирга соғлиғини динамик кузатган ҳолда олиб борилади.

Тиббий кўриклар сифатини ошириш учун, УАВ оилавий поликлиникалар (ОП) ва қишлоқ врачлик пунктларида (ҚВП) мавжуд бўлган тиббий асбоб-ускуналар, тарозилар (болалар ва катталар учун), ўлчов лентаси, тазомер, гинекологик ойналар, шпателлар, стетоскоп, ЭКГ олиш аппарати, отоскоп, офтальмоскоп, риноскоп, ларингоскоп, пикфлоуметр, поликлиника жаррохлиги учун ускуналар, неврологик болғача, микроскоп, клиник ва баъзи биохимик лаборатор текширувларни мақсадга мувофиқ равишда қўллаш билиши шарт. Юқорида кўрсатилган тиббий ускуналарни юзаки ва савиясиз қўлланилиши керакли натижаларни бермай, диагностик хатолар ва салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Шунингдек, соғлом фарзанд туғилиши ва уни режалаштириш учун соғлиқни сақлаш бирламчи тизимида фарзандлар сони ва уларни туғилиш вақтини онгли равишда аниқлаган ҳолда ФЁАларни ҳар йилги, сифатли тиббий кўрикларини ўтказиш зарур.

ФЁАларни ўз вақтида текшириш ва кузатув мобайнида УАВ эр – хотинларга келажақда соғлом авлод туғилиши учун тавсиялар бериши мумкин. Булар қуйидагилар:

- Соғлом аёлларда репродуктив фаолият учун қулай давр 20 – 35 ёшлар ҳисобланади;
- Туғруқлар орасидаги масофа 3-4 йилдан кам бўлмаслиги керак;
- Ҳомиладорлик эр-хотин ёки уларнинг бири ўткир юқумли касаллиги ўтказгандан 2 ой ўтгандан сўнг юзага келишига рухсат этилади;
- Ҳомиладорлик юзага келиши учун энг қулай давр куз ва қиш фасллари дир, чунки бу вақтда спонтан мутациялар ва иммун қаршилиқ хавфи фоизи сусайган бўлади;
- Аёл режалаштирилган ҳомиладорликдан 2 ой олдин химик моддалар билан мулоқатда бўлган зонадан олиб кетилиши зарур;
- Эр-хотинга режалаштирилган ҳомиладорликдан 2 ой олдин зарарли одатлардан (алкогол, чекиш, наркотиклар) бутунлай воз кечиш тавсия қилинади;
- Сурункали соматик хасталиклари бор аёллар ҳомиладорликни касалликни 1-5 йил давомида хуружларсиз тўлиқ ремиссия давридагина режалаштиришлари лозим (касалликнинг турига қараб);
- Хавфли омиллар таъсирида бўлган ишчи аёлларга ҳомиладорликни режалаштириш тўлиқ адаптация - мослашишдан сўнг тавсия қилинади (ишлаб чиқаришда 1-2 йил ишлаганда).

Юқоридагилардан маълум бўладиги, инсон бор экан унинг саломатлиги, айниқса, ўсиб келаётган авлодни жисмоний жиҳатдан бақувват қилиб, фавқулодда рўй бериши мумкин бўлган ҳар қандай вазиятларга тайёрлаш масаласи доимо халқ эътиборида бўлган ва ҳар бир даврда мазкур масалага ўзига хос тарзда ёндошилган.

БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ

Усманова Ш. Ё.

Ферганский государственный университет.

Еще некоторое время назад в науке разгорались споры о том, под влиянием каких факторов происходит развитие человека, превращение индивида в личность. Сегодня ученые нашли большие аргументов, объединяющих их позиции. Предметом ученых стало выяснение причин, обуславливающих становление личности. Выделяются три фактора: развитие

человека происходит под влиянием наследственности, среды и воспитания. Их можно объединить в две большие группы – биологические и социальные факторы развития.

Рассмотрим каждый фактор в отдельности, чтобы определить под влиянием каких из них в большей мере происходит развитие.

Наследственность – это то, что передается от родителей детям, что заложено в генах. Наследственная программа включает постоянную и переменную части. Постоянная часть обеспечивает рождение человека человеком, представителем человеческого рода. Переменная часть – это то, что роднит человека с родителями. Это могут быть внешние признаки: телосложение, цвет глаз, кожи, волос, группа крови, предрасположенность к определенным заболеваниям, особенность нервной системы.

Но предметом разных точек зрения является вопрос о наследовании моральных, интеллектуальных качеств, специальных способностей (способности как какой-то деятельности). Большинство зарубежных ученых (М.Монтенссори, Э.Фромм, К.Лоренц и др.) убеждены, что не только интеллектуальные, но и моральные качества передаются по наследству. Отечественные ученые долгие годы придерживались противоположной точки зрения: признавали только биологическое наследие, а все остальные категории – мораль, интеллект – считали приобретаемыми в процессе социализации. Однако академики Н.М.Амонов, П.К.Анохин высказываются в пользу наследования нравственных качеств или во всяком случае наследственной предрасположенности ребенка к агрессивности, жестокости, лживости. Эта серьезная проблема пока не имеет однозначного ответа.

Однако следует различать врожденное наследование и генетическое. Но ни генетическое, ни врожденное не следует считать неизменным. В процессе жизни возможны изменения врожденных и наследственных приобретений.

«По моему мнению, – пишет японский ученый Масару Ибука, – в развитии ребенка образование и среда играют большую роль, чем наследственность... Вопрос в том, какое образование и какая среда лучше всего развивают потенциальные способности ребенка».

На развитие ребенка влияет не только наследственность, но и среда. Понятие «среда» может рассматриваться в широком и узком смысле. Среда в широком смысле – это климатические, природные условия, в которых растет ребенок. Это и общественное устройство государства, и условия, которые оно создает для развития детей, а также культура и быт, традиции, обычаи народа. Среда в таком ее понимании влияет на успешность и направленность социализации.

Но существует и узкий подход к пониманию среды и ее влиянию на становление личности человека. Согласно такому подходу, среда – это непосредственное предметное окружение.

В современной педагогике существует понятие «развивающая среда» (В.А.Петровский). Под развивающей средой понимается не только предметное наполнение. Она должна быть особым образом выстроена, чтобы наиболее эффективно влиять на ребенка. В педагогике, когда речь идет о среде как факторе воспитания, имеются в виду еще и человеческое окружение, принятые в нем нормы взаимоотношений и деятельности. Среда как фактор развития личности имеет существенное значение: она предоставляет ребенку возможность видеть социальные явления с разных сторон.

Влияние среды на формирование личности постоянно на протяжении всей жизни человека. Разница лишь в степени восприятия этого влияния. С годами человек овладевает умением фильтровать его, интуитивно поддаваться одним воздействиям и уклоняться от других влияний. Для маленького ребенка таким фильтром до определенного возраста служит взрослый. Среда может сдерживать развитие, а может и активизировать его, но быть безучастной к развитию не может.

Третий фактор, влияющий на становление личности, – это воспитание. В отличие от первых двух факторов оно всегда носит целенаправленный, осознаваемый (хотя бы со стороны воспитывающего) характер. Второй особенностью воспитания как фактора развития личности является то, что оно всегда соответствует социально-культурным ценностям народа, общества, в котором происходит развитие. Это значит, что когда речь идет о воспитании, то всегда имеются в виду положительные воздействия. И наконец, воспитание предполагает систему влияний на личность.

ОИЛАДА КУН ТАРТИБИНИ ОҚИЛОНА ТУЗИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Шарофутдинова Р.

Фарғона давлат университети

Оилада соғлом турмуш тарзини шакллантиришда кун тартибига эга бўлиш ва унинг талабларига қатъий амал қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Кун тартиби бир суткалик вақтнинг шахс ёши ва саломатлик ҳолатини эътиборга олган ҳолда меҳнат, ўқувни ташкил этиш, жам олиш, овқатланиш, ухлаш, шунингдек, жисмоний тарбия ва спорт билан шуғалланиш бўйича тўғри тақсимланишидир.

Тўғри ташкил этилган кун тартиби болада тетик ва яхши кайфият, ўқиш ва ижодга, турли ўйинлар ва машғулотларга қизиқиш уйғотади, унинг ривожланишига яхши таъсир кўрсатади».

Ю.А.Афанасьев ҳамда Ю.А.Куликовлар оилада соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантиришда оқилонга ёндошув асосида илмий-назарий

ва амалий жиҳатдан тўғри ташкил этилган кун тартибига алоҳида аҳамиятга эгалигига урғу берган ҳолда қуйидаги андозани таклиф этадилар:

- доимо бир вақтда уйқудан туриш;
- эрталабки чиниқиш ва сув муолажасини ўтказиш;
- кунига уч маҳал ёки яхшиси, тўрт маҳал белгиланган вақтда овқатланиш;
- бир кунда камида икки соат тоза ҳавода бўлиш;
- доимо бир вақтда ўқув фанлари бўйича мустақил шуғулланиш;
- ҳар ҳафтада (камида икки марта) икки соатдан жисмоний машқлар ёки (қулай жисмоний юкланма) спорт билан шуғулланиш;
- бир кунда камида саккиз соат ухлаш;
- ҳар куни бир вақтда уйқуга ётиш.

Ота -оналар кун тартибини илмий-методик ёндошув асосида тузиш кўникмаларига эга бўлишлар зарур. Бу ўринда улардан қуйидаги қоидаларга амал қилишлари талаб этилади:

- турли хил фаолиятлар, уларнинг энг маъқул давомийлигини, бир-бири билан навбатлашуви ва вақтини аниқлаш;
- дам олиш вақтини иложи борича очиқ ҳавода ташкил этиш;
- ўз вақтида сифатли овқатланиш;
- гигиеник тўлақонли уйқу.

Оилада кун тартибини оқилона тузиш кўникмаларини шакллантириш чоғида уларга кун тартиби негизида акс этувчи асосий қисмлари оила аъзоларининг ёш хусусиятларига кўра турлича бўлиши ҳақидаги билимларни бериш келгусидаги амалий педагогик фаолият самарадорлигини кафолатлайди.

Оила ўртасида гигиеник тарбияни ташкил этиш ва уларда шахсий ҳамда умумий гигиена қоидаларига қатъий риоя қилиш кўникмаларини шакллантириш ҳам оила аъзолари ўртасида соғлом турмуш тарзи ва унинг асосларини тарғиб этишга йўналтирилган педагогик фаолиятнинг муҳим таркибий қисми саналади.

Ота – оналар, ўқитувчилар гигиена, унинг турлари, шахсий гигиенага амал қилиш шартлари тўғрисидаги пухта билимларнинг берилишига эришиши мақсадга мувофиқдир. Шу ўринда оиланинг гигиена ва шахсий гигиена тушунчаларининг моҳиятини англаб олишлари учун уларга қуйидаги маълумотлар берилиши зарур:

Гигиена (юнонча *hygienos* – соғлом) – тиббиётнинг муҳим соҳаларидан бири бўлиб, атроф-муҳитдаги турли омиллар (ҳаво, тупроқ, иқлим) ва ишлаб чиқариш фаолиятининг киши соғлигига таъсирини ўрганиб, аҳолининг ҳаёт ва меҳнат шароитларига бўлган талабини илмий ҳамда амалий жиҳатдан ишлаб чиқади.

Шахсий гигиена–инсон саломатлигини сақлаш, унинг мустаҳкамланишини таъминловчи тозалик ва озодаликка риоя қилиш қоидалари.

Замонавий техник воситалар телевидение ва компьютернинг тобора тараққий этиши туфайли болаларнинг кўп вақтларини улар қаршисида ҳаракатсиз ўтиришларига сабаб бўлмоқда. Бу эса уларнинг саломатлигига жиддий таъсир этади, зеро, ҳаракатсизлик овқат ҳазм бўлмаслиги, қорин, сон қисмларида ёғ тўпланиши, вазнининг ошишига олиб келади.

Оилада соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган педагогик фаолиятнинг яна бир муҳим кўриниши – бу болада зарарли одатлар (тамаки маҳсулотларини чекиш, спиртли ва наркотик моддаларни истеъмол қилиш, бетаратиб жинсий ҳаётни йўлга қўйиш)нинг ўзлаштирилишига қарши педагогик-профилактик ишларни амалга ошириш ҳисобланади.

Махсус тиббий-биологик ва ижтимоий-педагогик мазмундаги адабиётларда қайд этилишича, чекиш, спиртли ичимликларни истеъмол қилиш, шунингдек, «наркоманияга қарши кураш алоҳида ўзига хос хусусиятга эга» бўлмай, ахлоқий тарбиянинг муҳим таркибий қисми саналади. Оилада зарарли одатларни ўзлаштиришга қарши ички иммунитетни шакллантиришда уларга зарарли одатлар ва уларнинг инсон саломатлигига таъсири тўғрисидаги маълумотларни бериш зарур ва муҳимдир, бироқ энг асосийси ўсмирларда фаол ижтимоий позиция, жамоавий йўналганликни тарбиялаш, қандайдир қизиқарли иш билан бандликни қарор топтириш, ёрқин ҳаётини истиқбол ва идеалларни ҳосил қилиш талаб этилади.

Ўқитувчи томонидан ўқувчида таблетка, шприц, махсус игналар топилганда эса масъул шахслар билан ҳамкорликда уларнинг мавжудлиги сабабини аниқлаши зарур.

Ўқувчининг наркотик моддаларни истеъмол қилганлигини сезган заҳоти ўқитувчи уни мактаб врачлари олдида юбориб, уни текширувдан ўтишини таъминлаши зарур. Врач эса ўқувчини наркологик диспансерга юбориш чоратадбирини белгилайди. Биринчи марта наркотик моддаларни истеъмол қилган бўлса-да, уни профилактик тадбирларни олиб бориш режалаштирилган махсус рўйхат ва назорат остига олиш мақсадга мувофиқдир. Оилалар ўртасида соғлом турмуш тарзи асосларини тарғиб қилишнинг муҳим шартларидан бири – улар ўртасида жинсий тарбияни самарали ташкил этиш асосида уларда жинсий ҳаётни онгли йўлга қўйиш кўникмаларини шакллантириш саналади.

Оммавий ахборот воситаларининг тезкор тараққиёти ёшлар, шу жумладан, оилада жинсий масалаларга бўлган қизиқишнинг тобора ўсиши, акцелерация (лот. *acceleratio* – тезлашиш) ҳодисасининг кузатилишига олиб келмоқда. Шу сабабли «ёшлар жисмоний ва жинсий жиҳатдан эрта балоғатга етишига қарамай, уларни барвақт жинсий ҳаёт бошлашидан сақлаш масаласи долзарб бўлиб қолмоқда». Руҳан камолга етмай туриб жинсий ҳаётнинг бошланиши ҳамда унинг нотўғри, тартибсиз амалга оширилиши энг хавфли касаллик СПИДни келтириб чиқарувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Шунга кўра вояга етмаган фарзандлар ўртасида жинсий тарбияни самарали ташкил этиш ниҳоятда муҳим.

Ўқитувчиларнинг коллежда жинсий тарбияни ташкил этиш жараёнидаги иштирокининг самарали кечиши учун таълим муассасаларида таълим олиш чоғидаёқ улар қуйидаги билимларни ўзлаштира олишлари зарур:

1. Жинсий ҳаётнинг маънавий-ахлоқий жиҳатлари, унинг асоси юксак масъулиятдан иборат эканлигини оиланинг ўзлари чуқур англаганлари ҳолда оилада бу ҳақидаги тушунчаларни ҳосил қилиш тўғрисидаги методик билимларга эгалик.
2. Оила ўртасида жинсий ҳаётнинг таянч устунлари бўлган никоҳ ва оила, никоҳга киришиш ва оила қуриш ҳамда уларни мустақкамлашнинг шарий ва қонуний йўллари, эр ва хотиннинг никоҳ, оила олдидаги масъулияти, фарзандларга эгалик ва уларнинг тарбиясини тўғри ташкил этишнинг ижтимоий-маънавий оқибатлари тўғрисидаги билимларни тарғиб этиш кўникмаларига эга бўлиш.
3. Болаларнинг жинс анатомияси, физиологияси ва гигиенаси тўғрисидаги илмий-тиббий билимларга эга бўлишларига ўз ҳиссаларини қўшиш малакасига эга бўлишлари.
4. Болага уларнинг организмида кечаётган физиологик ўзгаришларнинг табиий жараён эканлигини англаган ҳолда беҳуда руҳий истиробларнинг олдини олиш малакасига эга бўлиш.
5. Боланинг жинслар ва жинсий ҳаёт масалалари тўғрисида «четдан» асосли бўлмаган маълумотларни ўзлаштиришлари оқибатида уларда нотўғри тушунчалар шаклланишининг олдини олишда масъулиятли бўлиш малакасига эгалик.
6. Оила аъзоларининг доимий равишда ижтимоий-фойдали меҳнат билан банд бўлишлари, жисмоний тарбия ва спортнинг маълум турлари бўйича фаол шуғулланишларини таъминлашда таълим муассасаси ва ота-оналар билан ҳамкорликка эришиш.
7. Оилада жавобгарлик, бурч, бошқаларга меҳр-муҳаббат ва ҳурмат билан муносабатда бўлиш каби сифатларни тарбиялаб бориш мақсадида таълим муассасасида уюштирилаётган маънавий-маърифий тадбирларда фаол иштирок этиш кўникмасига эга бўлиш.

Юқорида айтиб ўтилган тартибда иш кўриш оилада биринчи ёрдам кўрсатиш кўникмаларини самарали шакллантириш ва бу борадаги билимларни педагогик фаолият жараёнида оилага ўргатиш имкониятини яратади.

6-TIBBIY TA'LIMDA AKT

ZAMONAVIY MOBIL QURILMALARNI OLIY TA'LIM TALABALARNI O'ZLASHTIRISHI KO'RSATGICHIGA TA'SIRI

Abdumanonov A.A., Usmonov A.X., Absalyamov D.R., Madaminov A.S.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mobil telefon zamonaviy hayotning ajralmas qismi hisoblanadi. Aloqaning bu turi faqat 20 yil oldin juda ozchilik uchungina mavjud edi deb tasavvur qilish qiyin. Xozirda mobil telefon aholining barcha toifalarida mavjud. Zamonaviy telefonlarning imkoniyatlari oddiy aloqa vositasigina emas, u keng axborot maydoniga aylanib bormoqda. Qo'ng'iroqlar, SMS-xabarlar va ijtimoiy tarmoqlardan tashqari, mobil telefonlar yana bir qator funksiyalarga ega bo'lib, albatta, ular yoshlarning e'tiborini tortadi. Hozirgi yosh avlod zamonaviy mobil qurilmalarda mavjud barcha funksiyalarni ancha yaxshi o'zlashtirishgan. Mobil telefon stasionar aloqa qurilmasigina emas, uni uyda va ko'chada emas, balki istalgan joyda foydalanish imkoniyatiga ega.

Ushbu ishning dolzarbligi zamonaviy talabalar hayotida va ta'lim jarayonida mobil telefonning rolini aniqlashdan iborat. Ota-onalar va o'qituvchilarning fikriga ko'ra, o'quvchilarning ta'lim olishdagi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi telefonning ayni ko'pgina funksiyalari talabani o'ziga jalb qilishi va bu uni asosiy ta'lim olishdan chalg'itishi hisoblanadi. Talabalarni va mobil aloqa xizmatlaridan faol foydalanuvchilar sifatida qarab ta'lim jarayonida telefondan foydalanishning ta'sirini aniqlashni o'zimiz uchun juda muhim deb hisoblaymiz va bu xozirda pedagoglar va ota-onalar uchun juda dolzarb, shuning uchun biz bu masalani yanada chuqur o'rganishni dolzarb deb topdik [1-12].

Bu masalani o'rganish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- Zamonaviy mobil telefonlarning imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;
- Pedagoglar, talabalar va ularning ota-onalarining o'quv jarayonida har birining mobil telefonlardan foydalanishga munosabati bo'yicha so'rov o'tkazish;
- Talabalar o'rtasida mobil telefonning o'zlashtirish ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash uchun tajriba o'tkazish.

Tadqiqot obyekti-talabalar tomonidan mobil telefonlardan foydalanish. Tadqiqot predmeti-telefondan foydalanishning talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va ma'naviyatiga ta'siri. Tadqiqot usullari: so'rovnomalar, fikrlarni o'rganish, qiyosiy tahlil va kuzatish.

Mobil telefonlar aloqa vositalari guruhiga mansub bo'lib, ular orasida eng mashhuri smartfon hisoblanadi. Smartfon (inglizcha smartphone — so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda "aqlli telefon" degan ma'noni

anglatadi) – u o'z operatsion tizimi, prosessor, operativ xotirasiga ega bo'lgan telefon. Smartfonda oddiy telefonning narx va tarqalish kabi o'zgarishlaridan tashqari uning texnik qismga ham ta'sir ko'rsatdi: agar dastlabki mobil telefonlar qo'ng'iroq qilish uchun oddiy aloqa vositasi bo'lgan bo'lsa, endi u sizning cho'ntagingizga kichik o'lchamli kompyuterga aylandi. So'nggi yillarda, bu turdagi aloqa vositasidan foydalanish juda keng tarqaldi va kundan kunga foydalanuvchilar soni ortib bormoqda va ishlab chiqaruvchilar har yili oldingiga nisbatan bir-biri bilan raqobatli yanada kuchliroq kuchli prosessor ishlab chiqarish, video chiplar, kameralar, yanada yupqaroq va qulay qilish va katta ekranli qilib ishlashmoqda.

Smartfon telefondan o'zining operatsion tizimda ishlashi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda eng mashhur mobil operatsion tizimlar Android, IOS va Windows Phone hisoblanadi. Shuningdek, texnik kattaliklarining rivojlanishi bilan smartfonning imkoniyatlari ham o'sdi, ular ko'proq funksiyalarga ega bo'ldi. Operatsion tizim tufayli smartfon egalari qo'shimcha ilovalar yordamida uning funksiyalarini kengaytirish imkoniga ega bo'lishdi. Turli ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarini kengaytiradigan ko'plab ilovalar va xizmatlarga smartfonlardan keng foydalanishni ortishi talaba uchun ushbu mobil qurilmaning ta'lim va o'quv jarayonidagi o'rni va roli masalasiga e'tibor qaratishga olib keladi. Smartfonning ko'p qirraliligi internetda, axborot resurslaridan tezkor foydalana olishi, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan muloqot qilish, turli shakllarda (testlar, media fayllar) taqdim etilgan o'quv ma'lumotlari bilan tanishish imkoniyati bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, smartfon chalg'ituvchi obyekt bo'lib, muayyan shart-sharoitlar, addiktiv xulq-atvorni buzuvchi (smartfonga qaramlik, mobil giyohvandlik) va boshqa ruhiy va tizimli kasalliklarni shakllantirish obyektiga aylanishi mumkin bo'lgan qurilmadir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mobil telefonga ega bo'lish mustaqillik va erkinlik kabi bir qator ijobiy psixologik ta'sirlarga olib keladi. Telefon ota-onalar va do'stlar bilan bog'lanish imkoniyatini beradi va bu ijobiy munosabatlarni o'rnatishga olib keladi. Bundan tashqari, mobil telefondan ortiqcha foydalanish bir necha salbiy oqibatlarni: bezovtalik, xavfsizlik hissini yo'qotish, tez-tez kayfiyatni o'zgarishi, turli xizmatlarga kirish imkoniyatini cheklanishi bilan bog'liq muammolar, kutilgan xabarlarini qabul qilmagan taqdirda tushkunlikka tushish tuyg'usi, uyqu buzilishi, ijtimoiy tarmoqlarda xabar va yangiliklarni tekshirish uchun tez-tez uyg'onish, qo'ng'iroqlar, jismoniy alomatlar (bo'yindagi og'riq, ko'zlarga ta'siri, eshitish va taktil gallyutsinatsiyalar, delussiyalar va hokazolar), nomofobiya (telefonsiz qolishdan qo'rqish) va boshqalar [13].

Yana shunday ilmiy tajriba xulosalari va dalillar borki, xatto telefonni yonida olib yurish (cho'ntakda, sumkada, stol ustida turishi) ham kognitiv funksiyalarga (xotira va diqqat) ta'sir etadi, ularning unumdorligini kamaytiradi. «brain-drain» deb nomlangan va miyaning bilim funksiyalarining zaiflashuvini bildiruvchi bu ta'sir, ayniqsa, smartfonga qaram bo'lgan talabalarda yaqqol namoyon bo'ladi [13].

So`nggi paytlarda tadqiqotchilar mobil telefonga (mobil narkomaniya, smartfon narkomaniyasiga) qaramlikni shakllanishi kabi muammolarga e`tibor qaratishmoqda, uning asosiy xususiyati kundalik hayotda salbiy oqibatlarga olib keladigan mobil telefondan foydalanishni tartibga sola olmaslik xisoblanadi. Qo`llaniladigan terminlar (mobil telefonga qaramlik, mobil narkomaniya, mobil telefondan disfunktsional foydalanish va boshqalar) asosiy komponentlarning tarkibi, bog`lanib qolishdir. Bog`lanib qolish mavjudligini o`zi u bilan bog`liq boshqa alomatlar ruhiy kasalliklarning namoyon bo`lishi belgilari sifatida ko`riladi.

Maqola doirasida biz "mobil qurilmadan foydalanish muammosi" tushunchasiga e`tibor qaratishda uning o`quv jarayoni bilan bog`liq vaziyatlarga ta`sirini nazarda tutgan xolda o`rgandik. Bunday holda telefondan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar (masalan, o`zlashtirish ko`rsatkichlarni tushib ketishi, tengdoshlari bilan jismonan aloqa kamayishi va boshqalar) telefondan foydalanishning muammolarining ko`rinishlari sifatida qaralishi mumkin.

Telefonning ta`limga salbiy ta`sirining sabablarini tushunish, telefon narkomaniyasining shakllanishini tushuntirish uchun ishlab chiqilgan nazariyalarga ham yordam berishi mumkin. Shunday qilib, telefondan kam foydalanish nazariyasi mobil telefonlarni salbiy natijalari va uni orqasidan paydo bo`layotgan dolzarb muammolardan qochish uchun ishlatish mumkinligidan kelib chiqadi. Foydalanuvchi o`z e`tiborini "bu yerda va hozir" tushunchasiga qaratib, mavjud muammolar bilan bog`liq noxush fikrlar va o`ylardan himoyalaniishi va uning oqibatida paydo bo`ladigan noqulaylik va stressli zo`riqishni kamaytirishi mumkin.

Tadqiqotda olingan ma`lumotlarni umumlashtirib, telefonning oliy ta`lim olishda o`quvchilarning o`quv faoliyatiga ta`sirini aniq baholab bo`lmasligini ko`rsatdi, chunki bunda: ijobiy ta`sirlar va salbiy ta`sirlar mavjud. Tadqiqot shuni ko`rsatadiki, bilim olish sifati va samaradorligiga to`squinlik qilishi va o`quv samaradorligini pasaytiruvchi omillar talabalar tomonidan telefondan foydalanish ko`nikmalari va madaniyatini shakllanmaganligi, qarama-qarshilik oqibatlariga olib kelishidir. Tajribalar shuni ko`rsatdiki telefondan foydalanish madaniyatini shakllantirishda talabaga ularni psixologik xolatlariga alohida shaxs xususiyatlari sifatida qaralishi kerakligini ko`rsatadi. O`smir yoshidagi talabalarga mobil qurilmalardan foydalanishni cheklash yoki ularga undan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim masala ekanligini ko`rsatdi. O`smirlik davrida mobil telefondan foydalanish madaniyatini to`g`ri shakllantirish o`sib ulg`aygan sari uning haqiqiy funksional maqsadini topishda yordam beradi, bu esa tegishli qo`shma (oila, bilim yurti) profilaktik va profilaktik chora-tadbirlarni jadal olib borish kerakligini anglatadi.

Adabiyotlar

1. Beland L.-P., Murphy R. Ill communication: technology, distraction and student performance// CEP Discussion Paper. 2015. № 1350. Bianchi A.,

- Phillips J. G. Psychological Predictors of Problem Mobile Phone Use // *Cyberpsychology & Behavior*. 2005. № 8. P. 39-51.
2. Billieux J. Problematic use of mobile phone: a literature review and a pathways model // *Curr. Psychiatr. Rev.* 2014. № 8 (4). P. 299-307.10
 3. Butts S., Phillips J. G. Personality and self-reported mobile phone use // *Computers in Human Behavior*. 2008. № 24. P. 346-360.
 4. De-Sola Gutiérrez J., Rodríguez de Fonseca F., Rubio G. Cell-Phone Addiction: A Review // *Frontiers in Psychiatry*. 2016/ № 7. P. 175.
 5. Ehrenberg A. S., Juckes K. M., White and S. P. Walsh. Personality and self-esteem as predictors of young people`s technology use // *Cyberpsychology and Behavior*. 2008. № 11 (6). P. 739-741.
 6. Lepp A., Barkley J. E., Karpinski A. C. The relationship between cell phone use and academic performance in a sample of U. S. college students // *SAGE Open*. 2015. № 1–9.
 7. Merlo L. J., Stone A. M., Bibbey A. Measuring Problematic Mobile Phone Use: Development and Preliminary Psychometric Properties of the PUMP Scale // *Journal of Addiction*. 2013. Vol. 2013.
 8. Md. Emran Hossain, S. M. Zayed Ahmed. Academic use of smartphones by university students: a developing country perspective // *The Electronic Library*. 2016. Vol. 34. Issue 4. P. 651-665.
 9. Norries C., Hossain A., & Soloway E. Using smartphones as essential tools for learning: A call to place schools on the right side of the 21st century // *Educational Technology*. 2011. № 51 (3). P. 18-25.
 10. Roberts J. A., Petnji Yaya L. H., Manolis C. H. The invisible addiction: cell-phone activities and addiction among male and female college students // *J. Behav. Addict.* 2014. № 3. P. 254–265.
 11. The Relationship Between Smartphone Use and Academic Performance: A Case of Students in a Malaysian Tertiary Institution / Siew Foen [et al.] // *Malaysian Online Journal of Educational Technology*. 2017. Vol. 5.
 12. Taneja C. The psychology of excessive cellular phone use // *Delhi Psychiatry J.* 2014. № 17. P. 448–451.
 13. Ward Adrian F., Duke Kristen, Gneezy Ayelet, Bos Maarten W. Brain Drain: The Mere Presence of One`s Own Smartphone Reduces Available Cognitive Capacity // *Journal of the Association for Consumer Research*. 2017. № 2. P. 140-154.

TA`LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Absalyamov D.R.

Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot institute, TPI yo`nalishi talabasi

Oliy ta`lim o`quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy

ta`limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta`lim olish mumkin. Zero an`anaviy ta`lim o`z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o`qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta`lim muhitiga integrallashishga yo`naltirilgan ta`lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta`lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o`zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta`lim sohasiga kirib kelishi ta`lim usullari va o`qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o`zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta`lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. AKT — bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta`minotga ega bo`lgan kompyuterlar va ma`lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir.

Axborot texnologiyasi, kompyuterlar yordamida darslarning sifat ko`rsatkichlari quyidagi asosiy faktorlar bilan aniqlanadi:

- o`quv dasturining sifatli shakllantirilganligi;
- kompyuter texnikasining sifati va uning imkoniyatlari;
- shaxsning kompyuter imkoniyatlaridan o`zlashtirib olish malakalarining shakllanishi
- Ta`lim jarayonida axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda quyidagi bosqichlarga e`tibor qaratish kerak:
Ta`lim oluvchilarda o`quv materiallarini taqdim etish va tushuntirish bosqichi,
- Kompyuter bilan o`zaro muloqot jarayonida o`quv materiallarini o`zlashtirish bosqichi;
- O`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalarni takrorlash hamda mustahkamlash bosqichi;
- Erishilgan yutuq va natijalarini o`zini – o`zi tekshirish orqali nazorat qilish bosqichi;
- Nazorat bosqichi;
- O`zini – o`zi, shuningdek, nazorat bosqichlari natija va xulosalariga ko`ra o`quv materiallarining taqsimlanishi, tasniflanishini, tizimga solinishini korreksiyalash, tuzatishlar kiritish bosqichi.

Ta`limda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tashkil etilgan darslardan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlari mavjud.

Uning o`quv-tarbiyaviy jihatlari:

- o`qituvchi o`quvchi bilimining hajmi va to`g`riligini emas, balki anglanganlik darajasini hisobga oladi;

- hozirjavoblighi va bilimni amaliyotga tatbiq qila olish darajasini tekshirish;
- o`quvchi javoblariga uning ijobiy va salbiy tomonlarini ko`rsatib taqriz berish;
- ayrim o`quvchilarning bilimni tekshirishda butun sinfnig faol ishtiroki.
- kompyuter vositalarini qo`llashning yana bir muhim jihati jamoaviy tadqiqot xarakgeriga ega bo`lgan innovatsion metodlardan foydalanishdir.

Bu usullar o`quvchining mustaqil ijodiy faoliyatida muammolar yechimini izlash va mustaqil qaror qabul qilishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Bunday darslarda o`quvchilarga «ijodiy ish» berish mumkin. Bu ularning bilimni chuqur egallaganliklarini namoyish etish imkonini beradi. Bunda o`qituvchi va o`quvchilarga multimedia yordamga keladi. Bu vazifani bajarishda musiqa, video, rasmlardan foydalanish ularning o`tilgan mavzuni qanday eshitish va ko`rishlarini namoyon etadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta`lim jarayoniga keng ko`lamda joriy qilish quyidagilarni beradi:

- o`quv va ilmiy axborotlarni talaba hamda professor-o`qituvchilar tomonidan qidirib topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;
- elektron o`quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o`zgartirishni tez-ashtirilishi;
- talabalarning mustaqil ta`lim olishlari uchun qo`shimcha vaqtning ajratilishi.

Kompyuterli o`qitish texnologiyalari. Kompyuter texnologiyalari o`qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o`quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o`qitishning yangi shakllariga, bir so`z bilan aytganda ko`proq ijodiy ishga o`tishga imkon beradi. Kompyuter bizni quyidagilar bilan ta`minlaydi:

- Interfaollik;
- Multimedia;
- Kommunikativlik;
- Unumdorlik.

O`quv jarayonida bir vaqtning o`zida pedagog va kompyuterning ishtiroki ta`lim sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, o`quvchining o`qitilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o`quv materialini chuqur o`zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi bir tomondan turli toifadagi talabalarga o`quv materialini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomondan u o`qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo`yadi. Pedagogik texnologiya

Pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog`liq, hamda o`qitish jarayonida qo`llanishi zarur bo`lgan ta`lim samaradorligini oshirish, o`qituvchining texnologik vositalari, kompyuter, masofali o`qitish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o`qituvchi va o`quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan

natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'qituvchi esa ularning faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Modulli o'qitish texnologiyasi. O'qituvchi tomonidan fanning qator mavzularini birlashtiruvchi bo'limlarga (o'quv elementlarga) ajratilishi bo'lib, odatda fan bir necha bo'laklardan iborat bo'ladi va eng oddiy hollarda darslikning boblariga mos tushishi mumkin. Har bir ta'lim oluvchi har qaysi o'quv elementi moduli yuzasidan izchil yo'l-yo'riq oladi. Unda modulning maqsadlari ko'rsatiladi. O'quv ishlarining ma'lum turlari tavsiya qilinadi. Modul bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari keltiriladi. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv faoliyati turlari erkin tanlanadi va modul bo'yicha alohida sinov o'tkaziladi. Modulli o'qitish ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Videokonferensiya va uni o'quv jarayonida qo'llash. Videokonferensiya - bu shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar bilan almashadi. Videokonferensiya o'tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim. Videokonferensiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuter (texnik) qurilmalari va videokonferensiyani o'tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda, muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanish.

Videokonferensiya va uni o'quv jarayonida qo'llash. Masofadan videokonferensiya tizimini qo'llash yordamida interaktiv o'quv darslarini olib borish imkoniyati yaratildi, ya'ni interfaol usulda ma'ruzalarni o'qish, seminarlar tashkil etish, savollarga javoblar va hokazo. Interfaol forma – masofadan videokonferensiya o'qitish tizimi, masofadan turib Internet yoki lokal tarmoq orqali o'qitishdan farq qiladi, xuddi radiodan va televideniya bilan ma'ruza o'qish kabi.

Masofadan videokonferensiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Tashqi elektron doska qo'llashda o'qituvchi doskaga yozadi va bu videokonferensaloqa ko'magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko'rsatiladi. Elektron doskadan masofadan o'qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari mumkin, ya'ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi doskalarda ko'rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma'ruza o'qiyotgan professor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi. Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, loyiha, o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Axborot texnologiyalari, kompyuterli darslarning qulayligi shundaki, unda o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirib olayotganligini doimiy ketma-ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak xollarda tuzatishlar kiritib borishga imkoniyat yaratiladi.

Shuning uchun ham axborot texnologiyalari, kompyuter asosida darslarda qiziqish, o'zini-o'zi boshqarish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilish dars oxirigacha saqlanib qoladi. Bunday darslarda o'quvchining bilim olish motivatsiyasi oshib boradi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDAN NAZORAT ISHLARINI TEST USULIDAN FOYDALANIB OLIHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Asimov A., Mamasaidova M. A.

Farg'ona Davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kelajakdagi mutaxassislarning kamolga yetishida asosiy rol o'ynaydi. Yaxshi boshlang'ich sinf bo'lmasa, yaxshi yuqori sinf bo'lmaydi. Shu sababdan maorif tizimidagi har qanday sifat ko'rsatkich maktabning o'zagi bo'lgan boshlang'ich sinfga va uning mutaxassislarga bog'liqdir. Shunga muvofiq mamlakatimiz ta'limga katta e'tibor bermoqda.

Hozirgi davrda boshlang'ich sinf o'quvchilariga puxta bilim berish maqsadida o'qitishning turli uslubiy shakllaridan foydalanilmoqda. Shunday yangi uslublardan biri test uslubidir.

Test so'zi inglizchadan kirib kelgan bo'lib, tarjimada "sinov", "tekshirish" ma'nolarini anglatadi. Psixologik ta'rifga ko'ra, test-qisqa, standartlashgan, vaqti cheklangan, individlararo psixologik farqlarni aniqlash uchun ishlatiladigan uslubdir.

Testlarning ichida eng ko'p tarqalgani intellektual testlar, maxsus qobiliyatlarni o'lchaydigan testlar, texnik tafakkur, fazoviy tasavvurlar, psixomotorika testlari va hokazolardir.

Odatda matematika fani bo'yicha test quyidagi uch xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- a) To'g'ri tasdiqdagi tushirib qoldirilgan belgilarni to'ldirish;
- b) Biror tasdiqni to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida hukm chiqarish;
- c) Javob orasidagi to'g'risini va to'lig'ini tanlash.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida uchinchi xil ko'rinishdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, u qulay va afzalliklarga boy usuldir.

Yuqori sinflar uchun tuzilgan testlardan farqli o'laroq boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tuzilgan test savollari turli talablarga javob berishi darkor.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llaniladigan har bir testing o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lishi lozim. U o'quvchilarning bilimini tekshirishga, tez fikrlashga o'rgatish, ulardan sinchkovlikni va darsga bo'lgan qiziqishlarining oshiriq maqsadida o'tkazilishi kerak. Test o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojlanishini, diqqati, bilim imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Tuzilgan testlar o'quvchilar bilimini oshirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bilimlarni chuqurlashtirishga hizmat qilishi lozim. Test savollari bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uchtadan javobga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Test savollari tuzganda ko'pchilik o'quvchi yo'l qo'yadigan xatolarni albatta test javobiga kiritish darkor.

Masalan: a) Amallar bajarish tartibini bajarishda yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olish uchun quyidagicha test tuzish mumkin.

1. Qaysi holda $20-12:2+2$ sonli ifoda qiymati to'g'ri hisoblangan?


A. $(20-12):2+2=6$ B) $20-(12:2)+2=16$ D) $20-12:(2+2)=17$

Boshlang'ich sinfda amallarni bajarish tartibi o'rgatiladi, biroq o'quvchilarda bu tartibni yodda saqlab qolish aksariyat hollarda yaxshi emas, ya'ni tez yoddan chiqarishadi. Shuning uchun ham bu kabi testlarni ularga tez-tez taqdim etish joiz. Zero takrorlanib turilgan bilim mustahkamlanadi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llaniladigan har bir testing o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lishi lozim. U o'quvchilarning bilimini tekshirishga, tez fikrlashga o'rgatish, ulardan sinchkovlikni va darsga bo'lgan qiziqishlarining oshiriq maqsadida o'tkazilishi kerak. Test o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojlanishini, diqqati, bilim imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Tuzilgan testlar o'quvchilar bilimini oshirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bilimlarni chuqurlashtirishga hizmat qilishi lozim. Test savollari bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uchtadan javobga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari vaqtdan unumli foydalanish maqsadida test topshiriqlarini axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Masalan, boshlang'ich sinflarda 10 ichida nomerlashga o'rgatish mavzusida, 10 gacha bo'lgan sonlar ustida arifmetik amallar bajarish ko'nikmasini hosil qilish hamda tekshirish uchun quyidagicha test namunalaridan foydalanish mumkin.



Bu kabi testlar iSpring QuizMarker dasturida tuziladi. Bunday testlarning avzalliklari shundan iboratki, yuqorida vaqt ko`rsatilib turiladi, testlar tugagandan so`ng testing boshiga qaytib har bir berilgan javobni to`g`ri yoki noto`g`riligini ko`rib chiqish imkoniyati mavjud. Agar javob xato bo`lsa, to`g`ri javob yashil fon bilan ko`rsatilib turiladi. Bu esa o`quvchilarda xato berilgan savolning to`g`ri javobini bilish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Asimov, M.Mamasaidova O`quvchilarni test topshiriqlariga tayyorlashda muammoli vaziyatlardan foydalanish. NamDU ilmiy axborotnomasi. Ilmiy jurnal 4-son, 254-258-betlar. Namangan 2019-yil.
2. M.A.Mamasaidova, D.Saitxonova Matematika darslaridagi muammoli vaziyatlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish. "Математика ва информатиканинг замонавий муаммолари" республика илмий-амалий анжуман. Фарғона, 2018, 91-92 бетлар.

MASOFAVIY TA`LIMNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI, XAMDA KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISH YO`LLARI

Esonov R.M.

Biofizika va axborot texnologiyalari kafedrasida assistenti.

Masofaviy ta`lim - mahsus informatsion ta`lim tizimi yordamida ta`lim olishning turidir. Masofaviy ta`lim asosida bilim olmoqchi bo`lgan shahs axborot texnologiyalari soxasidan boxabar bo`lishi komp`yuter, uning qo`shimcha qurilmalari, internet tarmog`idan foydalanishni bilishi lozim. Moodle - bu kurslarni boshqarish tizimi (elektron ta`lim), shuningdek, ta`limni boshqarish tizimi yoki virtual ta`lim muxiti (inglizcha) rus tilida xam tanilgan, bu ingliz tilining qisqartmasi. Modulli yo`naltirilgan dinamik ta`lim muxiti (modulli yo`naltirilgan dinamik ta`lim muxiti). Bu bepul (GNU GPL ostida litsenziyalangan) veb-dastur bo`lib, onlayn o`rganish uchun saytlar yaratish imkoniyatini beradi. Birinchi versiyasi 2002 yil 20 avgustda yozilgan. Platformada o`qituvchilar va talabalar birgalikda ishlashi uchun joy ajratilgan. Masofaviy ta`lim orqali bilim olishda internetdan samarali foydalanish kerak. O`qituvchidan biror bir vazifa va topshiriqni olish va bajarilgan topshiriqni yetkazish vositalarini hilma hildir. 2019-2020 o`quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyoda masofaviy ta`lim jarayonlari keng ommalashdi.

Bu jarayonlarni ham ijobiy ham salbiy tomonlari ko`rinib qoldi. Bu qarama qarshilik ta`lim beruvchi, ta`lim oluvchi va bular o`rtasida vositachilik qiluvchi axborot kommunikatsiya texnologiyalariga ta`luqlidir. Bunday ta`lim tizimiga o`tishimizga asosiy sababchi pandemiya yuzaga kelishidir. Masofadan ta`lim olish jarayonlarini quyidagi:

- Onlayn;
- Oflayn.

Onlayn ta`lim bilan shug`ullanuvchi talabalar ko`pincha an`anaviy kampuslarda uchraydigan to`g`ridan-to`g`ri va yuzma-yuz muloqotni sog`inishidan shikoyat qiladilar. Kurs ishi odatda o`z-o`zidan boshqariladigan bo`lganligi sababli, ba`zi onlayn ta`lim talabalariga mashg`ulotlarda qatnashish va o`z topshiriqlarini vaqtida bajarish juda qiyin.

Onlayn ta`lim dasturlarining turlari:

Onlayn ta`lim dasturini tanlashda siz sinxron kurslar va asinxron kurslar o`rtasida qaror qilishingiz kerak. Onlayn o`quv kurslarini sinxron ravishda o`tkazayotgan talabalar o`zlarining professorlari va tengdoshlari bilan bir vaqtning o`zida kurslariga kirishlari shart. Onlayn ravishda ta`lim kurslarini olib boradigan talabalar o`zlari xohlagan vaqtda kurs veb-saytlariga kirishlari mumkin va ular tengdoshlari bilan bir vaqtning o`zida munozara yoki ma`ruzalarda ishtirok etishlari shart emas.

Off - o`chirilgan narsa, biror narsadan "uzoqlashish", "ketish" yo`naltirilgan harakatni anglatadi. Yoqish, farqli o`laroq, "yoqish", "biror narsada" degan ma`noni anglatadi. Va har ikkala holatda ham so`z "Internetda mavjudlik", bir lahzalik mavjudlikni anglatadi.

Shunday qilib, "oflayn" bo`lgan hamma narsa Internetdan tashqarida, "onlayn" esa Internetda.

Xozirgi kunda ta`lim tizimini axborotlashtirish masalalariga juda katta e`tibor qaratilmoqda. Ta`lim sifatini oshirish uchun ta`lim tizimiga zamonaviy AKT tadbiq etmasdan bajarish mumkin bo`lmaydi. Zamonaviy masofaviy ta`limda ko`p xollarda birinchi navbatda mahsus tarmoqlardan foydalaniladi, ya`ni masofaviy ta`lim saytida o`quv matyeriallari, ma`ruza matnlari, uslubiy qo`llanmalar, maqolalar, topshiriq va vazifalar e`lon qilinadi. Istalgan foydalanuvchi esa bu ma`lumotlarni o`ziga ko`chirib olishi mumkin.

- Talabalarga yetkazilishi lozim bo`lgan axborotlar oqiminining muttasil ortib borayotganligi.

- O`quv mashg`ulotlarini o`tish va o`zlashtirish samaradorligini oshirish.
- Axborot madaniyatini shakllantirish.

Ortda qolgan davrlar shuni ko`rsatdiki bizda masofaviy ta`lim samaradorligini oshirish jarayonlarida bir qancha ijobiy va salbiy muxitlar o`z ta`sirini ko`rsatdi. Birinchi navbatda ta`lim beruvchi xam ta`lim oluvchi xam yuqori axborot texnologiyalar qurilmalariga ega bo`lishi kerak. Bulardan kompyutyer, noutbuk, telefon va aloqani tarqatuvchi va qabul qiluvchi qurilmalar jamlanmasi bo`lishi

kerak. Bundan tashqari AKT orqali ta`lim berish va ta`lim olishda har ikki tomon xam bu jarayonga vijdonan yondashishi kerak. Ayrim qishloqlar hattoki shaharlarimizda xam aloqa tizimlarini yahshi ishlamasligi, masalan internet tarmog`ini qisman yoki umuman ishlamasligi shuni ko`rsatdiki ta`lim beruvchi beradigan ma`lumotini vaqtida sifatli yetkazib beraolmaydi, shu sababli ta`lim oluvchi xam bu ma`lumotlarga vaqtida yetarlicha ega bo`lmadi. Shuning uchun ta`lim oluvchi ma`sofaviy ta`lim mohiyatiga yetib borish tugul bu tizim xaqida tushunchaga ham ega bo`lmadi (mustasno sifatida ayrim tuman, qishloq va boshqa yashash joylari nazarda tutilgan). Albatta maktab o`quvchilari uchun telekanallarimiz orqali ochilgan onlayn maktablar yahshi samaraga erishdi. Lekin shu samaradorlikni bilgan ayrim ta`lim oluvchi va bu imkoniyatni bilmagan ta`lim oluvchilar ham kuzatildi.

Yana masofaviy ta`lim tizimidagi ayrim kamchiliklarni keltirib o`tamiz:

Ta`lim olish davomida turli vaziyatlar yuzaga kelada. Masalan: berilgan dars video va audio ko`rinishida bo`lsa, uning xajmi katta bo`lishi mumkin. Radao va telealoqa yordamida ma`lumot yetkazishda eng ustunlik jixati bu unda ma`lumotlarning tushunarlik darajasi boshqa turda ma`lumot yetkazishga nisbatan ancha balanddar. Radao va telealoqaning kamchiligi uning o`ta qimmatligi xisoblanada. Videoaloqa o`rnatish uchun xozirga kunda salmoqli mablag` talab qilinadi. Videoaloqa uchun internet tezliga xam yuqori bo`lishi zarur. Tan olishimiz kerak bizda provaydyerlar o`ta yuqori tezlikni ta`minlab bera olmayda. Ta`minlab bergan xolatda xam buning tan-narxi bizning ijtimoiy-iqtisodiy ta`minlanishimizga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Hulosa qilib aytganda ta`lim oluvchi ma`sofaviy ta`lim olishga tayyor bo`lishi lozim aks holda sarflangan harajatlar o`zini oqlamaydi. Yuqorida ko`rsatilgan sabalarni aholi o`rtasda targ`ibot-tashviqot qilib ijobiy va salbiy tomonlarini, kamchilik va yutuqlarini keng omma ongida shakllantirmas ekanmiz AKT larni qanchalik rivojlantirmaylik yuqori yutuqlarga erishishimiz qiyin kechaveradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Fanning dolzarb masalalari. Farg`ona Davlat Universiteti anjuman materiallari to`plami.
2. Zakirova F.M. va b. "Elektron o`quv-metodik majmualar va ta`lim resurslarini yaratish metodikasi" T.2010.
3. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. T. Noshir, 2009.
4. Loginov V.N. "Axborot texnologiyalarida boshqaruv" M.KNORUS 2008 yil.

MASOFAVIY TAHLIM BERISH USULINI SAMARADORLIGINI BAHOLASH (ANONIM SŌROVNOMA ASOSIDA)

Ganiev A.G., Ganieva D.B. Ganieva N.M.

Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon shahar umum tahlim maktabi oqituvchisi

Songgi yillarda rivojlangan axborot-tahlim muhitini yaratish maqsadida, kompyuterlashtirishdan axborotlashtirishga ketma-ket qadamlar bilan o'tish, barqaror global tendentsiya asos solmoqda, [1,2,9] eng maqsadga muvofiq usul sifatida zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalangan holda sifatli tahlim berish yo'lga qoyilmoqda. Misol uchun ixtisoslashgan ochiq universitet va institutlarning paydo bo'lishi (Britaniya ochiq universiteti, Katalon ochiq universiteti va boshqalar) izox bo'la oladi. Ushbu trening shakli keng imkoniyatlar yaratadi, yangi mahlumotlarga muvofiq barcha turdagi elektron nashrlarga kirish va texnologiyalar, shuningdek, o'quv materiallarini ularning faoliyatiga qarab farqlash, individual qobiliyatlari, o'zlarining tahlim va kasbiy malakalarini oshirish bo'yicha soro'vlar darajasini ortiradi. [1,3,4,8].

SHunga qaramay, juda ko'p sonli xorijiy nashrlarda va masofadan boshqarish vositalarining jozibadorligini tan oladigan rus tadqiqotchilari tahlimda[5,7], har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini tan olmaslik mumkin emas. Bu mahlum bir tahlim muhitining o'ziga xosligini oldindan belgilab beradigan alohida yo'nalishdir [6]. Misol uchun faqat tibbiyot oliy o'quv yurti elektron texnologiyalar bilan shugullanishi mumkin emas, chunki tibbiy amaliyot nafaqat aniq narsalarni o'z ichiga oladi balki ilmiy bilimlar, psixologik ko'nikmalar, gumanistik qadriyatlar va holda qo'lga kiritib bo'lmaydigan tegishli amaliy ko'nikmalar amaliy mashg'ulotlar bo'lmagan taqdirda o'qituvchi bilan bevosita aloqada bo'ladi [3,5,6]. Buyuk rus yozuvchisi L.N. Tolstoy aytganidaek, "Tarbiya va tahlim ajralmas. Siz bilim bermasdan turib tahlim bera olmaysiz, barcha bilimlar tarbiya asosida quriladi"[1,9].

SHuning uchun ham oliy tibbiyot maktabining muhim vazifalaridan biri zamonaviydan keng foydalanilganda qulay akademik muhitni yaratish, axborot texnologiyalari klassik mashg'ulotlar bilan birgalikda shakllantirish, bunday sharoit nafaqat imkoniyatlar beradi balki har bir talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, anhanaviy kamchiliklardan saqlanish, tahlim, mustaqil bo'lish qobiliyatlarini egallashga bo'lgan qiziqishni oshirishi mumkin [2,4,7]. Bu oxir-oqibat tibbiy tahlim yuqori sifatini, keyinchalik esa tibbiyot samaradorligini oshirish bilan aholiga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadi: tibbiyot oliy tahlim muassasalarida, talabalar nuqtai nazaridan kelib chiqqan xolda, masofadan boshqarish tizimi samaradorligini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Prezident farmoniga muvofiq koronavirus infeksiyasi epidemiyasi paytida Andijon viloyati hududida, Andijon davlat tibbiyot institut 2020 yil aprel oyidan boshlab, masofadan o'qitish tizimiga o'tkazildi. Ushbu

jarayon davomida, 120 nafar talaba o'rtasida anonim so'rov o'tkazildi. So'rovnomada 31 ta yopiq savollar mavjud bo'lib, qabul qilingan ma'lumotlar tegishli zamonaviy statistik xisoblash yo'li bilan ko'rib chiqildi [5,6].

Tadqiqot natijalari va munozarada ma'lum bo'lishicha, so'rovda qatnashgan talabalar yoshiga qarab taqsimlanish quyidagicha bo'lgan: 18-19 yosh - 31,2%, 20-21 yosh - 56,3%, 22-23 yosh - 5,0%, 24-25 yosh - 5,0%, 26-29 yosh - 2,5%. Ularning 25,0% i 1-kursda, 25,0% i 2-kursda va 50,0% i 3-kursda o'qishga qabul qilingan. Organilgan kogortada 70,6% ayollar ustunlik qildi.

So'rov natijalariga ko'ra, so'ralgan talabalarning (58,0%) Andijon davlat tibbiyot institutda o'qish nufuzli hisoblaydi. Qolgan talabalar yahni 37,0% obro'li bo'lmaganidan xam ko'ra obro'liroqdir deb javob bergan; 3,4% qarama-qarshi nuqtai nazarga ega; 1,6% ishonadi bu, aksincha, obro'li emas. SHunday qilib, olingan ma'lumotlar doimiy va mustaqil ravishda imtixonlar natijalariga to'g'ri keladi chunki Andijon davlat tibbiyot instituti O'zbekistonning 10 ta eng yaxshi institutlaridan biri.

So'rov natijalariga ko'ra, talabalarning 52,9% ijobiy javob bergan, ular institutda o'qishga qiziqish bildiradimi yoki yo'qmi degan savolga javob berganlarning 42,0% juda qiziqarli. Bu ko'pchilik talabalardan organishga qiziqish, yetarlicha yuqori bilim mavjudligi haqidagi xulosani tasdiqlaydi Kelajakdagi kasbni tanlashning eng muhim sabablarini aniqlash uchun quyidagi aniq natijalarni ko'rsatadigan reyting usuli qo'llanilgan. Darajasi bo'yicha talabalar uchun kasbni egallashda muhim shifokor istagi (100 talabaga 86,6), undan keyin ishga joylashish imkoniyatlari institutni tugatish (100 ga 36,1), s'ngra universitetning shuhrati va obro'si (100 ga 21,8), ota-onalarning talablari (100 kishi boshiga 17,0), qiziqarli talabalik hayoti (100 kishi boshiga 16,0). Yuqori o'qitish sifati oxirgi o'rinda (100 dan 15,1). Talabalardan biri hal qiluvchi moment "arzon o'quv to'lovlari" deb yozgan. Ayrimlari esa internetdagi yaxshi sharhlar" deb yozishgan. Berilgan javoblar orasida quyidagi variant ham bor edi: «Men xohlayman hamma odamlarga yaxshilik qilishni" degan savolga maksimal darajada ijobiy javob berilganligi aniqlandi kelajakdagi kasbni tanlashda eng muhim motivatsion omil sifatli bo'lgan talabalar orasida Andijon davlat tibbiyot institutda o'qishning nufuzligii qayd etildi. O'qituvchilik (97,0%) va kasbni egallashga intilish (85,7%). Minimal raqam ushbu nuqtai nazarni birlashtirgan talabalarning (33,3%) odamlar orasida qayd etilgan, ota-onalarning iltimosiga binoan institutga qabul qilinganligin aytishdi.

Talabalarning tahlim faoliyati ham, ularning xulq-atvori munosabati ham ko'p jihatdan ularning kelajagi mohiyatini anglash darajasi bilan bogliq professional faoliyatdir. Talabalardan o'z kasbining qanchalik yaxshi ekanligi so'ralganda ular uning mazmunini yaxshi tushunishadi. Olingan ma'lumotlar 3-kurs talabalari 1-kurs talabalariga nisbatan kelajak mohiyatini ancha yetuk idrok etishadi kasbiy faoliyat, uchinchi kurs talabalarining 63,6% va birinchi kurs talabalarining 50,0% tanlovining to'g'riligiga aminlar.

Korrelyatsion tahlil natijasida o'rtacha kuchning to'g'ri chizigi o'rnatildi kelajak kasbingiz mazmunini kurs bilan tushunish o'rtasida ($r_{xy} = 0.327$; $p < 0.05$), yosh (r_{xy}

= 0.401; $p < 0.001$), akademik kōrsatkich ($r_{xy} = 0.365$; $p < 0.05$), ilmiy ishlarda qatnashish doiralar ($r_{xy} = 0.327$; $p < 0.05$).

- Hamma talabalar xam institutda sinfdan tashqari ishlarda qatnashish uchun vaqt topa olmaydi. Bu o'quv jarayonining qatnashish jadvali bilan bogliq dan harakatlanishga qaratilgan shahar bo'ylab transport harakatlari bir o'quv binosidan boshqasiga.

- Mahlum bo'lishicha, eng faol talabalar eng ishonchli ularning kelajakdagi kasbining mazmunini tushunish. Ularning 63,8% talabalarga qatnashadi konferentsiyalar, 59,0% - ilmiy to'garaklar, 61,2% - sport seksiyalari, hamma qatnashadi talabalar kengashi yigilishlari va 63,6% ixtiyoriy faoliyat bilan shugullanadi. Aksincha, umuman oliy Mahlumot olish muhimroq bo'lgan talabalar asosiysi, universitetni tugatish, sinfdan tashqari ishlarda minimal darajada qatnashish universitet.

- "Siz masofaviy tahlim tizimining elementlaridan foydalanish imkoniyatini qanday baholaysiz?" degan savolga berilgan javoblari quyidagicha taqsimlandi. Soroqda qatnashgan talabalarining bahzilari - 34,7% - salbiy so'zlar, 26,9% - ijobiy, 33,6% - neytral va 4,8% - bu haqda hech o'ylamagan.

Masofaviy tahlim tizimining muxoliflari o'zlarining fikrlarini mavjudlikka asosladilar faoliyatning ushbu shakli bilan bogliq bo'lgan bir qator salbiy tomonlar. Talabalarining aksariyati ish tezligi bilan bogliq muammolarni qayd etishdi elektron portal (100 talabaga 70,6). Bahzi talabalar yo'qligi bilan qoniqishmadi o'qituvchi va boshqa talabalar bilan shaxsiy aloqalar (100 ga 47,1); yo'qlik o'qituvchi tomonidan to'gridan-to'gri nazorat (100 ga 34,5); noqulay portal interfeysi (100 ga 19,3); bahzi o'quv materiallarini elektron shaklda o'zlashtirish qiyinligi (16,8 ta) 100). Bahzi talabalar quyidagi salbiy oqibatlarini alohida ta'kidladilar: surunkali charchoq hissi paydo bo'lishi, uyqusizlik - 100 kishiga 59,7 kishiga to'gri keladi talabalarining bosh vaqt etishmasligi - 100 kishi uchun 52,9, sogligining yomonlashuvi - 31,1 kishi 100, o'zini o'zi qadrlashning pasayishi, depressiya hissi - har 100 kishi uchun 21,0, o'rganishga nafratlanish - 100 kishi uchun 10,1. o'qishning oqibatlarini. Javoblar orasida quyidagi variantlar ham mavjud edi:

- Belda kuchli ogriq, ko'zlar ogriydi, ko'rish pasayadi, chunki siz soatlab o'tirasiz vazifani bajarib telefon va kompyuter! O'qituvchilar bilan aloqa yo'q va sinfdoshlar yo'q, siz o'tirib, obro'sizlantirilasiz. O'qituvchining mulohazalari xar doimgidan qiyin. Masofaviy tahlim standartni mahruzalar va seminarlar hech qachon va hech qanday tarzda almashtirmaydi

- Kerakli mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar yetishmasligi (anatomiya, biologiya, kimyo, gistologiya).

- Yozma topshiriqlar juda ko'p, sifatli bo'lish uchun vaqt yetmaydi, mavzuni o'rganish, ko'plab referatlarni gapirmaasa xam bo'laveradi.

- Masofadan o'qitish talabalar va o'qituvchilarning vaqtini behuda sarflash demakdir.

Aksincha, ushbu tizim tarafdorlari afzallik sifatida quyidagilarni tahkidlaydilar:

Kundalik hayotingizni o'zingiz rejalashtirish qobiliyati (100 talabaga 69,7), birlashtiring o'qishlar bilan ishlash (100 ga 69,7), o'zingiz uchun mahruza taqdimot yuklab oling (100 ga 41,2), o'z-o'zini o'rganish (100 ga 20,2), shuningdek qulay va tanish muhitda o'rganish (100 ga 42,0).

Korrelyatsion tahlil shuni ko'rsatdiki, munosabatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Masofaviy tahlim tizimiga talabalarning va quyidagi ko'rsatkichlarning: kurs ($r_{yx} = 0.329$; $p < 0.05$), o'rganishga qiziqish ($r_{yx} = 0.56$; $p < 0.05$), o'quv natijalari ($r_{yx} = 0.370$; $p < 0.05$), ilmiy konferentsiyalarda qatnashish ($r_{yx} = 0.365$; $p < 0.05$) va talabalar kengashi yig'ilishlarida ($r_{yx} = 0.319$; $p < 0.05$).

Masofaviy tahlim tizimiga nisbatan eng salbiy holat "yaxshi" va "aolo" baholarda o'qiydigan talabalar (50,0%), eng ijobiyolari esa "Qoniqarli" (40,9%). SHunisi ehtiborga loyiqki, talabalar hech qachon ushbu tahlim tizimi haqida oylashmagan asosan (6,9%).

Savolga berilgan javoblar orasida "Masofaviy tahlim sizni taraqqiyotingizga qanday tahsir ko'rsatdi?" deganiga bunday variantlar mavjud edi:

- O'quv ko'rsatkichlari pasayib ketdi, yangi materialni mustaqil ravishda o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishlarisiz qiyin. Bilim sifati yomonlashdi.

Uyda hamma narsani to'liq bajarganimizda xam qanday akademik ko'rsatkichlar haqida gapirishimiz mumkin, hamma narsaga kirsak, hech qanday nazorat yo'q, bizning bilimlarimizning sifati pasaygan, men bilmayman qanday qilib bunday bilimlarim bilan sessiyaga borishni.

Talabalarning yarmi masofaviy o'qitish tizimining elementlari "yaxshi" va "ahlo" da yuqori ko'rsatkichlarga ega bilim olishiga qiziqishi, ilmiy konferentsiyalar va uchrashuvlarda qatnashishini talabalar kengashi, kelajakda foydalanishini istiqbollari salbiy tahsir qilar ekan. Biroq, talabalarning uchdan bir qismi, ushbu mashg'ulot shaklining afzalliklari va kamchiliklariga qaramay, bunda neytral pozitsiyani egallashdi, bu hayotiy pozitsiyasini yetuklikning yetarli emasligi va faol bo'lmaganligi bilan izohlanishi mumkin.

Uch yillik tahsildan song talabalarning 27,3 foizi institutda xavotirli tahsil olgani, tanlangan kasbi haqida hali ham noaniq fikrga egaligi ma'lum bo'ldi va 9,1% hali ham o'z tanlovining to'g'riligiga shubha qilmoqda.

Xulosalar: Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar vrachning kasbini juda zaif tushunishlari, odamni oylashga undaydi, bu esa abituriyentlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish zaruratini va boshqa ixtisoslikning Andijon davlat tibbiyot institut devorlarida faol joylashishiga majbur qiladi.

SHunday qilib, zamonaviy internet texnologiyalaridan keng foydalanishlik ushbu tadqiqotning dolzarbligi global ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Uning faol amalga oshirish tufayli tahlim tizimidagi o'zgarishlar oliy tahlimning o'quv jarayonida, tahlimda mavjud bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, o'zlarining tahlim faoliyatida muassasalar xususiyatlari bir tomondan, uzoq

muddatli anhanalar va poydevorlarga ikkinchi tomondan- ilg'or rus va xorij allomalarining noyob va noyob tarzda takrorlanmas tajribalariga tenglanishni mahjubir etadi. SHuning uchun masofadan boshqarish pultidan foydalanish tibbiyot tahlim muassasalarida o'qitishni juda puxta amalga oshirilishi kerakligini, barcha ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan va shoshilmay boshqarilishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Klimachkov A.V. Masofaviy tahlimda axborot texnologiyalarining o'рни, tahlimga yondashuv, tahlim maqsadlari va kompetentsiyasi // BSTU ning 60 yilligiga bagishlangan II Xalqaro sirtqi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari asosida maqolalar to'plami. V.G. SHuxov. Belgorod: Belgorod davlat texnologik institut. V.G. SHuxova, 2014. 59-79.
2. Lyapin V.A., Stepanov A.P., Abramova I.A. Axborot va tahlim muhiti, istiqbolli universitet faoliyati uchun paradigma sifatida // Volskiyning ilmiy byulleteni moddiy taaminotning harbiy instituti: harbiy ilmiy jurnal. 2018. No 3 (47) -son. Bilan.128-134.
3. Getman N.A., Kotenko E.N., Usacheva E.V. Tibbiyot o'qituvchilari malakasini oshirish federal shtat tahlimining rivojlanish natijalarini baholash uchun universitet standart // Zamonaviy yuqori texnologiyalar. 2015. № 5. S. 53-57.
4. Semenova N.V., Denisov Yu.P., Vyaltsin A.S., Vasilevskaya E.S., Avdeev D.B. Tahlim xizmatlari isteomolchilarining Internetdagi tibbiyot institut imidjini idrok etishi kosmik // Zamonaviy yuqori texnologiyalar. 2016. № 11-1. S. 165-169.
5. Grachev V.V., Minzov A.S. Masofaviy o'qitish tizimi samaradorligini baholash URL: http://www.ejoe.ru/sod/99/3_99/st176.html (kirish sanasi: 2020 yil 16-iyul).
6. Denisova O.A., Drobyshev V.V., Denisov A.P., Kuhn O.A. Tahlimning taosiri tibbiyot talabalarining tahlim va kasbiy motivatsiyasini shakllantirish muhiti universitet // Andijon davlat pedagogika institut xabarnomasi. Gumanitar fanlar tadqiqot. 2019. № 4 (25) -son. S. 99-102.
7. Glazachev O.S., Mikerova M.S., Moroxina S.L. Yangi amaliyot va tashabbuslar Sechenov institut tibbiy tahlimni xalqarolashtirishda //
8. Tibbiy tahlim va universitet ilmi. 2017 yil 1-son (9). S. 43-47.
9. Novikov V.N. Universitetning tahlim muhiti ham professional, ham shaxsan ragbatlantiruvchi omil // Psixologik fan va tahlim. 2012. № 1. S. 110-120.
10. Nikitin Yu.B., Kotyurgina A.S., Fedorova E.I. Informatsion texnologiyalar zamonaviy tibbiy tahlim

DARS JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ganiev D. K.

FJSTI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o`qituvchisi

Dars – ta`limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo`lishi, bilimlar mustahkam o`zlashtirilishi, o`quvchi-talabalarning shaxsiy xususiyatlari e`tiborga olingan holda tashkil etilishi shart. Bu-didaktikaning asosiy printsiplaridir.

Hozirgi kunda uzluksiz rasmiy ta`lim tizimida ta`lim-tarbiya sinf-dars shaklida olib boriladi. Insoniyatning tarixiy rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo`lsak, ta`limni tashkil etish shakllari jamiyatning taraqqiyoti bosqichlariga mos ravishda amalga oshganini ko`ramiz. Dastlabki davrlarda ta`lim berish odamlarning mehnat faoliyati, kundalik turmushi bilan uzviy bog`langan hamda bilim berish va o`rgatish yakka tartibda olib borilgan. Davr o`tishi bilan ko`pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo`la boshlagan. Ta`limning mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh-guruh qilib o`qitishni taqozo etgani holda, ta`lim-tarbiya bilan shug`ullanuvchi mutaxassislar, ya`ni o`qituvchilarni tayyorlash zaruriyati kelib chiqdi.

Ta`limning tashkiliy masalalari Al-Farobiyning "Fan va aql-zakovat" asarida o`quv fanlarini guruhlarga bo`lib o`qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e`tibor berilgan. Bu masalalar Ulug`bek davrida ham ko`tarilib, ma`lum darajada amalga oshirilgan.

Bugunga kelib sinf-dars tizimi rivojlanib, davr uni yaxlit bir butunlik-majmu sifatida idrok qilishlikni taqozo etmoqda.

Mustaqillik yillarida pedagogikada yuzaga kelgan «O`quv jarayonini to`liq boshqarish g`oyasi» pedagogik amaliyotda aniq maqsadlar va natijalarga yo`naltirilgan o`quv jarayonini boshqarish orqali didaktik muammolarni echish mumkinligini ko`rsatdi.

Bizning fikrimizcha, ta`lim jarayonida entsiklopedik bilimlar berish o`z ahamiyatini yo`qotib bormoqda. Insonlar faoliyati printsipl tarzda o`zgardi, ular texnologiyalarni boshqarishlariga, umumiy maqsadlariga erishish uchun tayyor bo`lishlariga to`g`ri kelayapti.

Zamonaviy kishi o`z kuchini yangi bilimlar, ko`nikmalar va malakalar olishga emas, balki tez eskiradigan va nofunktsional bilimlardan xalos bo`lishga yo`naltirishga majbur bo`layapti.

Ammo, ushbu fikr qanchalik paradoksal bo`lmasin, real ta`lim sharoitida o`quv maqsadlariga yo`naltirilgan va loyihalashtirilgan o`quv jarayonini tashkil etish kerakki, unda o`qituvchi va ta`lim oluvchilar davr o`zgarishini tushunib etishlari va bunga tayyor bo`lishlari lozim. Demak, o`quv jarayonini texnologiyalashtirish zaruriyati kelib chiqdi. Biz dastlab texnologiya tushunchasiga to`xtalamaiz.

“Texnologiya” – yunoncha “teche” soʻzidan olingan boʻlib, mahorat, sanʼat va “logos” – soʻz, taʼlimot maʼnosini anglatadi. Texnologiya deganda subʼekt tomonidan obʼektga koʻrsatilgan taʼsir natijasida subʼektda sifat oʻzgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obʼektga yoʻnaltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma – ketlikda bajarishni koʻzda tutadi.

Taʼlimni texnologiyalashtirishning asosini taʼlim jarayonini va taʼlim oluvchilarning, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan oʻquv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida toʻliq boshqarishga yoʻnaltirilgan gʻoyasi tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati, taʼlim jarayonini tizimlashtirishdan, uni aniq rasmiylashtirilgan va qismlari boʻyicha aniq elementlarga ajratish yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotlarda texnologiyalashtirish oʻquv jarayonining qatnashuvchilarining (taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchilar) oʻzaro harakati usuli va vositalari deb fikr yuritiladi. Taʼlim texnologiyasining elementlari-usullar, yoʻllar, vositalar va shakllar quyidagilarga adekvat tanlanadi va qoʻllaniladi:

- Taʼlim maqsadlariga;
- Oʻquv axborotining murakkabligiga va mazmuniga;

Taʼlim oluvchilarning yoshga oid va fiziologik xususiyatlariga; Taʼlim beruvchining pedagogik mahoratiga va individual xususiyatiga; Oʻquv muassasasining moddiy taʼminlanganligiga.

B.Ziyomuxammedov va Sh. Abdullaevalar fikricha, taʼlim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni koʻzda tutadi. Bunda, eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim: taʼlim texnologiyalarini ilmiy ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

- taʼlim majmua sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;
- taʼlim texnologiyasining funktsional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;
- taʼlim texnologiyalari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsadlariga qay darajada toʻgʻri kelishi va uni baholash mumkinligini koʻrsatib berish;
- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yoʻl-yoʻrigʻini ishlab chiqish.

Shuni aytish joizki, taʼlim texnologiyalari, pedagogika ilmining tadqiqot obʼekti sifatida, aniq fanlarni oʻqitish uslubi boʻlibgina qolmay, ijtimoiy fanlarni oʻqitishda ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi lozim.

Baʼzi tadqiqotchilar oʻquv jarayonini texnologiyalashtirish orqali sifatli va haqiqiy taʼlim berishga erishish mumkinligini va har qanday texnologiyaning etakchi zvenosi oxirgi natijaga erishish deb hisoblaydilar.

O`qitish nazariyasida texnologiya predmetli metodikadan farqli o`laroq, quyidagicha loyihalashtiriladi:

- mavjud sharoitlardan kelib chiqqan va belgilangan natijalarga yo`naltirilgan holda, rejalashtirilgan aniq pedagogik faoliyati orqali;
- ta`lim beruvchilar tomonidan darsni uslubiy jihatdan ishlab chiqishdan farqli ravishda, ta`lim oluvchilarga va ularning shaxsiy faoliyati hisobiga o`qitishda yutuqlarga erishishlarini ta`minlashga yo`naltirilishi orqali;
- texnologiyada ortiqcha hech narsa bo`lmasligi shart: qayta o`zgartirish yo`llari, usullari va vositalarini almashtirish, bu – texnologiyaning yo`qligi belgisidir.

F.Persival va G.Ellingtoning e`tiroficha, «ta`limda texnologiya» atamasi axborotni taqdim etishning har qanday vositasini qamrab oladi. Bular «ta`lim tizimida qo`llaniladigan jihozlar, masalan, televidenie, til o`rgatish laboratoriyalari va tasvirlarni aks ettiruvchi turli vositalar. Boshqacha aytganda, ta`limda texnologiya – bu audivizual vositalar.

Bu ta`rifda «ta`limda texnologiya»dan ko`ra ko`proq «ta`lim texnologiyasi»ga urg`u beriladi, chunki u o`zida o`quv jarayonini ta`minlash uchun maxsus yaratilgan va moslashtirilgan vositalar (televedenie, til o`rgatish laboratoriyasi)ni hamda ularni amalda qo`llash metodikasini birlashtiradi.

Bizning fikrimizcha ta`limni texnologiyalashtirish - bu ta`lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida o`quv maqsadlariga kafolatli erishish uchun o`quvchilar va pedagoglar o`zaro faoliyatining samarali tashkil etilishidir. Demak, o`quv maqsadlariga kafolatli erishish uchun ta`lim jarayoni texnologik yondashuv asosida olib borilishi lozim.

Ta`limni texnologiyalashtirishning asosiy belgisi va afzalligi shundaki, o`quv jarayoniga tizimli yondashuvning qo`llanishi, barcha o`quv holatlarini loyihalashtirish asosida o`qituvchilar va o`quvchilar faoliyatini dasturlashtirish o`quvchilarning quyilgan maqsadga erishuvini ta`minlash maqsadida ta`lim jarayonini ixchamlashtirishdan iboratdir. Ta`lim texnologiyalashtirish – o`qitish vositalari asosida ta`limni tashkil qilish, o`tkazish va baholash usullari majmui hisoblanadi.

Pedagoqik texnologiya – bu, amaliyotga samarani tadbiq etiladigan, tegishli taomyillar asosida ishlab chiqilgan o`quv jarayonning loyihasidir.

Pedagoqik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo`lib, u talaba (yoki o`quvchi)ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo`naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Yuqorida keltirilgan pedagogik texnologiya to`g`risidagi ta`riflarni nazariy tahlil qiladigan bo`lsak, xorijiy (shu jumladan, yaqin xorijiy) davlatlarning olimlari tomonidan berilgan ta`riflar bilan O`zbekistonlik olimlar bergan ta`riflari mazmunan bir-biriga yaqin kelsada, farqi ham anchaligini ko`ramiz. Rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo`llanilib kelayotgan pedagogik

texnologiyalarni o`rganib, xalqimizning milliy pedagogika an`analari, o`ziga xos xususiyatlari, respublikamizda yig`ilgan tajribalar hamda ta`lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O`zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish lozim.

TALABALARNING BILIM, KO`NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASH MEZONLARI

Ganiev D. K.

FJSTI "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o`qituvchisi

Baholash-ta`lim jarayonining ma`lum bosqichida o`quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o`lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta`limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o`quv materialining o`zlashtirilganligi haqida ta`lim beruvchi ham, ta`lim oluvchi ham muayyan ma`lumotga ega bo`ladi. Baholash natijasida, ta`lim beruvchi uchun ta`lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o`quv materiali yaxshi o`zlashtirilganu, qaysi biri hali etarli darajada o`zlashtirilmaganligi yoki umuman o`zlashtirilmaganligi ma`lum bo`ladi. Bu ta`lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo`lib hisoblanadi. Ta`lim beruvchi o`z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O`z ishi metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta`lim beruvchining o`quv dasturidagi materiallarni ta`lim oluvchining bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko`rib chiqilishi va baholanishi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o`zlashtirilishi aniq va ravshan bo`ladi. Bu ta`lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko`rishi va o`quv mashg`ulotini o`tkazishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta`lim oluvchi ham ta`lim jarayonida qaysi o`quv materialini yaxshi, qaysisini qoniqarli va nimani yomon o`zlashtirgani ma`lum bo`ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta`lim oluvchi o`z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to`g`ri baholashga qodir emas. Ba`zan unga go`yo u o`quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog`ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma`lum bo`lib qoladi. Baholash natijasida, ta`lim oluvchilarning o`rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo`llay olish, tahlil qilish va o`z bilimlarini tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta`lim oluvchi o`z bilimlarining ijobiy tavsifi, ta`lim muassasasida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko`nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Bilimlarni, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta`lim oluvchilarning o`qishga, o`z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni engish istagi tug`iladi. Baholash hamisha ta`lim oluvchining shaxs sifatida o`ziga nisbatan

muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchining o`ziga nisbatan munosabatini, tuyg`ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o`zoro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim bo`ladi.

Ba`zan baholash jarayonida ta`lim oluvchi qo`shimcha bilim, ko`nikma va malakalarga ham erishadi. Ta`lim jarayonida o`zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. Shu bois, baholashni ta`lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta`lim muassasasi jamoasining ta`lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o`zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta`lim standartlarida davlat tomonidan qo`yilgan talablar nechog`lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o`zida butun ta`lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko`rilishi kerak. Bu bilan ta`lim tizimida o`qitilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o`lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta`lim rejasi, uning katta-kichik bo`limlari asosida amalga oshiriladi. Ta`lim tizimi natijalari muayyan standart me`yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta`lim oluvchining, balki ta`lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o`quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta`lim vositalari, rejalari, ta`lim jarayonini tashkil etish sifatida ham baho beriladi.

Ta`lim dasturining qism bo`laklari bo`yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanishning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo`limlar bo`yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo`lishiga yordam beradi. Ta`lim oluvchini muntazam ravishda o`z natijalari to`g`risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro`yobga chiqarishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Ta`lim berish davomidagi nazorat natijalarini o`lchab borish bilim, ko`nikma va malakalarni baholash o`quvchining o`zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

O`quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;

Keyingi bosqichga o`tishdan oldin, avvalgi o`zlashtirish darajasi aniqlash uchun;

Natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;

O`quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;

Yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;

O`qituvchi o`z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;

Yalpi o`zlashtirish darajasini aniqlash uchun;

Ta`lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;

Ta`lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun

Tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

Nazariy bilimlarni;

Amaliy ko'nikma va malakalarni;

Xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini;

Qachon baholash kerak?

Ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);

Ta'lim jarayoni davomida (joriy va oraliq baholash);

Ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari;

ta'lim maqsadiga yo'naltirilganlik;

untazam o'tkazib borish;

pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;

mumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa-affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash tamoyillari. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Ta'lim oluvchining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan ta'lim beruvchi bilimlarni tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, izohlash kabi muayyan odat paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bugunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat ta'lim beruvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javob bera boshlaydilar.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi:

- *o`quv maqsadlariga asoslanganlik;
- *haqiqiylik;
- *haqqoniylik;
- *ishonchlilik;
- *qulaylik.

1. O`quv maqsadlariga asoslanganlik. Samarali baholashning asosiy tamoyili o`quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o`quv maqsadlariga to`g`ridan-to`g`ri bog`liqdir. O`quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O`quv maqsadlarining qo`yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek, o`quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta`lim mazmuni doirasida bo`lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirayotganda, har doim quyidagi ikki savolni e`tiborga olish lozim: Baholash topshiriqlari ta`lim jarayonidan ko`zlangan o`quv maqsadlarini to`la aks ettiradimi?

O`quv maqsadlari darajasiga baholash shakllari, usullari va mezonlari to`g`ri tanlandimi?

Masalan, yo`l harakatlari qoidalari bo`yicha olgan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin, undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo`lmaydi. Bu malakalar og`zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

2. Haqiqiylik. O`quv maqsadida ko`zda tutilgan natijagina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo`lgan bilim va ko`nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo`lishi lozim.

Ta`lim oluvchi erishgan natijalar to`g`risida asoslangan va ishonchli axborotlar berilishi kerak. Ta`lim oluvchi egallagan bilim, malaka va ko`nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarini o`lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

3. Haqqoniylik (ob`ektivlik). Baholash tizimi o`quv maqsadlariga mos bo`lishi, shuningdek baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan o`quvchilar oldindan tanishgan bo`lishlari lozim. Ta`lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

4. Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin, bu usullarni tanlashga qo`yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Usul ishonchli bo`lishi uchun baholash asosli va aniq ma`lumotlarga asoslangan bo`lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o`rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo`naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

5. Qulaylik. Baholash tizimi o`quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o`quv ishlab chiqarish standartlariga mos bo`lishi, murakkab bo`lmasligi, nazorat o`tkazuvchi va ta`lim oluvchi uchun qulay bo`lishi lozim. Baholashni o`tkazishda

imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo`lsa, ball berish o`rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo`lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo`lgan qismlariga unchalik muhim bo`lmagan qismlariga nisbatan ko`proq ball berish kerak bo`ladi.

Baholashning reyting tizimi. Reyting tizimidagi ta`lim jarayonida baholash quyidagi nazorat turlari orqali aniqlanishi mumkin:

Nazorat qilish;

Hulqini baholash;

Nazariy va amaliy bilimlarni baholash.

Nazorat qilish orqali o`zlashtirganlikni aniqlash: ta`lim oluvchining bilim ko`rsatkichlari darajasini, malakasini shakllantirish; ta`lim oluvchini doimiy baholash va ular olgan baholarni taqqoslab borish; ta`lim oluvchining o`qishga intilishi va o`zaro bellashish imkoniyatini shakllantirish; ta`lim oluvchilarning bilim saviyasi va malaka ko`nikmalarini haqqoniy baholash; ta`lim beruvchilarning pedagogik faoliyatini to`g`ri baholash.

Xulqini baholash orqali o`zlashtirganlikni aniqlash: ta`lim oluvchilarning darslarga qatnashish intizomini yaxshilash va ularni fanlar bo`yicha uzluksiz tayyorgarligini tashkil etish; nazariy va amaliy bilimlarni baholash orqali o`zlashtirganlikni aniqlash: ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchining o`z qobiliyatini oldindan rejalashtirish; ta`lim jarayonining borishini tezkor tahlil qilish; o`z faoliyatida zaruriy o`zgarishlar kiritish imkoniyatlarini yaratish.

Reyting tizimi yuqorida sanab o`tilgan barcha nazorat turlarini o`zaro taqqoslash orqali ta`lim jarayonidagi baholash tizimini yaratadi. Reyting tizimida ta`lim oluvchilar bilimi doimiy ravishda nazorat qilinib va baholanib boriladi. Reyting nazorat tizimi asosida o`quv rejasiga kiritilgan har bir fanning ta`lim oluvchi o`zlashtirishining sifat ko`rsatkichlari ballar bilan baholash yotadi. Respublikamiz ta`lim muassasalari o`quv jarayonida qo`llanilayotgan reyting tizimiga asoslangan holda ikkita nazorat turidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Har bir o`qituvchi o`z fani bo`yicha reyting tizimini loyihalashtirishda quyidagilarga asoslanishi kerak

Har bir fan bo`yicha semestr davomida talaba to`plashi mumkin bo`lgan maksimal ball 100 ballni tashkil etadi; Har bir fan uchun ajratilgan maksimal ball nazorat turlari bo`yicha taqsimlanadi:

Joriy nazorat. Joriy nazorat o`tkazishning asosiy maqsadi ta`lim oluvchi qay darajada rivojlanayotganligini aniqlash, ta`lim jarayoni talablarini o`rganish va uni yaxshilashdan iborat. Joriy nazoratda og`zaki so`rov seminar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, kurs ishlari, uy vazifasi va boshqa so`rov turlaridan foydalaniladi. Barcha so`rov turlari qisqartirilgan kodlar bilan belgilanadi.

Amaldagi reyting tizimida joriy nazorat o`tkazishda har bir ta`lim oluvchini baholash uchun so`rovlar soni chegaralangan. Har bir darsda tayyorlanib kelgan ta`lim

oluvchi javob berishi va ball olishi mumkin, lekin ta'lim beruvchi qolgan ta'lim oluvchilarni ham e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim.

Oraliq nazorat. Oraliq nazoratning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilar tomonidan ma'lum bir mavzu, bob yoki modul bo'yicha erishilgan natijalarni (belgilangan standartlarga erishganligini) aniqlashdan iborat. Oraliq nazoratni topshirish barcha ta'lim oluvchilar uchun majburiy hisoblanadi.

Yakuniy reyting ko'rsatkichi. Yakuniy reyting ko'rsatkichini aniqlash uchun semestr yakunida yoki o'quv predmeti yakunida ta'lim oluvchining barcha mavzular bo'yicha olgan ballari hisoblanib, o'rtachasi aniqlanadi. Semestrda fan yuzasidan necha soat dars o'tilgan bo'lsa, har biriga maksimum 100 balldan ajratilib, semestr yakunida o'rtacha ball hisoblanadi va reyting jurnaliga qo'yiladi.

O'quv rejasi va fan dasturiga asosan tuzilgan tizim – mavzu rejasi bo'yicha, hamda ajratilgan soatlarni e'tiborga olgan holda, har bir o'quvchini semestr davomida necha marta nazorat qilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, nazorat va so'rov turlari aniqlab chiqiladi va ma'lum bir fan bo'yicha "Reyting ballarining taqsimoti" tuziladi.

DARS JARAYONIDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Ganiev D.K.

FJSTI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Respublika maorifchiligida sifat va samaradorlikka erishish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni aktiv tatbiq etish, yosh kadrlarni yuqori darajada ish bilan ta'minlash masalalari ustuvor vazifa qilib qo'yildi. Shu munosabat bilan pedagogik texnologiya tushunchasi, uning rivojlanish, metodlar to'g'risidagi to'plagan ma'lumotlarimizni va bu sohadagi o'z tajribalarimizni bayon etishga xarakat qilib kelmaymiz.

Xozirgi kunda barcha o'quv yurtlarida darslarni interfaol usullarda tashkil qilishga xarakat qilinmoqda. Oliy o'quv yurtlari, maktablar, kasb hunar kolledjlari, litseytslar o'qituvchilari, malaka oshirish instituti o'qituvchilari shartnoma asosida interfaol darslarni namoyish qilish yo'lga qo'yilgan.

«Kichik guruhlarda ishlash xonasini komplektlash va interfaol dars», «Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» va «Talabalarning mustaqil tayyorgarligidan keyingi lektsiya» kabi texnologiyalar tajriba qilib ko'rildi va ommalashtirildi.

Xozirgi kunda pedagogik texnologiyalar, darsning texnologik xaritasi, interfaollik vositalari, interfaol dars ishlanmasining sxemasi, kichik guruhlarda ishlash xonasi komplektlash usuli, interfaol texnologiyalardan namunalar, aqliy hujum, bumerang texnologiyasi va uni o'tkazish bosqichlari, muloqot treningi va uni o'tkazish bosqichlari, blits-so'rov texnologiyasi, blits-o'yin texnologiyasi va uni o'tkazish bosqichlari, bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun metodi, talaba-o'quvchilarning mustaqil tayyorgarligidan keyingi lektsiya, ajurli arra

metodi, sinektika metodi, dumaloq stol metodi, ruchka stol ustida metodi, rotatsiya metodi, galereyani aylanish metodi, qor bo`ron metodi, asalari galasi metodi, dumalovchi qor uyumi metodi, sindikat metodi, akvarium metodi, raqamlar metodi, skarabey texnologiyasi, Veer texnologiyasi, delfi texnologiyasi, T- jadval texnologiyasi, SWOT- tahlil jadvali, Nima uchun?- sxemasi, insert texnologiyasi, bilaman. bilishni xohlayman. bilib oldim metodi, zigzak metodi, Venn diagrammasi, tarmoqlar (klaster) metodi, davra suhbatlar, davralar metodi, mojora metodi, munozara metodi, munozaralar o`tkazish texnologiyasi, munozara lektsiya metodi, yangi pedagogik texnologiya yo`nalishidagi dars ishlanmalari va oliy matematika fanidan talabalarning 100 ballik sistemadagi test-reytingi namuna sifatida berilgan. Biz keltirgan test-reyting namunasi o`quv yurtlarida bir biridan farq qilishi mumkin. Sababi uni tuzish muayyan o`quv yurtining ichki Nizomidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA NIMA? Texnologiya so`zi fanga 1872 yilda kirib keldi. U yunoncha «texos»- hunar, mahorat va «logos» esa ta`limot yoki fan degan ma`noni beradi. Qisqacha «mahorat haqidagi fan» ma`nosini anglatadi. Bugungi kunda ayrim kishilar pedagogik texnologiya– bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog`liq, hamda o`qitish jarayonida qo`llanishi zarur bo`lgan TSO, kompyuter, masofali o`qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb o`ylashadi. Bu to`g`ri emas. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi– bu o`qituvchi-trener va talaba-o`quvchilarning begilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog`liq.

«Pedagogik texnologiya» iborasi birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha- pedagogik texnologiya (o`qitish texnologiyasi) o`qitishning maqbulligini ta`minlovchi yo`l-yo`riqlar tizimi bilan bog`liq bilimlar sohasidir. Professor N.Saydahmedovning aytishicha pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo`lgan ma`lum pedagogik tizimning loyihasi. Professor M.Ochilovning yozishicha pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta`lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o`zaro ta`sirini inobatga olib o`zlashtirish jarayonlarida qo`llaniladigan metodlar va usullar majmuidir. Bu tushunchaga YuNESKO tomonidan quyidagicha ta`rif berilgan: pedagogik texnologiya- bu ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta`sirini inobatga olib, o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish, uni qo`llashning tizimli (loyihalashtirilgan) metodi (usuli)dir. Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiyadan ko`zlangan maqsadga erishish uchun o`quv jarayonida qo`llaniladigan usullar, vositalar majmuidir Pedagogik texnologiya eskimi, yangimi qadimdan mavjud. Biroq jamiyat taraqqiy etgan sari maorif oldiga o`zining yangidan-yangi ijtimoiy buyurtmalarini qo`yib borganligi tufayli, ta`lim-tarbiya jarayoni ham zamonaviy ilg`or metodlar, usullar bilan boyib, yangilanib boradi.

Pedagogik texnologiyaning yo`nalishlari ko`p. Hozirgi an`anaviy ta`lim, bu 17-asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko`p qo`llanilayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo`nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo`nalishlarda rivojlanmoqda. Ular pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o`quvchi shaxsiga yo`naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar; o`quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga yo`naltirilgan pedagogik texnologiyalar; o`quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar; o`quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar; tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalari va boshqalar.

Ta`lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o`qituvchi, ham talaba-o`quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo`ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya`ni texnologiyaga bog`liq. O`qituvchi va o`quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`qituvchi talaba-o`quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo`lar, bular o`qituvchi va talaba-o`quvchilarga bog`liq.

Shu bilan bir qatorda o`qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o`quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

TA`LIM SOXASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ganiev D.K., Sulaymonova D.

FJSTI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o`qituvchisi, FJSTI "Pediatriya" yo`nalishi 2-gurux talabasi

Bugungi kunda jamiyatimizning tezkor rivojlanish davrida fan, ta`lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida yaratilgan innovatsion g`oya, texnologiya va loyihalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish, texnik jarayonlarni avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishning ustuvor yo`nalishlaridan biri sifatida innovatsiya va integratsiyaga asoslangan rivojlanish yo`liga o`tish ishlari jadal ravishda olib borilmoqda.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish bosqichlari unga innovatsion-kompyuter texnologiyalarining kuchli ta'siri bilan xarakterlanadi. Ilmiy-pedagogik faoliyatni ajralmas va muhim qismlaridan biri ta'lim jarayonida innovatsion-kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimini mukammal tashkil etishdir. Hozirda ushbu yo'nalishda bir qator ishlar olib borilmoqda. Bu ishlar ta'lim jarayonida yangi metodlar va innovatsion texnologiyalarining qo'llanishida o'z aksini topmoqda. Chunki, kompyuter va multimediya texnologiyalari asosida interfaol elektron o'quv kurslaridan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beruvchi asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Hozirda yoshlar orasida kompyuter va multimediya vositalaridan foydalanishni biladiganlar soni sezilarli darajada oshdi.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanmoqda, unga mos holda mazmun ham pedagogik jarayon ham yangilanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan innovatsion texnologiyalar kirib kelmoqda. Respublikadagi barcha tipdagi ta'lim muassasalarining kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlanishi so'ngi yillardagi eng yirik masshtabdagi innovatsion loyihalardandir.

Kompyuter va multimediya texnologiyalari imkoniyatlaridan to'la foydalangan holda qo'yidagilarga erishish mumkin:

- kompyuter va interfaol usullardan foydalanib ta'lim sifatini oshirish;
- talabalarni darsga qiziqtirish va bilimlarning puxta o'zlashtirishiga erishish;
- talaba tafakkurini rivojlantirish, ya'ni o'quvchini fikrlashga o'rgatish;
- talabalarni o'zaro muloqot (muomala) qilishga faol ishtirokini ta'minlash;
- o'quvchilar guruhida mo'tadil psixologik iqlim yaratish;
- kompyuterning hisoblash, axborot izlash va uzatish, axborotlarni qayta ishlash, grafik imkoniyatini o'zlashtirish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni nazoratini diagnostikasini va baholashni amalga oshirish.

Demak, kompyuter va multimediya vositalarining imkoniyatlari nafaqat yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga ko'mak beradi, balki ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqishiga imkon beradi. Ta'lim berishning bu uslublaridan professor-o'qituvchi va talabaning roli butunlay o'zgaradi. Professor-o'qituvchi nazariy bilimlarini, turli uslublarini va yo'riqnomalarini beruvchi o'qituvchidan turli sharoitlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etishga yordam beradigan malakali maslahatchiga aylanadi.

Talabaning o'zi maqsadini shakllantiradi, muammolarni aniqlaydi, axborotlarni tahlil qiladi, hamda muammolarni echish mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsatadi. Dars davomida qayd etilgan kamchiliklar echish va yangi g'oyalar, albatta, uning kelgusidagi ish faoliyatida o'z aksini topadi. Umuman olganda hozirgi kundagi pedagogik texnologiyalarning ham asl maqsadi, o'quvchilarning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda metodikani tanlash, eng samarador usullardan foydalanib ish faoliyatini tashkil etishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratiningina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir, bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon bo'lib, bilim ob'ektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qitganlarini sintez qiladi, natijada bilimga ega bo'ladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi.

Umuman olganda ta'lim-tarbiya va pedagogika sohasidagi yosh kadrlar oldidagi vazifalardan biri mamlakatimizni jahonning eng ilg'or, rivojlangan mamlakatlari qatoriga olib chiqishlari uchun hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini mukammal o'rganib, halqaro darajadagi yuksak kadrlar bo'lib etishishlari uchun ta'lim sifati alohida ahamiyatga egadir.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARIDAN FOYDALANIB ONLAYN DARSLARNI OLIB BORISHNING SAMARADORLIGI VA KAMCHILIKLARI

Hoshimov M.S.

Fargona jamoat salomatligi tibbiyot institute, "Biofizika va axborot texnologiyalari" kafedراسi assisenti

Pandemiyadan keyin eng ko'p ishlatiladigan atamalardan biri bu "yangi normal" atamasidir. Ta'limdagi innovatsion yangilik - bu onlayn ta'lim vositalaridan foydalanishning ko'payishi. COVID-19 pandemiyasi yangi ta'lim usullarini keltirib chiqardi. Butun dunyoda o'quv muassasalari o'quvchilarga ta'lim berish jarayonini davom ettirish uchun onlayn ta'lim platformalarini qidirmoqdalar.

Hozirgi yangi norma - bu o'zgarishning asosi bo'lgan onlayn ta'lim bilan o'zgargan ta'lim kontseptsiyasi. Bugungi kunda raqamli ta'lim butun dunyo

o`quvchilari va maktablari uchun zarur manba sifatida paydo bo`ldi. Ko`pgina o`quv institutlari uchun bu o`zlashtirishga olib keldi va mutlaqo yangi ta`lim usuli paydo bo`ldi. Onlayn o`qitish endi nafaqat akademiklarni o`rganish uchun, balki talabalar uchun auditoriyadan tashqari ishlarni o`rganishda ham qo`llaniladi. So`nggi oylarda onlayn ta`limga talab sezilarli darajada oshdi va kelajakda ham buni davom ettiradi.

Ko`pgina o`qitish usullarida bo`lgani kabi, onlayn ta`limda ham ijobiy va salbiy tomonlar mavjud. Ushbu ijobiy va salbiy tomonlarini dekodlash va tushunish institutlarga darslarni yanada samarali o`tkazish strategiyasini yaratishda yordam beradi, talabalar uchun uzluksiz o`qish safarini ta`minlaydi.

Onlayn ta`limning afzalliklari nimada?

1. Samaradorlik

Onlayn ta`lim talabalarga o`quvchilarga dars berishning samarali usulini taklif etadi. Onlayn ta`lim video, PDF, podcast kabi bir qator vositalarga ega. Talabalar ushbu vositalardan dars rejalari doirasida foydalanishlari mumkin. An`anaviy darsliklardan tashqari dars rejasini kengaytirib, Internet-resurslarni o`z ichiga olgan holda, talabalar yanada samarali ta`lim olishga ega bo`ladi.

2. Vaqtdan samarali foydalanib darslarga qatnashish imkoniyati

Onlayn ta`limning yana bir afzalligi shundaki, u o`quvchilarga xohlagan joyidan darslarga qatnashishga imkon beradi. Shuningdek, bu maktablarga geografik chegaralar bilan cheklanmaslik hamda, talabalar yanada keng tarmoqqa murojaat qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, onlayn ma`ruzalarni yozib olish, arxivlash va kelajakda ma`lumot olish uchun barchasi bir vaqtda bo`lish mumkin. Bu o`quvchilarga qulay bo`lgan vaqtda o`quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, onlayn ta`lim o`quvchilarga ta`limdagi vaqt va joydan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

3. Imkoniyat

Onlayn ta`limning yana bir afzalligi bu moliyaviy xarajatlarni kamaytirishdir. Onlayn ta`lim jismoniy o`rganish bilan taqqoslaganda ancha arzon. Buning sababi shundaki, onlayn o`qitish talabalarni yo`l xarajatlari, ijara to`lovlari hamda boshqa xarajatlarni kamaytiradi. Bundan tashqari, barcha darslar yoki o`quv materiallari onlayn rejimida mavjud bo`lib, ular qog`ozsiz o`qitish muhitini yaratadi, bu esa arzonroq va atrof-muhit uchun foydali bo`ladi.

4. Talabalarning davomat darajasini yaxshilandi

Onlayn darslar uydan yoki tanlangan joydan olinishi mumkinligi sababli, o`quvchilar dars qoldirish ehtimoli kamroq.

5. Har xil o`quv uslublariga mos keladi

Har bir talaba har xil o`quv sayohati va boshqacha uslubga ega. Ba`zi talabalar vizual tarzda o`rganishadi, ba`zi talabalar audio orqali o`rganishni afzal ko`rishadi. Xuddi shunday, ba`zi talabalar sinfda yaxshi rivojlanmoqda, boshqa talabalar esa yakka tartibdagi o`quvchilar bo`lib, ularni katta guruhlar chalg`itmoqda. Variantlari va manbalari mavjud bo`lgan onlayn ta`lim tizimi ko`p jihatdan shaxsiylashtirilishi

mumkin. Bu har bir talabaning ehtiyojlariga mos keladigan mukammal o`quv muhitini yaratishning eng yaxshi usuli.

Onlayn ta`limning kamchiliklari nimada?

1. Ekranlarga diqqatni jamlay olmaslik

Ko`pgina talabalar uchun onlayn o`rganishning eng katta muammolaridan biri bu uzoq vaqt davomida ekranga e`tibor berish bilan kurashishdir. Onlayn ta`lim bilan, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa saytlar tomonidan talabalarni osongina chalg`itishi uchun katta imkoniyat mavjud. Shu sababli, talabalar o`zlarining onlayn darslarini aniq, qiziqarli va interaktiv tarzda o`tkazib, o`quvchilarning diqqatini darsga qaratishga yordam berishlari shart.

2. Texnologiya masalalari

Onlayn darslarning yana bir muhim muammosi - bu Internetga ulanish. So`nggi bir necha yil ichida Internetning kirib kelishi o`sib borayotgan bo`lsada, kichik shahar va qishloqlarda, yaxshi tezlik bilan izchil aloqa muammo bo`lmoqda. Talabalar yoki o`quvchilar uchun doimiy Internet aloqasi bo`lmasa, talabalarni o`rganishda uzluksizlik etishmasligi mumkin. Bu ta`lim jarayoniga zararlidir.

3. Izolyatsiya hissi

Talabalar o`z tengdoshlari davrasida bo`lishdan ko`p narsalarni o`rganishlari mumkin. Biroq, onlayn darsda talabalar va talabalar o`rtasida minimal jismoniy shovqinlar mavjud. Bu ko`pincha talabalar uchun izolyatsiya tuyg`usini keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatda maktab o`quvchilar, tengdoshlar va talabalar o`rtasida boshqa aloqa shakllarini yo`lga qo`yishi shart. Bu o`zaro yuzma-yuz muloqot qilish va izolyatsiya tuyg`usini kamaytirishga imkon beradigan onlayn xabarlar, elektron pochta xabarlari va videokonferentsiyalarni o`z ichiga olishi mumkin.

4. O`qituvchilar malakasini oshirish

Onlayn ta`lim o`qituvchilardan raqamli ta`lim shakllaridan foydalanish to`g`risida asosiy tushunchalarni talab qiladi. Biroq, bu har doim ham shunday emas. Ko`pincha o`qituvchilar texnologiyani juda oddiy tushunishadi. Ba`zan, ular hatto onlayn darslarni o`tkazish uchun zarur manbalar va vositalarga ega emaslar.

Bunga qarshi kurashish uchun ta`lim dargohlari o`zlarining onlayn mashg`ulotlarini muammosiz o`tkazishlari uchun eng yangi texnologiyalarni o`qituvchilarga taklif qilish hamda mablag`ajratishlari muhimdir.

5. Ekran vaqtini boshqarish

Ko`pgina ota-onalar farzandlarini ekranga qarab shuncha soat vaqt sarf qilishlari sog`liq uchun zararli ekanligidan xavotirda. Ekran vaqtining ko`payishi onlayn ta`limning eng katta tashvishlari va kamchiliklaridan biridir. Ba`zan o`quvchilar ekran oldida o`tirish tufayli yomon holat va boshqa jismoniy muammolarga duch kelishadi. Buning yaxshi echimi, o`quvchilarga ongini va tanasini yangilash uchun ekrandan ko`p tanaffuslar berish edi.

Takliflar

Muhim sohalarda ayniqsa tibbiyot sohasidagi mutaxassislik fanlarini an`anaviy boshqa fanlarni esa onlayn olib borishni taklif qilgan bo`lar edim

MULOHAZALAR ALGEBRASI BO`LIMINI O`QITISHDA ELECTRONICS WORKBENCH (EWB) DASTURINI QO`LLASH


Jarqinov D.U., Jarqinova D.A.

Andijon davlat universiteti, Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot institute


Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko`rinib turibdiki, ta`lim jarayoniga o`qitishning yangi, zamonaviy usul va vositlari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda. Jumladan, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda: Bayon etilayotgan maqolada, oliy ta`lim muassasalarida "Diskret matematika" fanining muloxazalar algebrasi bo`limini *Electronics Workbench* (EWB) dasturini qo`llab o`qitish masalasi ko`rilgan.

Bul funktsional lari - diskret boshqarish sistemalari (kontakt sxemalar, funksional elementlardan tashkil topgan sxemalar, logik tarmoqlar va xakoza.) ishlashini ifodalashda keng foydalaniladi. Bundan tashqari Releli - kontakt sxemalari deb ataluvchi elektr zanjirlarni o`rganishda keng ishlatiladi.

Releli - kontakt sxema deganda, o`tkazgichlar va ikki pozitsiyali kontaktlardan tuzilgan qurilma tushiniladi. Releli - kontakt sxemalar tok manbalari qutblarini isteomolchi bilan ulash yoki uzish uchun xizmat qiladi. Releli - kontakt sxemadagi kontaktlar ikki xil bo`ladi.



1. Ulanuvchi.



2. Uziluvchi.

Har bir kontakt relega birlashtirilgan bo`ladi. Bu yerda bittir relega bir nechta kontaktlar ham ulanuvchi, (ham uziluvchi) birlashtirilgan bo`ladi. Texnik jihatdan rele metal uzoq atrofidagi sim o`ramasidan tashkil topgan bo`lib, qandaydir kontak yaqinida joylashgan bo`ladi. Rele ishlayotganida yani o`ramadan tok o`tayotganida metal o`zak magnitlanadi va uning yaqinida turgan ulanuvchi kontaktlarni ulaydi, uziluvchi kontaktlarni uzadi. Releden tok o`tmayotganda ulanuvchi kontaktlar uzilgan holatda uziluvchi kontaktlar ulangan holatda bo`ladi. Biz yuqoridagi misollardan birini olib releli kontaktini tuzib ko`ramiz. Bu jarayonda ham biz uch tomonlama yondashishimiz mumkin.

- Berilgan formulaga mos releli kontakt tuzish
- Kerakli signalni olish uchun jadvalga mos releli kontakt tuzish
- Avval sxemani qurib olib unga mos formula yoki jadval tuzish masalalarini hal qilish mumkin. Quyida kerakli signalni olish uchun jadvalga mos releli kontakt tuzish masalasi ko`rilgan.

Mana shu bosqichda diskret matematika, fizika, sxematexnika va informatika fanlari bog`lanadi va elektronika, raqamli texnika, telekommunikatsiya, robototexnika, kibernetika kabi yo`nalishlarining qurilmalarini loyihalash va yaratish uchun keng imkoniyat yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Shaporev S.D. Diskretnaya matematika. Kurs lektsiy i practiceskix zanyatiy. Sankt-Peterburg "BXV- Peterburg" 2009 g.

BIOKIMYODAN SHAKILLANTIRILGAN FAN MODULIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Rahmatullaev I., Mamatqulova S.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, "Kimyo va biologiya" kafedrası, Farg'ona Davlat universiteti

Xar bir shifokor odam organizmi o'ziga hos mukammal dasturlangan tizim asosida rivojlanishini tushunishi, ilmiy muloxaza o'ila olishi va jarayonlarni borish qonuniyatlarini to'g'ri tasavvur qilishlari uchun aynan biokimyoviy bilimlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi juda muxim.

Albatta bu bo'yicha belgilangan fan dasturi o'zida ushbu fanning maqsadlari, uning o'quv dasturida tutgan o'rni, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni o'rganish natijasida nimalar qila olishi, ushbu fan bo'yicha semestr davomida o'rganiladigan mavzular, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil bajariladigan topshiriqlar, foydalaniladigan darslik va adabiyotlar kabi ma'lumotlarni qamrab oladi.

Fan dasturidan ko'zlangan maqsad shu fan uchun dars jarayonlarini shaffof, maqsadli va reja asosida tashkil etishdan iborat. Bunda avvalombor o'qituvchini o'zi o'qitmoqchi bo'lgan fani maqsadlari va ahamiyatini chuqur o'zlashtirgan, tushunib olgan bo'lishi zarur.

Shundagina o'qituvchi oldindan fani maqsadlarini aniq belgilab oladi va u semestr davomida barcha ta'lim xarakterlarini mana shu maqsadni amalga oshirishga qaratadi va uni bajarilishini nazorat qiladi.

Onlayn o'qish jarayonida esa fanni maqsad va vazifalarini, o'rganiladigan mavzular ro'yxati, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, glossariylar, talabaning mustaqil ish topshiriqlari, testlar va nazariy savollar modulga kiritilgan bo'lib, talabaning o'zlashtirishi shu modulda materiallarni qay tarzda mukammal, to'liq shakllantirilganligi va uni talabalar qanday o'zlashtirishi kerakligiga oid ko'rsatma va tavsiyalarga bog'liq bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan biz quyida onlayn o'qish sharoitida biokimyofani bo'yicha shakllantirilgan modulning tartibi, mazmun - mohiyati va undan foydalanish yo'llarini TPI yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun tayyorlangan modul misolida e'tiboringizga havola etmoqchimiz.

Mahlumki, tibbiy profilaktika ishi 2-kurs uchun biokimyodan darslar III va IV – semestr davomida olib borilib, shundan III-semestrda 20 soat (10 para) ma'ruza, 40 soat amaliy mashg'ulot, 12 soat laboratoriya ishlari rejalashtirilgan. Talabaning mustaqil ishlari uchun esa 48 soat ajratilgan. Shuningdek xar bir mavzular uchun 20 tadan testlar, mavzuni takrorlash va mustaxkamlash uchun nazariy savollar keltirilgan.

Shu yuqorida keltirilgan tartib bo'yicha xar bir modulda mavzuga oid material va topshiriqlar jamlanmasi shakllantirilgan.

Onlayn o'qiyotgan talabalarga moduldagi fan mazmuni o'zlashtirishga kirishishdan oldin modulning «E'lon» qismidagi xujjatlar (fanni ishchi dasturi. modul bilan ishlash tartib qoidalar, ko'rsatma va maslaxatlar, ajratilgan soatlar...) va boshqa yo'l-yo'riqlar bilan tanishib chiqish uqtiriladi. Shuningdek modul bilan ishlashga kirishishda albatta dekanat tomonidan belgilangan dars jadvali asosida modulga ("Zoom" platformasida darsni tinglab) kirib o'sha kun sanasi bo'yicha daftarga mavzuni qisqa mazmuni (1,2 bet) yozib boriladi va olingan tapshiriqlar o'z vaqtida bajarilishi, glossariy, mustaqil ish savollariga javoblar o'qituvchi telegrammiga tashlab borilishi ta'lab etiladi.

Ish tartibi va mazmuniga oid tushunmovchilik bo'lgan taqdirda fan o'qituvchisi bilan telegramm yoki telefon orqali bo'flanib aniqlik kiritish uchun imkoniyat yaratiladi.

Modul bilan ishlash tartibi quydagicha amalga oshiriladi:

- Birinchidan ma'ruzalar jadval bo'yicha "Zoom" platformasida tinglanadi. Shu bilan birga moduldan ma'ruza taqdimoti (prezentatsiya), matni (qo'shimcha asosiy darslikni tavsiya etilgan elektron variantidan foydalaniladi) o'qib - o'zlashtirib chiqilgach ma'ruza uchun tutilgan daftarga mavzuning qisqa lo'nda javobi yoziladi;
- Ikkinchidan mavzuga tegishli amaliy mash'ulot o'zlashtirilib, u bo'yicha berilgan innovatsion texnologiyaning tavsiya etilgan usul asosida topshiriq to'liq bajariladi;
- Uchunchidan laboratoriya ishining mazmun - mohiyati, uning bajarilish tartibi klinik va tashxis qo'yishdagi axamiyati kabilar o'rganiladi;
- To'rtinchidan ma'ruza, amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlari mavzularidan kelib chiqib tuzilgan glossariylarni javoblari (aloxida daftarga yoziladi) batafsil yozilib o'zlashtiriladi;
- Beshinchidan talabaning mustaqil ish savollariga yozgan javoblariga aloxida e'tibor berilishi, savollarning ko'pchiligi mantiqiy hulosalar va yoki qo'shimcha izlanishlar bilan amalga oshiriladigan bo'lganligidan, bularni ham qisqa aniq javoblarini o'qituvchining telegrammiga yuborish talab etiladi;
- Oltinchidan mavzuga oid vaziyatli masalalar va mavzuni takrorlab, mustaxkamlash uchun berilgan savollarga javoblar topiladi;
- Yettinchidan mavzularning mazmunidan kelib chiqib xar bir talaba uchun, xar bir modul mavzusiga oid (20 tadan) testlar ishlab chiqiladi va ularning javoblari o'qituvchi tomonidan baxolash uchun nazoratga olinadi.

Shunday qilib, bizning Onlayn o'qitish amaliyotida yuqoridagi tartib asosida o'quv jarayonini amalga oshirib kelinishidan qilingan xulosamiz shundan

iboratki, bunda talaba albatta qat'iy kun tartibi asosida, vijdonan topshiriqlarni bajarib borsagina ko'zlangan maqsadga erishilib, samarali bilimni olishi mumkin bo'ladi.

ZAMONAVIY TIBBIYOT VA MATEMATIKA

Yusupova A.K Raimov R.B.

Farg'ona davlat universiteti

Tibbiyot sohasi qanchalik rivojlanmasin, undagi matematika bilan bog'liq aloqadorlik yo'qolgani yo'q. elementlar va oliy matematika tushunchalari yanada ko'proq tibbiyotga olib kirilmoqda. Chunki zamonaviy tibbiyot sohalari yuqori aniqlik va keng ko'lamli tadqiqotlarni talab etmoqda. Lekin o'quvchilar haligacha matematika fanini tibbiyot sohasiga aloqadorligi haqida yetarlicha tasavurga ega emas. So'liqni saqlash sohasiga talab, doimiy yuqori bo'lganligi sababli, bu sohaga uzluksiz kadrlar yetishtirish va bu kadrlarni o'z sohalari bo'yicha uzviylikini ta'minlash ijtimoiy xayotning muhim masalasi bo'lmoqda. Ayni vaqtda o'quvchilardan matematika fanini qo'llash mumkun bo'lgan sohalarda haqida so'ralsa, bu sohalarda tibbiyotning ulushi kam bo'lishi tabiiy. Aslida zamonaviy tibbiyotni oddiy proporsiya amalidan matematika statistika elementlarigacha bo'lgan tushunchalarni qo'llamasdan hozirgi holati kabi namoyon qilib bo'lmasdi. Matematika tibbiyotning farmatseftika, pediatriya, kardiologiya, tibbiy statistika va deyarli barcha sohasida qo'llaniladi. Tibbiyot sohasida matematikaning elementar matematika amallari, differensial tenglamalar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'limlari keng qo'llaniladi. Elementar matematikaning ikki tushunchasi hozirgi tibbiyotda keng qo'llaniladi. Bu tushunchalar, foizlar va proporsiya. Insonning turli yoshlardagi fiziologik ko'rsatkichlarining meyyorida bo'lishini belgilab borish, ularni foiz ko'rsatkichlarda ifodalash bilan qulay. Masalan yangi tug'ilgan chaqaloq muskullari massasi, butun tana massasining 20 – 22 % ni tashkil etadi 22 – 25 yosh orasida erkaklar muskullarining massasi butun tana massasining 40 – 45 % ni ayollarda esa bu ko'rsatkich 25 – 30 % ni tashkil etadi. Agar bu meyyorlar o'zgarsa bu inson tanasidagi ma'lum bir kasalliklar paydo bo'lganini anglatadi. Ma'lumki eng ko'p murojat etiluvchi tibbiy tahlil bu qon tahlili. Qon tarkibidagi eritrositlar va leykositlar va trombositlarning 50 % ni tashkil etadi qon tarkibidagi moddalarning meyyorida bo'lishi insondagi ichki fiziologik xolatni meyyorida ekanini anglatadi. Bunday ko'rsatkichlarni aniq hisolash zamonaviy tahlil vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Ularning aniqlik ko'rsatkichlarini hisoblash nisbiy va absolyut xatoliklarini aniqlashga bog'liq. Ko'rinib turgandek, fiziologik ko'rsatkichlarning tibbiy tahlillar bilan aniqlash qanchalik muhim bo'lsa ularni ifodalashda foiz tushunchasi va zamonaviy vositalarning aniqlik ko'rsatkichlari bevosita elementar matematikaning tibbiyotda keng qo'llanilishini ko'rsatadi. Elementar matematikadagi proporsiya tushunchasi farmatseftika sohasida keng qo'llaniladi. Dori vositalarining kerakli dozada qo'llanilishi davo efektini taminlaydi.

Dori vositalarini ishlab chiqarishda uning tarkibidagi ingredientlarning aniq nisbatda bo'lishi muhim. Agarda dori vositasiga shaker va bo'yoqlar qo'shilganida xam bu dori efektini yo'qotmasligi yoki salbiy tasir ko'rsatmasligi uchun uning dori vositasi tarkibidagi aniq ulishi belgilab olinadi. Bunday dori tarkibidagi nisbatlarni elementar matematikadagi proporsiya tushunchasi yordamida aniqlanadi.

Tibbiyotning ayni vaqtdagi eng fundamental sohasi bu tibbiyot statistikasi, chunki aholi salomatligi ko'rsatkichlarini muntazam belgilab borish insonlarning shaxsiy tibbiy varqalar yoki kassalik tarixini yuritish, surunkali va yuqumli kasalliklar statistikasi bilan ishlash bugungi tibbiyotning ajralmas qismi. Bu jarayon ma'lum xududdan boshlanib avvaliga davlat keyin mintaqa va so'ngida jaxon miqyosida sodir bo'ladi. Albatta zamonaviy kommunikatsiya imkoniyatlari bo'lmaganida bunday katta xajmli ma'lumotlarni yig'ish real vaqt rejimida yangilash ularni taxlil qilish va uzatish imkoni bo'lmas edi. Ayniqsa COVID – 19 pandemiyasi vaqtida butun insoniyat epidimologik statistik ko'rsatkichlarga ko'p duch keldi va bu ko'rsatkichlarning aniqligi qanchalik muhim ekanligini anglab yetdi. Shu o'rinda mamlakatimizda xam bu ko'rsatkichlarning aniq emasligi borasida turli noroziliklar paydo bo'ldi. COVID – 19 va pnevmoniya ko'rsatkichlari birlashtirilganidan so'ng bu noroziliklar yanada kuchaydi. Bularning xammasi sohadagi muammolar borligini, ularni bartaraf etish uchun mutaxassislar va texnologiyalarda keng foydalanish lozimligini isbotladi. Umumiy tibbiyot statistika bo'yicha esa aholi ma'lumotlari xali xam qog'oz hujjatlari yordamida yuritilmoqda. Aholi ma'lumotlarini xar yili yangilab boorish xududlar kesimida va butun davlatning yagona electron tibbiy bazasini yaratish soxasidagi birinchi masala keying o'rinlarda bu ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash axolining tibbiy extiyojlarini xam hududlarining statistic ko'rsatkichlarini xisobga olgan xolda ko'ndirish muhim ahamiyatga ega. Ehtimollar nazariyasi va deferensial tenglamalar soxalarining amaliyotga tadbiqu tibbiyot soxasini xam chetlab o'tmagan. Kasalliklarni davolashda davo muolajalarini tibbiy amaliyotlarning qay biri samaraliroq ekanligini aniqlash. Bu bevosita bemorlarning o'sha vaqtdagi axvoli, kasallikning qaysi davrda ekanligi va bemorda bo'lgan yoki ayni vaqtda mavjud bo'lgan boshqa kasalliklarga xam bog'liq. Bu xolatlarni baholash va samarali usulini tanlash extimollar nazariyasining tibbiyotda qo'llanilishini taqazo etadi. Diferensial tenglamalar ko'p o'zgaruvchilik miqdorlar bilan ifodalanishi tufayli tibbiyotning turli sohalarida ko'p qo'llaniladi. Bemorlarning davolanish va sog'ayish muddatlarini prognos qilish ayni deferensial tenglamalar yordamida aniqlanadi. So'ngi paytlarda ommalashayotgan sport tibbiyoti soxasi sportchilarning ma'lum jismoniy ko'rsatkichlarini aniqlab borish, ular jaroxat olganida sog'ayish va tiklanish jarayonidan so'ng o'z sport formasiga qaytish muddatlarini prognos qilyotganini kuzatamiz. Demak sport tibbiyoti soxasida deferensial tenglamalarining amaliyoti keng namoyon bo'lmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki zamaonaviy tibbiyotda elementar matematika va oily matematika elementlari tushunchalari qonuniyatlari va tenglamalari keng qo'llaniladi. Sonli munosabatlardan tortib extimoliy ko'rsatkichlargacha

matematikaning tibbiyotdagi imzosi namoyon bo`ladi. Faqatgina zamonaviy tibbiyotdagi matematikaning boshqa soxadagi tadbiqui yani axborot texnologiyalari ham zarur ekanligi ma`lum bo`ladi. Tibbiyot aniq ko`rsatkichlarga tayanuvchi soxa bo`lsa matematika ana shu aniqlikni ta`minlovchi fan.

ТИББИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Абдуманонов А.А. Усманов А.Х.

Фарғона жамоат лаоматлиги тиббиёт институти.

Аннотация: Мақолада тиббий таълим сифатини оширишда ахборот технологиялари ва электрон таълим, масофавий таълимни ривожлантириш ва электрон таълимни ташкилашдаги ўзига хоса масалалар ва уларни ечимлари келтирилган. Таълим жараёнида АКТдан фойдаланиш таълим сифатини оширишдаги ўзига хос бўлган технология бўлиб бу айниқса мустақил таълим жараёнини ташкилаш ва талабаларда эркин ижодий фикрлашни ривожлантиришга олиб келади ва бу эса ўз-ўзидан таълим сифатини ошишига олиб келади. Ахборот технологиялари – таълим беришда оптимал ва қулай шарт-шароит яратади, лекин у тегишлича услубий асосланган ва аниқ мақсадларга йўналтирилган бўлиши керак ва уни ҳеч қачон талабалар вақтини беҳуда ўтказувчи компьютер эрмагига айлантириб қўймаслик керак.

Калит сўзлар: таълим сифати, электрон таълим, масофавий таълим, электрон контентлар, CMS, LMS.

Мамлакатимиздаги олий ўқув юртларининг бош мақсади ҳозирги замон талабларига жавоб бера олувчи олий маълумотли етук мутахассисларни етиштиришдан иборат. Жамият доимо кучли билим ва малакага эга бўлган, шунинг билан бирга, эзгу ахлоқий сифатларни ўзига сингдирган, мамлакат ривожига ҳисса қўша оладиган мутахассисларга эҳтиёж сезади. Бундай кадрларни тайёрлашда олий ўқув юрти учун катта масъулият юклайди. Олий ўқув юртларида етиштирилаётган мутахассиснинг салоҳияти, унинг билимли ва етук малакага эга бўлиши, қолаверса, соҳанинг ривожига таълим муассасида маънавий-тарбиявий, илмий ишларнинг ва АКТни нечоғлиқ йўлга қўйилганлиги билан боғлиқ.

Таълим жараёнида “сифат” тушунчасини қўллаш мазмунан янгича маъно касб этади. “Юқори сифат” тушунчаси таълимда сифатни бошқариш тизими билан ҳеч қандай умумийликка эга эмас. Сифатни бошқариш борасидаги тортишувларда тез-тез унинг юқори мавқеининг аҳамияти тўғрисида саволлар туғилиб туради. Ушбу идеаллаштирилган тушунчаларни қўллаш таълим муассасасининг салоҳиятини оширишга ҳамда ижтимоий алоқалари учун фойдали бўлиши мумкин.

Олий таълим тизимида ўқув сифатини таъминлаш ва унинг самарадорлигини оширишда ахборот технологияларидан фойдаланиш, олий

Ўқув юртларида уни кенг жорий этишнинг аҳамияти катта. Таъкидлаш ўринлики, ҳозирги шароитда олий таълим тизимининг ривожланиб бораётганлиги, олий ўқув юртлари ўртасидаги интеграциянинг мавжудлиги ҳам ахборот технологиялари туфайлидир.

Янги технологиялар кун сайин ривожланиб, ахборотлаштириш жараёни тез суръатлар билан ўсиб бораётган ҳозирги даврда таълим соҳасида ахборот ресурсларини ташкил этиш ва таълим тизимида фойдаланишга мамлакатимизда катта эътибор қаратилмоқда. Бу борадаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг йўналишларига бағишланган бир қатор қарор ва фармонлари бугунги кунда глобал иқтисодиётда компьютер ва телекоммуникация технологиялари, дастурий таъминот маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва улар асосида кенг турдаги интерфаол хизматлар кўрсатишни ўз ичига олган ахборот-коммуникация технологиялари соҳасининг роли ва аҳамияти, таълим соҳасида ахборотлаштиришнинг миллий тизимини шакллантириш, замонавий ахборот технологияларини жорий этиш ва ундан кенг фойдаланиш учун кенг имкониятлар яратмоқда. Олий таълим муассасалари талабалари ўртасида ахборот-коммуникация технологиялари, дастурий маҳсулотларни яратиш борасида танлов ва олимпиадалар ўтказиш, математик моделлаштириш, алгоритмлаш, криптология, компьютер ва дастурий инжиниринг, телекоммуникация ва телевизион технологиялари, ахборот хавфсизлиги йўналишларида замонавий ўқув адабиётларини тайёрлаш, уларнинг мультимедиали авлодларини яратиш ҳамда талабалар, олимлар ва педагогларнинг ушбу ўқув адабиётларидан эркин фойдаланишлари учун уларни электрон ресурсларга жойлаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Таълим тизимига электрон таълимни (ЭТ) жорий этиш, биринчи навбатда, жамиятнинг интеллектуал салоҳиятига, жумладан, таълим соҳасининг ахборотлашувига, ахборот таълим ресурсларини ишлаб чиқишга боғлиқ. Дунёнинг ривожланган мамлакатларида таълимни ахборотлаштириш, шу жумладан, ЭТ жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. ЭТ ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш йўллари изланмоқда, таълимда янги ахборот технологияларини жорий этиш таълим соҳасидаги ислохотларнинг диққат марказидан ўрин олган.

Бугунги кунда ЭТ тизимини жорий этиш Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг “Ўқув жараёнига АКТни жорий этиш” бошқармаси ва “Таълим муассасаларида электрон таълимни жорий этиш” марказлари раҳбарлигида олий таълим муассасасида ўқитиладиган асосий фанларнинг мазмуни ҳамда информацион таъминотини замонавий талаблар даражасига етказиш бўйича жадал ишлар олиб борилмоқда.

Таълимда фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциясининг асосли механизмларини ишлаб чиқиш, уни амалиётга жорий этиш, ўқишни, мустақил билим олишни индивидуаллаштириш, масофавий таълим тизими

технологиясини ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш, янги педагогик ҳамда ахборот технологиялари асосида ЭТдан фойдаланган ҳолда талабалар ўқишини жадаллаштириш [1] ана шундай долзарб вазифалар сирасига киради. Ўқув жараёнини ЭТ асосида ташкил этиш, шу жумладан, ўқув материалларини баён этишни такомиллаштириш тамойилларига маълум ўзгартиришлар киритиш керак бўлади. Бунда таълим жараёнига замонавий ахборот технологияларини жорий этиш ва улардан фойдаланиш мақсадга эришишдаги энг самарали йўлдир [3].

Таълим тизимига электрон ахборот таълим технологияларини татбиқ этиш, таълим муассасаларининг моддий техник базасини танқидий баҳолаш ва такомиллаштиришдаги асосий вазифалар қуйидагилардан иборат:

- ЭТни ўқув жараёнига татбиқ этиш учун лозим моддий-техника базасини яратиш;
- ўқув жараёни учун ЭТ мўлжалланган таълим технологияларини яратиш ва қўллаш;
- талабаларни замонавий ЭТ технологиялари соҳасида билим ва кўникмаларини шакллантириш;
- ЭТни жорий этиш орқали таълим тарбия ва ўқитиш жараёнининг самарадорлигини ошириш.

Электрон ахборот ресурслари таълимга оид ахборотларни йиғиш, сақлаш, узатиш, қайта ишлаш усул ва воситалари мажмуидан иборат бўлиб, у таълимга оид турли ахборотларнинг яратилишини белгиловчи ички ва ташқи омилларга боғлиқ:

- ички омиллар — бу ахборотларнинг яратилиши, турлари, хоссалари, ахборотлар билан турли амалларни бажариш, уларни жамлаш, узатиш, сақлаш ва ҳ.к.
- ташқи омиллар — бу ЭТнинг техника-ускунавий воситалари орқали ахборотлар билан турли вазифаларни амалга оширишни билдиради.

ЭТдан фойдаланиш эса, улар билан мулоқотда фойдаланувчиларнинг кўникма ва малакаларига боғлиқ. Шунинг учун, дастлаб замонавий телекоммуникация воситаларининг ўзи нималигини билиб олиш муҳим саналади.

Замонавий телекоммуникация воситалари имкониятлари жуда кенг тизим бўлиб, унга маълум бўлган компьютер, мультимедиа воситалари, компьютер тармоқлари, интернет каби тушунчалардан ташқари, қатор янги тушунчалар ҳам киради. Буларга ахборот тизимлари, ахборот тизимларини бошқариш, ахборотларни узатиш тизимлари, маълумотлар омбори, маълумотлар омборини бошқариш тизими, билимлар омбори кабилар мисол бўлиши мумкин. “XXI аср - ахборотлаштириш асри” да таълим соҳасига электрон таълимни жорий этиш, ҳар бир таълим муассасасида:

- ўқитиш ва ўқиш жараёнининг;
- таълим муассасаси бошқарилишининг;

-таълим муассасаси фаолияти муҳитининг ахборотлаштирилишини талаб қилади.

Таълим муассасида ЭТ муҳитини ташкил этиш босқичлари психологик ахборот муҳитини яратишдан бошланади [3]. Технологик ва илмий натижалар, яратилган дастурий маҳсулотлар асосида замонавий воситалар ва методлардан фойдаланишга эҳтиёж шакллантирилади. Бунда ҳар бир таълим муассасида индивидуал ва маслаҳат машғулотлар асосида педагоглари мустақил ва компьютер таълими тизимини ташкил этиш керак.

Таълим соҳасида ахборот ресурсларини ташкил этиш ва таълимда фойдаланишга мамлакатимизда алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таълим тизимига ЭТни жорий этиш, биринчи навбатда, жамиятнинг интеллектуаль салоҳиятига, жумладан, таълим соҳасининг ахборотлашувига, ахборот таълим ресурсларини ишлаб чиқишга боғлиқ. Таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграцияси асосли механизмларини ишлаб чиқиш, уни амалиётга жорий этиш, ўқишни, мустақил билим олишни индивидуаллаштириш, масофавий таълим (МТ) тизими технологияси ва воситаларини ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш, янги педагогик ҳамда ахборот технологиялари асосида ЭТдан фойдаланган ҳолда талабалар ўқишини жадаллаштириш ана шундай муҳим вазифалар сирасига киради. Ўқув жараёнини ЭТ асосида ташкил этиш, шу жумладан, ўқув материалларини баён этишни такомиллаштириш таъминларига маълум ўзгартиришлар киритиш керак бўлади [4].

АКТни таълим жараёнида (хусусан, МТ жараёнини) қўллаш асосан икки хил кўринишда амалга оширилади. Биринчи шарт, бу техник жиҳозлар бўлса, иккинчиси шарт эса махсус дастурий таъминотлар билан таъминланганлигидир.

Техник жиҳозлар билан таъминланганлик: компьютерлар, тармоқ қўрилмалари, юқори тезликдаги интернет тармоқлари, видео конференция жиҳозлари ва ҳаказо.

Дастурий таъминотга қурилмаларни ишлатадиган дастурий таъминотлардан тортиб шу соҳа учун мўлжалланган дастурлар тўплами киради.

Сўнги йилларда ғарбда таълим тизимини бошқаришда қўлланилиб келинаётган интернет тармоғи орқали электрон шаклдаги таълим турини Elearning (электрон таълим) атамаси билан кириб келди.

Электрон таълим – ахборот-коммуникация технологиялари асосидаги таълимнинг турли кўринишларини англатувчи кенг тушунчадир.

ЭТ ташкиллаштиришнинг кўпгина манбалари орасидан қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

- Муаллифлик дастурий маҳсулотлари (Authoring tools);
- Виртуал таълим жараёнини бошқарувчи тизимлар LMS (Learning Management Systems);

- Ички контентни бошқарув тизимлари CMS (Content Management Systems).

Ахборотлаштириш соҳасидаги давлат сиёсати [5], ахборот ресурслари, ахборот технологиялари ва ахборот тизимларини ривожланиш ва такомиллашувининг замонавий жаҳон тамойилларини ҳисобга олган ҳолда миллий ахборот тизимларини яратишга қаратилган. Соҳаларда катта хажмдаги ахборотларни тўпланиши, яхлит ахборот маконини вужудга келиши, уларни сақлаш, қайта ишлаш, узатиш жараёнларида замонавий ахборот–коммуникацион технологиялардан фойдаланишни йўлга қўйишни билиш лозим.


Шу борада таълим тизимида ҳам ўқув жараёнини олиб бориш учун мўлжалланган турли компьютер дастурлари ишлатилиб келинмоқда ва уларнинг сони кун сайин ортмоқда. Лекин чет эл дастурларининг бари миллий таълим тизимимиз ва билим бериш стандартларига мос келавермаслиги, талабларга жавоб бермаслиги мумкин. Айни чоғда, таълим тизимида миллий замонавий компьютер дастурлари ахборот тизимларини яратишга эҳтиёж туғилмоқда.

Дарс жараёнини бошқариш ва назорат қилиш дастурий таъминот йўқлиги сабабли дарс жараёни, синф компьютерлари ва талабаларни бошқа турдаги ҳисоблаш қурилмаларини тўлақонли назорат қилиш муаммо бўлиб қолмоқда.

Бу турдаги дастурий воситаларнинг йўқлиги дарс жараёнида фойдаланилаётган компьютерлар, гаджетлар ва бошқа турдаги мобиль қурилмалар дарс жараёнини олиб боришга халақит қилиши мумкин. Ушбу муаммоларни ечиш учун олий ўқув юртларида, кафедраларда махсус дастурлар яратилмоғи ва амалиётга татбиқ этилмоғи лозим. Ушбу дастурла таълим сифатини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Бу муаммони ечиш учун биз Тошкент Тиббиёт академияси Фарғона филиалида “Class Screen Server” номли дастур яратдик [6-8]. Ушбу дастур дарс жараёнини олиб боришда исталган турдаги электрон материаллардан фойдаланиш, дарс жараёнида талабаларни индивидуал назорат қилиш, дарс жараёнида талабаларнинг фаол қатнашишини таъминлаш, мустақил шуғулланишларига ёрдам беради.

Дастур талабалар компьютерлари устидан тўлиқ назорат олиб боришда LAN ёки WiFi тармоғидан фойдаланади. “Class Screen Server” Windows xp/7/8 операцион системаларида ишлашга мўлжалланган.




Расм 1. "Class Screen Server" дастури интерфейси.

Замонавий таълим тизимида бундай дастурларни жорий этиш сифат ва оқилона асосланган бўлиши керак ва у мавжуд дарс ўтиш жараёнининг ўрнини эгалламаслиги, аксинча, уни тўлдириши керак. Дастурнинг қўлланилиши дарс жараёнини назорат қилиш, компьютерлар ва тармоқ технологияларида максимал фойдаланиш имконини беради.

Ўқитувчи талабаларга билим беришдан ташқари, уларнинг билимини баҳолаши ҳам керак. Ҳозирда асосан ўқитувчилар талабалар билимини баҳолаш учун ТЕСТ тизимидан фойдаланишмоқда. Кўп ҳолларда бундай тестлар қоғоз ёки турли карточкалар шаклида берилади. Ҳар бир гуруҳ машғулоти учун ўқитувчи алоҳида индивидуал вариантлар таёрлайди ва бу иш кўп вақт олади.

Бундай ҳолатларнинг олдини олиш учун биз, тест саволлари базасини ва тест саволлари вариантларини санокли дақиқалар ичида шакллантириб, берилган саволлар сони бўйича ва мавзулар бўйича исталганча уникал тест вариантларини яратиш имконини берувчи махсус "Тест аралаштиргич" компьютер дастурини яратдик.



Расм 2. "Тест аралаштиргич" дастури интерфейси.


Дастур олий таълим, мактаблар, касб-ҳунар коллежлари талабалари учун тест саволлари базасидан кенг қўламли, бир-бирини такрорламайдиган тест вариантлари тайёрлаш учун мўлжалланган.

Кафедрада илмий ишларни ташкил этиш ва уларнинг назорати, илмий янгиликлар, уларнинг илмий журналда чоп этириш ва анжуманларда маърузалар ўқиш жамоада олиб борилаётган илмий ишлар салоҳияти ва уларнинг интеграциясини таъминлашга катта ҳисса қўшади.

Аёнки, илмий иш натижаси янги ғоялар, монография, илмий мақола ёки тезислар, ихтиролар, дастурий ишланмаларга берилган патентлар билан изоҳланади. Илмий ишни кафедра ва олий таълим муассасасининг бошқа бўлимлари, турдош муассасалар, ҳамкор ташкилотлар билан ҳамкорлигидан келиб чиққан ҳолда муайян муамолар юзасидан биргаликда ишлаши ва илмий натижалар таҳлили катта аҳамиятга эга. Кафедраларда бажарилаётган илмий ишлардан ҳар қачон ҳам бошқа ташкилотлар хабардор бўлавермайди.

Бундан ташқари кафедра ва олий таълим муассаси бўлимларида олиб борилаётган илмий ишлар таҳлили ва илмий ҳисоботларни таёрлашда ҳам муаммога дуч келиш мумкин.

Ушбу муаммоларни ечишда “Илмий ишлар базаси” номли компьютер дастури қўл келиши мумкин. Дастурда кафедра ва олий таълим муассаси профессор-ўқитувчилари томонидан чоп этилган мақола, тезис ва патентлар жойлаштирилади ва у ҳақдаги керакли маълумотлар турли шаклларда қисқа муддат ичида олиниши мумкин. Дастурда олий таълим бўйича барча ишлмий ишлар базасидан исталган профессор-ўқитувчи электрон шаклда фойдаланиши ва илмий янгиликлардан хабардор бўла олади.



Расм 3. “Илмий ишлар базаси” дастури интерфейси.

Дастур Derby объектга мўлжалланган дастурлаш тилида яратилган бўлиб, маълумотлар базасини бошқариш тизими сифатида MySQL танланган. MySQL маълумотлар базасини бошқариш тизимида яратилган илмий ишлар базасидан web технологиялар орқали ҳам фойдаланиш имкони бор. Дастурда турли ҳисобот шакллари яртишда FastReport ҳисоботлар шакллантириш модулидан фойдаланилган.

Хулоса қилиб айтганда, таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш, биринчи навбатда, мавжуд ўқув ва бошқариш технологиясини такомиллаштиришга олиб келади. Шу билан бирга, улар тадқиқот, ўқитиш методлари ва ахборот билан ишлашнинг янги усулларини яратишга олиб келишини таъкидлаш лозим. АКТ талабаларни индивидуал таълим олишлари учун қулай шароит яратиб, талабалар билим олишларини қизиқарли машғулотга айлантиришда самарали воситаси ҳисобланади.

Таълим жараёнида АКТдан фойдаланиш, айниқса, мустақил таълим жараёнида ўқитувчилар учун алоҳида эътибор лойиқлиги, талабаларда эркин ижодий фикрлашни ривожлантиришга олиб келади. Тармоқ технологияларининг ривожланган усулларида фойдаланиш илғор педагогик тажрибаларни турли ўқув даргоҳлари ўртасидаги интеграцияни таъминлашга олиб келади.

Дарс жараёнида компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланиш ягона мақсад эмас, балки ёшлар дунёсини тушуниш, уларни англаб етишнинг, тўла ахборот беришнинг яна бир усулидир. У ёшлар билим олиши, меҳнат жараёнига ақл билан кириб бориши, индивидуал билим олиш фаоллиги даражаси, дунёқарашини кенгайтиришнинг замонавий усулидир.

Мамлакатимизда олий таълим тизимида АКТ ва бошқа техник воситалардан фойдаланаётган таълим муассасалари кўпайиб бормоқда. Ахборот технологиялари кенг тарқалиши турган гап. Бунда, муҳими, мазкур технологиялар учун контент, дастурий воситалар яратишдир. Контент ва дастурлар Сан-Франциско ёки Гонконгдаги мутахассислар томонидан ёзилган бўлиши шарт эмас, балки бизнинг миллий маҳсулот бўлмоғи ўзимиз учун муҳимдир. Таълим муҳим ғоявий таркибга эга. Ҳар қайси миллат унга ўз қизиқишларини қўшади. Шу нуқтаи назардан келажак таълим тизими контентлари ва дастурлар, бу - яна ахборот хавсизлиги ва ғоявий иммунитет масаласини ҳам кўндаланг қўяди.

АКТдан таълим жараёнида фойдаланиш – таълим беришда оптимал ва қулай шарт-шароит яратади, лекин у тегишлича услубий асосланган ва аниқ мақсадларга йўналтирилган бўлиши керак. АКТни шундай ҳолларда қўллаш керакки, у аниқ педагогик натижалар бериши тасдиқланганда ва уни ҳеч қачон талабалар вақтини беҳуда ўтказувчи компьютер эрмагига айлантириб қўйилмаслик керак.

Адабиётлар

1. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.ф.дисс.С.-Пб.-1993.
2. Парпиев А., Марахимов А., Ҳамдамов Р., Бегимқулов У., Бекмурадov М., Тайлоқов Н. Электрон университет. Масофавий таълим технологиялари. Олий таълим муассасалари учун / ЎзМЭ давлат илмий нашриёти. - Тошкент, 2008. 196- б.
3. Бегимқулов У. Олий таълим муассасаларининг ягона ахборот маконини ташкил этиш ва уни ривожлантириш истиқболлари. // “Халқ таълими” журнали. № 4, 2006. 4-7- б.
4. Ибрагимов И. Информационные технологии и средства дистанционного обучения: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений /Издательский центр “Академия”, 2007. - 336 с.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 21 март, ПҚ-1730-сонли “Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
6. Абдуманонов А., Алиев Р., Ботиров М., Карабаев М.Использование ИКТ в образовательном процессе примущества, проблемы и пути их решения. // Ta`lim texnologiyalar Ilmiy- uslubiy jurnal, № 3(59). Toshkent, 2016. 79-84- b.
7. Абдуманонов А., Муйдинов Ф. Облачные технологии – в образовательном процессе медицинских вузов // Международной научной конференции «Университетская наука: взгляд в будущее», посвященной 85-летию Курского государственного медицинского университет. 7 февраля 2020 г. -С.648-650
8. Абдуманонов А.А. Преподавание информатики и информационных технологий студентам медицинских вузов // Современное состояние медицинского образования, проблемы и перспективы – 2019: Материалы Второй Международной учебной конференции, Бухара, 12 апреля 2019 года. С.20-23

САМООБРАЗОВАНИЕ

Абдуманонов А.А., Олимова М. М.

Ферганский медицинский институт общественного здоровья. Багдадский районный отдел народного образования 31-школа.

Аннотация: Самообразования это, самостоятельной учебнопознавательной, научно-исследовательской деятельности у обучающихся «формируются такие важные компоненты творческой деятельности, как самостоятельный перевод знаний в умений, выявление новой логики и структуры проблемы исследования, способность к

самостоятельному комбинированию из известных способов деятельности нового, альтернативного подхода к поиску решения проблемы. Главная задача образования заключается в совершенствовании каждого студента как будущего квалифицированного специалиста, развитии его активности, инициативности, профессиональной мобильности, ответственности за свои поступки и выстраивание своей жизненной позиции.

Ключевые слова: самообразование, обучение студентов, новые педагогические технологии, процесс самореализации, информационно-коммуникационные технологии в образовании.

Необходимым условием для реализации успешной учебной деятельности является ее развитая гибкая структура. Преподаватели Ферганского филиала ТМА, наряду с традиционными методами передачи и проверки знаний, пользуются самыми современными педагогическими приемами, задействуют множество различных источников информации, пользуются средствами ИКТ.

По мнению Н.В. Фомашиной, самообразовательная деятельность — это систематическая, специально организованная, самодеятельная, контролируемая и оцениваемая самим субъектом познавательная деятельность, направленная на достижение личностных и общественно значимых образовательных целей и профессионального самоопределения студентов вузов. А.К. Громцева считает, что самообразование — это целенаправленная, управляемая самим учащимся познавательная деятельность, необходимая для совершенствования его образования [3]. Есть поговорка у нашего народа «Ўқиш бошқа, уқиш бошқа».

Образовательный процесс в вузе должен ориентироваться не на передачу как можно большего объема знаний обучающимся, а на формирование у них самостоятельности, мобильности, умения приспосабливаться к новым информационным и образовательным технологиям [1,2].

Важную роль в приобретении таких качеств играет самообразование студента, под которым понимают все виды приобретения знаний, формирования умений и навыков, связанные с самостоятельной работой занимающегося над изучаемым материалом. В настоящее время самообразованию уделяется большое внимание, ибо знания, полученные во время аудиторных занятий, нуждаются в закреплении, углублении в процессе самостоятельного изучения соответствующих вопросов учебной программы.

Цель самообразования перевести студента из пассивного потребителя знаний в активного их творца, умеющего сформулировать проблему, проанализировать пути ее решения, найти оптимальный результат и доказать его правильность. Иными словами, необходимо, чтобы студент научился плодотворно учиться. Это возможно при переводе всех студентов на

индивидуальную работу с переходом от формального выполнения определенных заданий к познавательной активности с формированием собственного мнения при решении поставленных проблемных вопросов и задач.

Самообразование студентов как условие качественной профессиональной подготовки рассматривается и в зарубежных странах. Например, в Британии в рамках системы непрерывного профессионального образования создан Институт образования взрослых, где существует такой блок обучения, как "умение заниматься самообразованием". В Англии значительное количество часов отводится на самостоятельную работу студентов. Результаты реформирования образования в развитых странах, общие направления Болонского процесса, позволяют определить все возрастающую роль самообразования как важнейшего условия развития личности, ее профессионального и жизненного успеха, а также ведущей задачей профессиональной подготовки студентов.

Последние годы и в Узбекистане тоже при подготовке учебных планов больше обращается внимание на самообразовательную и это видно в учебные часы около 50% выделена для самообразования.

Под самообразованием следует понимать специально организованную, самостоятельную, систематическую познавательную деятельность, направленную на достижение определенных личностно и общественно значимых образовательных целей: удовлетворение познавательных интересов, общекультурных и профессиональных запросов и повышение квалификации.

Смысл самообразования выражается в удовлетворении познавательной активности, растущей потребности в знании и умение в самореализации путём непрерывного образования.

Суть самообразования заключается в овладении техникой и культурой умственного труда, в умении преодолевать проблемы, самостоятельно работать над собственным совершенствованием.

Современных студентов в основном интересует то, что им может обеспечить в дальнейшем жизненный успех. Прежде всего, они мечтают работать за границей с целью более высокого материального благополучия. Это характеризуется интенсивным развитием произвольной памяти, возрастание умения логически обрабатывать материал для запоминания. Студенты становятся более организованными, все больше проявляется их преднамеренный характер, формируется способность к самообразованию, самостоятельно мыслить, рассуждать, сравнивать, делать относительно глубокие выводы и обобщения, развивается способность к абстрактному мышлению, к сложному аналитико-синтетическому восприятию окружающего мира

Таким образом, актуальность обозначенной проблемы связана с тем, что творческий потенциал, основанный на создании благоприятных условий для развития потребностей студентов в самообразовании, требует новых научно-методических и практических разработок.

Подготовка материалов для самообразования в ходе деятельности педагога занимает большие времена, потому что преподаватель должен разработать индивидуальные планы и материалы для обучения студента смотря с его потенциалом или получении тем или иными умениями для достижения цели.

В плане самообразования студента обязательно должен быть список результатов, которые должны быть достигнуты за определённый срок.

Для самообразования должны обеспечить соответствующие условия, без которых самообразовательная деятельность не может быть эффективной в полной мере.

1. Развитие позитивной мотивации студентов к профессионально ориентированной самообразовательной деятельности, стимулирующей избирательность и активность.
2. Обеспечение преемственности аудиторной и внеаудиторной деятельности, создающей условия их взаимодополнения и взаимопроникновения.
3. Использование потенциала содержания самообразовательной деятельности для расширения профессионального диапазона социального и личностного развития обучающихся [4].

Таким образом, педагогическое содействие самообразовательной деятельности студентов целесообразно осуществлять в учебно-педагогическом взаимодействии, основанном на субъект-субъектности с учетом:

- а) отраженного в содержании базового (изучаемого) материала, предъявляемого при осуществлении разных видов образовательной деятельности;
- б) создания условий для работы с материалом (заданиями) творческого характера;
- в) опоры на проектируемый уровень творческого мышления обучаемых;
- г) сущностных свойств и природ сообразности участников образовательного процесса.

Самообразование с помощью информационных технологий имеет целый ряд преимуществ перед традиционными способами обучения и облегчает поиск, подбор необходимой информации, улучшает способность обучаемого к анализу информации, вызывает у студента постоянное желание к самосовершенствованию, творчеству и инициативе [5].

С учетом динамически развивающихся информационных технологий следует учитывать требования, предъявляемые сегодня к новым информационным технологиям обучения, среди которых соответствие

основным принципам педагогической технологии. При подготовке к занятию с использованием ИКТ преподаватель не должен забывать, что это УРОК, а значит составляет план урока исходя из его целей, при отборе учебного материала он должен соблюдать основные дидактические принципы: систематичности и последовательности, доступности, дифференцированного подхода, научности и др. При этом компьютер не заменяет учителя, а только дополняет его для решения не решенных ранее в традиционной дидактике теоретически либо практически задач, а также их перевод в разряд средств подготовки и передачи информации студенту.

Студент не должен просто копировать информацию из Интернета и защищать свои доклады или поднести данные, а обдумывать каждую фразу, каждое слово из текста статьи и формировать свои мысли, свои творения.

Вот в чём заключается опасность доступности информации – информации навалом, доступ к ней свободный, а вдумчиво прочитать хотя бы часть из этого информационного океана под силу немногим.

Самообразование должен формировать навыки не только получения информации, а привравшая информацию на знании.

Поэтому самообразование – это система умственного и мировоззренческого самовоспитания, влекущая за собой волевое и нравственное самосовершенствование личности. Данная система регулируется субъектом самообразования и должна быть построена на основе систематизированных форм обучения, исключая шаблонный характер.

Таким образом, самообразование можно определить, как процесс и результат, направленный на самореализацию, личностное самоопределение, профессиональное становление, поскольку способствует совершенствованию профессиональной, интеллектуальной, творческой, волевой, эмоциональной, трудовой и мотивационной сфер человека, а также развитие базовых качеств человека – трудолюбия, ответственности, целеустремленности, настойчивости, организованности, силы воли и др.

Использование ИКТ при самообразовании – мощное средство для создания оптимальных условий работы для получения знания и умение, но оно должно быть целесообразно и методически обосновано. ИКТ следует использовать только тогда, когда это использование дает неоспоримый педагогический эффект и ни в коем случае нельзя считать применение компьютера данью времени или превращать его в модное увлечение.

Знания, приобретаемые путем самообразования, очень прочно сохраняются в памяти и продуктивно реализуются в трудовой деятельности.

Литературы.

1. Бекоева М.И., Течиева В.З. Самообразование студентов как важная педагогическая проблема // Nauka-rastudent.ru. – 2015. – No. 11 (23)

2. Зекрина Р.Т. Роль самообразования в совершенствовании мастерства педагога
3. Суханов А. В. Самообразование как фактор формирования и развития личности студента-юриста // Молодой ученый. — 2010. — №9. — С. 273-276.
4. О.Л. Карпова, В.А. Анисимова Самообразование студентов ВУЗА как условие качественной профессиональной подготовки // Педагогика и психология профессионального образования
5. Абдуманонов А. А. Современные технологии обучения медицинских предметов с использованием информационно-коммуникационных технологий // Материалы конференции отражают результаты исследований, посвященных инновациям в образовании и медицине и охватывают широкий спектр образовательных и научных направлений. 2016. – С. 13.
6. Абдуманонов А., Алиев Р., Ботиров М., Карабаев М.Использование ИКТ в образовательном процессе примушества, проблемы и пути их решения. // Ta`lim texnologiyalar Ilmiy- uslubiy jurnal, № 3(59). Toshkent, 2016. 79-84-b.

ИКТ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНЫМ ПРОЦЕССОМ ВУЗА

Абдуманонов А.А.

Ферганский медицинский институт общественного здоровья.

Автоматизированная информационная система управления учебным процессом в основном решают задачи конкретного учебного заведения с учетом специфики организации учебного процесса, в том числе оптимизации и управления документооборотом. В условиях реформирования системы высшего профессионального образования и постановки задачи повышения качества образования возрастает потребность в разработке модульной иерархической автоматизированной информационной интегрированной системы на основе единого подхода к проектированию подсистем.

Ни для кого не секрет, что с каждым годом объем информации, который приходится обрабатывать человеку, стремительно растет. Этот процесс неизбежно сказывается на ежедневной деятельности специалистов образовательного учреждения, и от того, как организована в нём работа с массивом данных, зависит и качество, и скорость выполнения множества рутинных операций.

Система комплексной автоматизации образовательного учреждения «Electron JURNAL» - это современный программный продукт, позволяющий автоматизировать процессы, связанные с управлением деятельности высших учебных заведений (Рис.1).

Работа над продуктом «**Electron JURNAL**» продолжалась на протяжении 2 лет и активно ведется в настоящее время. Наша задача - объединить в одном продукте:

- низкие затраты на поддержку и обслуживание;
- низкие системные требования к серверному и клиентскому оборудованию;
- простой и доступный рядовому пользователю интерфейс;
- гибкость настройки;
- современную технологическую архитектуру;
- высокое быстродействие;
- доступную стоимость для любого учебного заведения.

Обзор существующих АИС управления учебным процессом в системе высшего профессионального образования показал, что в последние годы вузами активно разрабатываются АИС, ИС, АРМы и др. для управления учебным процессом. Однако анализ структуры и организации АИС различных вузов позволяет сделать вывод, что университетские системы управления учебным процессом не имеют общих стандартизированных подходов к построению в условиях перехода высшего профессионального образования.

АИС управления учебным процессом «**Electron JURNAL**» отвечает следующими требованиями современного управления учебным процессом вуза:

- модульное построение АИС, обеспечивающее наращиваемость и заменяемость модулей системы;
- единая технологическая база на основе единого ядра в рамках информационного пространства вуза;
- единая БД контингента вуза, исключающая дублирование информации;
- оперативный доступ к единой БД с разделением прав пользователей;
- формирование электронного портфолио студента и его сопровождение в БД при образовании;
- формирование банка данных по документообороту вуза;
- формирование рейтинга студента по технологическим картам дисциплин в соответствии с стандартами В МИ образование;




Рис.1. АРМ преподавателя.

В настоящее время система «Electron JURNAL» активно используется в Ферганском филиале Ташкентской медицинской академии.

С системе «Electron JURNAL» создана единая информационная система ВУЗа включает в себя развитие и совершенствование единой телекоммуникационной среды, обеспечивающие надежный и оперативный обмен информацией между подразделениями ВУЗа. В системе каждый пользователь имеет свое автоматизированное рабочее место (АРМ) включая студента, преподавателя, деканата, кафедру и администрацию для получения оперативных данных об успеваемости студентов, посещаемости на занятиях и др... (рис. 2.).




Рис. 2. АРМ Деканат.

На основании сведений из электронного журнала может быть собрана итоговая информация по аудиторной нагрузке преподавателей, промежуточный рейтинг обучающихся, преподавателей и дисциплин. Автоматически формируется все отчетные формы ведомостей по утверждённому уставу рейтингового контроля.

Система работает по принципу “клиент-сервер”. Клиентской части может быть использована операционная система Windows, сервером может являться компьютер под управлением ОС Linux, Windows, FreeBSD и др. Базовым языком программирования является Delphi. Система управления базами данных опирается на MySQL.

Инструментальные средства разработки системы, используемые нами, также являются свободными. Ядро системы разрабатывалось и тестировалось на сервере и клиентском рабочем месте под управлением ОС Windows. Таким образом, становится возможным полнофункциональная работа программного комплекса без дополнительных капиталовложений в приобретение программного обеспечения.

Литературы

1. Падерин Александр Владимирович Использование информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе вуза // Ученые записки университета Лесгафта. 2016. №8 (138).

2. Чернухина Н. В. Информационно-коммуникационные технологии в образовательном процессе вуза // Концепт. –2014. –Спецвыпуск №30.
3. Шапиева, М. С. Использование информационных технологий при обучении в системе образования вуза // Молодой ученый. — 2014. — № 5 (64). — С. 572-574.

ЎҚУВ ЖАРАЁНИГА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Бакиров Т., Алимов З.

Фарғона давлат университети математика кафедраси ўқитувчилари

Ахборотлаштириш жараёни тез суръатлар билан ўсиб бораётган ҳозирги даврда таълим соҳасида ахборот ресурсларини ташкил этиш ва таълимда фойдаланишга бўлган талаб кун сайин ортиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ахборот технологиялари соҳасида таълим тизимини янада такомиллатириш, илмий тадқиқотларни ривожлантириш ва уларни IT-Industriya билан интеграция қилиш чоратадбирлари тўғрисида» 2020 йил 6 октябрдаги ПҚ –4851-сон қарори таълим соҳасида ахборот технологияларнинг ўқитилишини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш, меҳнат бозорининг малакали IT мутахасислариг бўлган талабини қониқтириш, шунингдек 2017–2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид белгиланган давлат дастури замонавий ахборот технологияларини жорий этиш ва ундан фойдаланиш, жаҳон ахборот ресурсларидан баҳраманд бўлишни кенгайтиришга замин яратади. Таълим тизимида электрон таълимни жорий этиш биринчи навбатда жамиятнинг интеллектуал салоҳиятига, жумладан, таълим соҳасининг ахборотлашувига, ахборот таълим ресурсларини ишлаб чиқишга боғлиқ. Дунёнинг кўплаб мамлакатларида таълимни ахборотлаштириш, электрон таълимни жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Электрон таълимни ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш йўллари изланмоқда, таълимда янги ахборот технологияларини жорий этиш таълим соҳасидаги ислохотларнинг диққат марказидан ўрин олган.

Коронавирус пандемияси даврида таълимни масофадан олиб бориш, онлайн дарсларни олиб боришга зарурат туғилди. Қисқа муддат ичида ташкилий ишлар олиб борилди ва маълум бир натижаларга эришилди. Лекин онлайн дарсларни олиб боришда кўплаб камчиликларга дуч келинди. Асосий дарс берувчи ўқитувчилар контингентида АКТ билан ишлаш муаммолари юзага келди. Шунингдек таълим олувчиларда ҳам интернетдан фойдаланиш кўникмалари камлиги таълим сифатига салбий таъсир кўрсатди.

Таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциясининг асосли механизмларини ишлаб чиқиш, уни амалиётга жорий этиш, ўқишни, мустақил билим олишни индивидуаллаштириш, масофавий таълим тизими технологияси ва воситаларини ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш, янги педагогик ҳамда ахборот технологиялари асосида электрон таълимдан фойдаланган ҳолда талабалар ўқишини жадаллаштириш долзарб вазифаларга киради. Ўқув жараёнини электрон таълим асосида ташкил этиш, ўқув материалларини баён этишни такомиллаштириш тамойилларига маълум ўзгартиришлар киритиш зарур бўлади. Жараёнига замонавий ахборот технологияларини жорий этиш ва улардан фойдаланиш мақсадга эришишдаги энг самарали йўл ҳисобланади. Таълим тизимига электрон ахборот таълим технологияларини татбиқ этиш, таълим муассасаларининг моддий техник базасини ҳолатини танқидий баҳолаш ва такомиллаштиришдаги асосий вазифалар қуйидагилардан иборат:

1. Электрон таълимни ўқув жараёнига татбиқ этиш учун лозим моддий техника базасини янада кучайтириш;

2. Ўқув жараёни учун электрон таълимга мўлжалланган таълим технологияларини камчиликларини бартараф этиш;

3. Талабаларни замонавий электрон таълим технологиялари соҳасида билим ва кўникмаларини шакллантиришни кучайтириш;

4. Электрон таълимни жорий этиш орқали таълим тарбия ва ўқитиш жараёнининг самарадорлигини ошириш.

Электрон ахборот ресурслари таълимга оид ахборотларни йиғиш, сақлаш, узатиш, қайта ишлаш усул ва воситалари мажмуидан иборат бўлиб, у таълимга оид турли ахборотларнинг яратилишини белгиловчи ички ва ташқи омилларга боғлиқ:

Ички омиллар-бу ахборотларнинг яратилиши, турлари, хоссалари, ахборотлар билан турли амалларни бажариш, уларни жамлаш, узатиш, сақлаш ва ҳ.к.

Ташқи омиллар-бу электрон таълимнинг техника-ускунавий воситалари орқали ахборотлар билан турли вазифаларни амалга оширишни билдиради.

Электрон таълимдан фойдаланиш, улар билан мулоқотда фойдаланувчиларнинг кўникма ва малакаларига боғлиқ. Замонавий телекоммуникация воситалари имкониятлари жуда кенг тизим бўлиб, унга маълум бўлган компьютер, мультимедиа воситалари, компьютер тармоқлари, Интернет каби тушунчалардан ташқари қатор янги тушунчалар ҳам киради. Буларга ахборот тизимлари, ахборот тизимларини бошқариш, ахборотларни узатиш тизимлари, маълумотлар омбори, маълумотлар омборини бошқариш тизими, билимлар омбори кабилар мисол бўлиши мумкин.

“XXI аср-ахборотлаштириш асри” да таълим соҳасига электрон таълимни жорий этиш, ҳар бир таълим муассасасида ўқитиш ва ўқиш жараёнининг, таълим муассасаси бошқарилишининг, таълим муассасаси бўлинмаларини

ҳамда таълим муассасаси фаолияти муҳитининг ахборотлаштирилишини талаб қилади.

Таълим муассасида электрон таълим муҳитини ташкил этиш босқичлари психологик ахборот муҳитини яратишдан бошланади.

Технологик ва илмий натижалар, яратилган дастурий маҳсулотлар асосида замонавий воситалар ва методлардан фойдаланишга эҳтиёж шакллантирилади. Бунда ҳар бир таълим муассасида индивидуал ва маслаҳат машғулотлар асосида педагогларни мустақил ва компьютер таълими тизимини ташкил этиш керак.

Электрон таълимни жорий этишда қуйидагиларни инобатга олиш керак бўлади:

- электрон таълимни жорий этишга педагогик жамоаларнинг етарли тайёр эмаслиги;
- электрон таълим имкониятлари ҳақида тасаввурларнинг озлиги, уларни қўллаш бўйича методик ишланмаларнинг камлиги;
- электрон таълимда фойдаланиладиган компьютер технологиялари воситаларининг қимматлиги;
- электрон таълим бўйича мутахассисларнинг етишмаслиги.

Электрон таълимни жорий этиш кенг маънода таълим соҳасини методология, ўқитиш мақсадларининг психологик-педагогик тадбиғига йўналтирилган янги ахборот технологиялари воситаларини самарали фойдаланиш ва қайта ишлаш амалиёти билан таъминлаш сифатида қаралади. Электрон таълим масофали ўқитиш тизимининг тараққиёти учун база бўлиб хизмат қилади. Электрон таълим жараёнида таълим тизимида янги ахборот технологиялари воситаларидан кенг кўламда фойдаланиш амалга оширилади.

Шу билан бир қаторда таълим сифатини бошқаришда “Электрон ахборот таълим ресурслари”нинг ўрни ҳозирги даврда жуда аҳамиятлидир. Таълим жараёнида фойдаланилаётган ўқув воситалари, электрон ахборот таълим ресурслари, электрон китоблар, электрон ўқув қўлланмалари ва шу каби таълим бериш манбаларидир. Электрон ахборот-таълим ресурси-ўрганиш ва таълим бериш учун қулай тарзда шакллантирилган, илмий жиҳатдан тизимлаштирилган, турли ёшдаги ва таълим олиш даражасидаги ўқувчи ва ўқитувчиларга мўлжалланган, маълум бир фанни ўрганиш учун мантиқий кетма-кетликда шакллантирилган электрон ахборот манбалари мажмуасидир. Электрон ахборот таълим ресурслари таълим оловчиларга ўрганилаётган объект устида ижодий изланиш олиб боришга, уни ўзлаштириш жараёнида юзага келувчи ўзаро боғлиқликларни тизимли ўрганишга ёрдам беради. Мазкур муҳит таълим берувчи ва таълим оловчиларга жамоа бўлиб ишлаш имкониятини яратади Электрон ахборот таълим ресурси ўқув жараёнига мослашувчан бўлади. Пассив ҳолатда бу қўшимча ўқув материали ҳажмининг кўплигида намоён бўлади. Шу билан бирга ресурс таклиф этаётган

материални кўчириш, уни қайта ишлаш, олинган материал базасида янги ўқув материални тайёрлаш имконини берувчи воситалар тўплами.

Электрон ахборот таълим ресурсининг асосий ташкил этувчилари қуйидагилар: 1. Фан бўйича назарий материаллар тўплами. Дарсликнинг электрон нусхаси. 2. Машқ ва масалалар тўплами. 3. Тест. Дарсликда берилган мавзулар кесимида тест WEB форматда яратилади. 4. Сўровнома. Мазкур блокда фанни ўрганиш учун терминологик луғат жойлаштирилади. 5. Дарс мавзусини тўлдирувчи қўшимча материаллар. 6. Дидактик материаллар, плакатлар, роликлар. 7. Медиа файллар. 8. Фотогалерея.

Замонавий электрон ахборот-таълим ресурслари қуйидаги талабларга жавоб бериши зарур:

Дидактик талаблар- амалдаги давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурларига тўла мувофиқ бўлиши зарур.

Услубий талаблар - ўқув материални ўзлаштириш ва қайта ишлаш имкониятини бериш, олинган натижаларни таҳлил қилиш учун график интерпретациялардан фойдаланиш, таълим берувчига дарсни мустақил дарс кўринишда ўтказишга шароит яратиш, топшириқларни мустақил бажаришга шароит яратиш, ўқув материални системали, мантиқий кетма-кетлигини, модуллилигини ва улар орасидаги узвийликни таъминлаш, ўқитувчига таълим олувчилар ўзлаштирган билим даражасини турли хил мураккабликдаги назорат дастурлари ёрдамида назорат қилиш имкониятини бериш зарур.

Функционал талаблар - мазмун қоғоз вариантдаги китобга ўхшаш тарзда, калит сўзларни қидириш имконияти мажуд, фанни тўлдирадиган қўшимча маълумотлар билан бойитилган, мослашувчанлик-таълим олувчининг ўзлаштириш даражасига боғлиқ равишда, ўтилган мавзунини қайтариш, устида ишлашни индивидуал темпда амалга ошириш, кўптерминалли-статик маълумотларни таҳлил қилиш имконияти мажуд, дарсликдан фойдаланиш частотаси, тест натижалари, тўғри-нотўғри жавоблар, ўқувчиларнинг қайси мавзунини ёмон ўзлаштираётганлигини таҳлил қилиш имкониятлари, интерактивлик-табиий мулоқотни имитациялаш, индивидуал таълим олишга шароит яратиш имкониятининг мажудлиги, юқори сифатли кўргазмалиликка эга бўлиши.

Психофизиологик -ҳар бир таълим олувчининг фикрлаши, дунёқараши, тақдим этиладиган ўқув материални қабул қилиш ва ўзлаштириш даражасига асосан кўриш, эшитиш ва тасаввурни шакллантирувчи услублардан фойдаланиш.

Эргономик талаблар -компьютер экранида акс эттириладиган ўқув материал таълим олувчига аниқ, равшан, тез ўзлаштирилиши ва тушунарли бўлиши, ишлашда психологик қулайликни таъминлаши лозим.

Техник талаблар- ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланишининг замонавий талабларига мос бўлиши шарт.

Электрон ахборот таълим ресурси мақсадга йўналтирилган, шахснинг ривожланишига мўлжалланган, таълим мақсадига эришиш учун педагогик методлар ва технологияларнинг услубий изчилигига эга бўлган педагогик йўл-йўриқлар асосида тузилади. Ўқув материалнинг жойлаштирилиши тузилмаси шунга мос тарзда амалга оширилади ва таълим бериш сифатини ошириш учун хизмат қилиши керак.

ХУЛОСА ВА ТАВСИЯЛАР

Инновацион технологияларнинг қўлланилишида билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришнинг психологик-педагогик асослари ўрганилди. Таълим самарадорлигига эришишда инновацион технологиялар ахамияти ҳамда ўқув жараёнида таълим технологияларидан фойдаланишда профессор-ўқитувчилар инноваторлиги - инновацион жараёнларда фаол иштирок этиш қобилиятига эга бўлган педагогларга бўлган эҳтиёжни таъминлаш учун педагогик ҳодисалар ва илғор педагогик тажрибани ўрганишга эътибор қаралилиши зарур. Шу билан бирга ахборот-коммуникацион технологияларининг қўлланилиши муаммоларини ўрганилди.

Таълим сифатини оширишда ўқув жараёнига инновацион технологияларини жорий этиш самарародлигига эришишда қўйидаги чора-тадбирлар амалага оширилиши мақсадга мувофиқ:

1. Таълим муассасаларини энг камида тўртинчи авлодга мансуб ҳисоблаш техникаси билан таъминлашни йўлга қўйиш ва компьютерларни мультимедиа воситалари билан жиҳозлашга алоҳида эътибор бериш лозим.

2. Профессор-ўқитувчилар учун (педагогик технологиялар) инновацион таълим трансфери маркази фаолиятини йўлга қўйиш, мутахассислар томонидан мунтазам семинар-тренинглар ташкиллаш.

3. Ўқитишнинг ахборот технологияларини ишлаб чиқувчи илмий-методик марказ тузиш ва унда тажрибали методистлар ва малакали дастурчиларни биргаликдаги фаолиятини ташкил этиш лозим.

4. Ахборот-коммуникацион технологиялар воситаларидан фойдаланиш асосида масофадан ўқитиш тамойилларини, электрон таълимни таълим жараёнига жорий этиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Тошкент, “O`zbekiston”, 2017 йил, 488 бет.
2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли фармони.
3. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000. -52 б.

4. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. - ТДПУ, 2004.
5. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар.- Т.: Истеъдод, 2008.
6. <http://gov.uz>
7. <http://Ziyonet.uz>

КРЕДИТ – МОДУЛ ТИЗИМИДА МАВЗУНИ САМАРАЛИ ЎЗЛАШТИРИШ УЧУН МУСТАҚИЛ ТОПШИРИҚЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Раҳматуллаев И. Р., Якубов И. Ю.

Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт институти “Кимё ва биология” кафедраси доцентлари

Маълумки, анъанавий ўқитиш тизимида ўқув жараёнининг асосий ташкилотчиси, маълумот беришнинг бош манбаси ўқитувчи хисобланади. Шунингдек, аудитория машғулоти ўқув жараёнининг асосий қисмини қамраб олади.

Кредит – модул тизимида ўқитувчининг юқоридаги функцияси анча пасайиб талаба ўқув жараёнининг марказига кўтарилади ва у мустақил таълим олиш муҳитига тушади. Мазкур тизим таълим сифатини ошириш билан бирга ўқитувчи ва талаба ўртасидаги муносабатни яқинлашиб, мустақамланишига омил бўлади.

Шу билан бирга бу тизимда аввало Олий таълим муассасасида фаолият кўрсатаётган ўқитувчи ўзининг билим, кўникма ва малакасини талаб даражасида шакллантиришга эътибор қаратиш керак бўлади. Бунда ўқув муассаса ўқув моддий техника базасини етарли даражада таъминлаш, ўқув материаллари, талабаларнинг мустақил билим олиш маданиятини шакллантириш билан уларнинг замонавий янгиликларни қабул қилиш, кўникма ва махоратларини ошириш талаб этилади.

Кредит-модул тизимида ҳар бир профессор ўқитувчи ўзининг ўтадиган фани бўйича фан дастурини яъни «Силлабус» ни тайёрлаб уни семестр бошидаёқ талабаларга тақдим этади. Дастурда шу фаннинг мақсадлари, вазифалари, талабанинг касбий фаолиятидаги ахамияти, берадиган малака ва кўникмалари, семестр давомида ўрганиладиган мавзулар рўйхати, дарслик ва адабиётлар шунингдек баҳолаш мезонлари ҳақидаги маълумотлар берилади.

Кредит тизимида дарслар интерфаол шаклида ўтилиб, ҳафта давомида талабани мустақил ишлашга, ўқиб ўрганишига йўналтирилади. Ҳафта охирида талабанинг рейтинги машғулоти натижалари бўйича жамланиб, аниқланилади. Талабанинг яхши таёрланмасдан ҳафтадаги балининг паст бўлиши унинг ўртача баҳосининг тушиб кетишига олиб келади. Бундай шароитда талаба маъруза ва амалий машғулотларга кирмай имтихондан таниш саволлар тушиб тасодифан ўтиш ҳолатлари бўлмайди. Фан бўйича маъруза машғулотларининг

мавзулари ва мазмуни ўқув модули доирасида мантиқий кетма - кетликда келтирилади.

Амалий машғулотлар (лаборатория) мавзулари рўйхати, уларнинг ўтказиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар, технологиялар, вазиятли масалалар вариантлари , «кейс»лар, фаол ва интерактив усуллар, шунингдек лаборатория ишларининг рўйхати, мазмуни, мақсади, ишлатиладиган жихоз ва ашё (реактив) лар каби маълумотлар кўрсатилади.

Ушбу юқорида келтирилган кўрсатма ва тавсияларнинг аксарияти асосан аудитория шароитида олиб бориладиган ишлар бўлиб уларнинг амалга оширилиши беъвосита ўқитувчи иштироки ва назорати остида бажарилади.

Биз қўйида талабаларнинг шу юқорида кўрсатилган назарий ва амалий топшириқларни яхши ўзлаштириб, мустахкамлашга, уни кўникмага айлантирилишида муҳим ўрин тутган мустақил топшириқлар ва уларни амалга ошириш йўллари ҳақида фикр юритмоқчимиз.

Биламизки, талабанинг мустақил ишлари профессор-ўқитувчилар томонидан аудиторияда талабаларга бериладиган мавзулардан ташқари ўқув модулининг мазмунига таълуқли ва тегишли мавзулар, масалалар, маълумотларни мустақил ўрганиш ва кўникма хосил қилишга қаратилган муҳим таълим жараёнидир.

Бунда талаба аудиториядан ташқари вақтида ўқитувчининг бевосита ва билвосита раҳбарлиги ҳамда назоратида муайян ўқув ишларини мустақил равишда бажариш учун билим, кўникма ва компетенцияларини шакллантириш ҳамда ривожлантиришдан иборатдир.

Мустақил машғулотлар жараёнида иш дастурида кўрсатилган талабалар томонидан бажарилиши зарур бўлган ишлар (глоссарийлар, рефератлар, вазиятли масалалар, муаммоли маърузалар, тестлар, қисқа услубий қўлланмалар) берилади.

Бизнинг иш фаолиятимизда, талабалар онлайн ўқиш жараёнида модульдаги берилган мавзу мазмунини яхши ўзлаштиришда айнан улар учун берилган глоссарийлар, вазиятли масалалар, тестлар тузиш ва режадаги мустақил иш саволларига қисқа-лўнда жавоблар ёзишларини назорати орқали улар мавзулар мазмунини яхши ўзлаштирганликлари кузатилди. Масалан, “Аминокислоталар алмашинуви” мавзуси бўйича берилган глоссарий тузиш топшириғини оладиган бўлсак, бунда талаба дастлаб оқсиллар таркибига кирувчи барча аминокислоталарни эсга олишига тўғри келади ва шу бўйича иш бошлаб 20 та аминокислотани таркибию тарифини ёзиб чиқади.

Бу иш талабани шунчаки вақтини олмай балки тузилиши унитилган бўлса эсланади яъни таркиби, тузилиши, қайси синфга мансублиги, организмдаги алмашинув жараёнлардаги ва бошқа бажарадиган функциялари ёки унинг ўзгариши каби қатор хосса – хусусиятларини келтириш билан айнан шу аминокислата ҳақидаги малумотлар мустахкамланади. Албатта глоссарийга

ёзилган жавобнинг қай даражада бўлиши талабанинг шу тушунча ёки ибора тўғрисида қанчалик билим ва маълумотларга эга бўлишига боғлиқ бўлади. Тўлиқроқ маълумотларни келтироқчи бўлса албатта китоб қарашга тўғри келади.

Бу эса ўз ўрнида материални яна бир бор такрорлаш, эса олиш хиссобида ўзлаштирилишни яхшироқ бўлишига имкон беради.

Бунинг яна бир ижобий томони шундан иборат бўлдики, бунда ҳар бир талаба ўзи мустақил, ўзининг тушуниши ва фикр мулохазаларидан келиб чиққан ҳолда жавоб ёзганлиги учун ҳам мавзунини анча яхши тушуниб етишларига сабаб бўлди деб айтиш мумкин. Бунга офлайн дарслар бошлангандаги савол-жавобларда ҳам ишонч ҳосил қилдик.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТАЛАБАЛАР НИГОҲИДА (АНОНИМ СЎРОВНОМА АСОСИДА)

Ғаниев А.Ғ., Ғофуров А.А., Тешабоев У.М.

Андижон давлат тиббиёт институти

Сўнги йилларда ривожланган ахборот-таълим муҳитини яратиш мақсадида, компьютерлаштиришдан ахборотлаштиришга кетма-кет қадамлар билан барқарор, глобал тенденция кузатишмоқда, [1,2] мақсадга мувофиқ усул сифатида замонавий Интернет технологияларидан кенг фойдаланган ҳолда сифатли таълим олишмоқда. Мисол учун, ихтисослашган очиқ университетларнинг пайдо бўлиши (Британия очиқ университети, Каталон очиқ университети ва бошқалар). Ушбу тренинг шакли кенг имкониятлар яратади, янги маълумотларга мувофиқ барча турдаги электрон нашрларга кириш ва технологиялар, шунингдек, ўқув материалларини уларнинг фаолиятига қараб фарқлаш, индивидуал қобилиятлари, ўзларининг таълим ва касбий малакаларини ошириш бўйича сўровлари даражаси ортмоқда. [1,3,4].

Шунга қарамай, тан оладиган ўзбек тадқиқотчиларини таълими жуда кўп сонли хорижий нашрларга ва масофадан бошқариш воситаларининг жозибдорлигига қарамай [5], ҳар бирининг ўзига хос хусусиятлари мавжудлигини тан олмаслик мумкин эмас, чунки. маълум бир таълим муҳитининг ўзига хослигини олдиндан белгилаб берадиган алоҳида йўналишдир.[6,7]. Мисол учун фақат тиббиёт олий ўқув юрти электрон технологиялар билан шуғулланиши мумкин эмас, чунки тиббий амалиёт нафақат аниқ нарсаларни ўз ичига олади балки илмий билимлар, психологик кўникмалар, гуманистик қадриятлар ва ҳолда қўлга киритиб бўлмайдиган тегишли амалий кўникмалар амалий машғулотлар бўлмаган тақдирда ўқитувчи билан бевосита алоқада бўлади [3,5,7]. Буюк рус ёзувчиси Л.Н. Толстой айтганидаек, "Тарбия ва таълим ажралмас. Сиз билим бермасдан туриб таълим бера олмайсиз, барча билимлар тарбия асосида қурилади"[7].

Шунинг учун ҳам олий тиббиёт мактабининг муҳим вазифаларидан бири замонавийдан кенг фойдаланилганда қулай академик муҳитни яратиш, ахборот технологиялари классик машғулотлар билан биргаликда шакллантириш, бундай шароит нафақат имкониятлар беради балки ҳар бир талабанинг ижодий салоҳиятини ривожлантириш, шунингдек, анъанавий камчиликлардан сақланиш, таълим, мустақил бўлиш қобилиятларини эгаллашга бўлган қизиқишни ошириши мумкин [2,4]. Бу охир-оқибат тиббий таълим юқори сифатини, кейинчалик эса тиббиёт самарадорлигини ошириш билан аҳолига ёрдам беради.

Тадқиқот мақсади: тиббиёт олий таълим муассасаларида, талабалар нуқтаи назаридан келиб чиққан холда, масофадан бошқариш тизими самарадорлигини баҳолаш.

Материаллар ва тадқиқот усуллари Президент фармонида мувофиқ коронавирус инфекцияси эпидемияси пайтида Андижон вилояти ҳудудида, Андижон давлат тиббиёт институт 2020 йил апрел ойидан бошлаб, масофадан ўқитиш тизимига ўтказилди. Ушбу жараён давомида, 120 нафар талаба ўртасида аноним сўров ўтказилди. Сўровномада 31 та ёпиқ саволлар мавжуд бўлиб, қабул қилинган маълумотлар тегишли замонавий статистик ҳисоблаш йўли билан кўриб чиқилди [7].

Тадқиқот натижалари ва мунозарада маълум бўлишича, сўровда қатнашган талабалар ёшига қараб тақсимланиш қуйидагича бўлган: 18-19 ёш - 29,2%, 20-21 ёш - 58,3%, 22-23 ёш - 6,0%, 24-25 ёш - 4,0%, 26-29 ёш - 2,5%. Уларнинг 20,0% и 1-курсда, 20,0% и 2-курсда ва 60,0% и 3-курсда ўқишга қабул қилинган. Ўрганилган когортада 68,8% аёллар устунлик қилди.

Сўров натижаларига кўра, сўралган талабаларнинг (63,0%) Андижон давлат тиббиёт институтда ўқиш нуфузли ҳисоблайди. Қолган талабалар яъни 32,0% обрўли бўлмаганидан ҳам кўра обрўлироқдир деб жавоб берган; 4,4% қарама-қарши нуқтаи назарга эга; 0,6% ишонади бу, аксинча, обрўли эмас. Шундай қилиб, олинган Маълумотлар натижаларга тўғри келади Андижон институт доимий равишда расмий ва мустақил имтиҳонлар Ўзбекистоннинг 10 та энг яхши институтларидан бири.

Сўров натижаларига кўра, талабаларнинг 67,9% ижобий жавоб берган, улар институтда ўқишга қизиқиш билдирадими ёки йўқми деган саволга жавоб берганларнинг 42,0% жуда қизиқишларини билдирган. Бу етарлича юқори билим мавжудлиги ҳақидаги хулосани тасдиқлайди кўпчилик талабалардан ўрганишга қизиқиш.

Келажакдаги касбни танлашнинг энг муҳим сабабларини аниқлаш мақсадида биз қуйидаги рейтинг усулини қўлладик. Даражаси бўйича талабалар учун касбни эгаллаш истаги муҳим эди шифокор (100 талабага 86,6), ундан кейин ишга жойлашиш имкониятлари институтни тугатиш (100 га 36,1), сўнгра институтнинг шўхрати ва обрўси (100 га 21,8), ота-оналарнинг талаблари (100 киши бошига 17,0), қизиқарли талабалик ҳаёти (100 киши

бошига 16,0). Юқори ўқитиш сифати охириги ўринда (100 дан 15,1). Талабалардан бири ҳал қилувчи момент "арзон ўқув тўловлари ва" деб ёзган интернетдаги яхши шарҳлар. "Берилган жавоблар орасида қуйидаги вариант ҳам бор эди: «Мен хоҳлайман ҳамма одамларга яхшилик қилишни» деган саволга максимал даражада ижобий жавоб берилганлиги аниқланди келажакдаги касбни танлашда энг муҳим мотивацион омил сифатли бўлган талабалар орасида Андижон давлат тиббиёт институтда ўқишнинг нуфузи қайд этилди. ўқитувчилик (97,0%) ва касбни эгаллашга интилиш (85,7%). Минимал рақам ушбу нуқтаи назарни бирлаштирган талабаларнинг (33,3%) одамлар орасида қайд этилган ота-оналарнинг илтимосига биноан институтга қабул қилинганлигини айтишган.

Талабаларнинг таълим фаолияти ҳам, уларнинг хулқ-атвори муносабати ҳам, кўп жиҳатдан уларнинг келажакдаги моҳиятини англаш даражаси билан боғлиқ профессионал фаолият, талабалардан қанчалик яхши эканлиги сўралганда улар унинг мазмунини тушунишмади. Олинган маълумотлар 3-курс талабалари 1-курс талабаларига нисбатан келажак моҳиятини анча етук идрок этишади касбий фаолият, учинчи курс талабаларининг 75,6% ва биринчи курс талабаларининг 51,0% танловининг тўғрилигига аминлар.

Корреляцион таҳлил натижасида ўртача кучнинг тўғри чизиғи ўрнатилди келажак касбингиз мазмунини курс билан тушуниш ўртасида ($r_{xy} = 0.327$; $p < 0.05$), ёш ($r_{xy} = 0.401$; $p < 0.001$), академик кўрсаткич ($r_{xy} = 0.365$; $p < 0.05$), илмий ишларда қатнашиш доиралар ($r_{xy} = 0.327$; $p < 0.05$).

Ҳамма талабалар ҳам институтда синфдан ташқари ишларда қатнашиш учун вақт топа олмайди. Бу ўқув жараёнининг қатъий жадвали туфайли ва шаҳар бўйлаб транспорт ҳаракатлари жуда кўпайганлиги сабабли талабаларнинг шаҳар бўйлаб бир ўқув биносидан бошқасига боришга кийинчилик тўғдиради. №1 таблицада ўқувчиларни келажакдаги касбининг мазмунини тушунишига қараб тақсимлаш институтнинг синфдан ташқари ишларида қатнашиш тўғрисида маълумот берилган.

Жадвал 1.

Талабаларнинг келажакда ўз касб мазмунини институтнинг синфдан ташқари ишларида қатнашиш тушунчасига қараб тақсимланиши (%)

| Жавоблар | Институтдаги синфдан ташқари машғулотлар турлари | | | | | Жами |
|---------------------------|--|------------|-------|-------------------|---------|-------|
| | Анжуманлар | Тўгараклар | Спорт | Талабалар хайъати | Кўнгили | |
| Танловга ишончим комил | 65,8 | 62,1 | 58,2 | 100,0 | 60,5 | 59,1 |
| Ноаниқ вакиллик | 29,4 | 27,7 | 29,8 | | 30,4 | 28,9 |
| Шубҳа | 6,0 | 8,7 | - | | 9,1 | 5,6 |
| Ўйламадим | - | - | 12,0 | | - | 2,9 |
| Муҳими қабул қилиш таолим | 2,8 | 1,5 | - | | - | 2,5 |
| Жами | 100,0 | | | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

Маълум бўлишича, энг фаол талабалар келажакдаги касбининг мазмунини тушунишда ўзларига ишонадилар. Уларнинг 65,8% нафари анжуманларга 62.1% - илмий тўғаракларга, 58.2% - спорт сексияларига, 100% талабалар кенгаши йиғилишларига қатнашадилар ва 60,5% ихтиёрий фаолият билан шуғулланадилар. Аксинча, умуман олий маълумот олиш муҳимроқ бўлган талабалар асосийси, институтни тугатиш, синфдан ташқари ишларда минимал даражада қатнашиш деб ўйлашади.

“Келажакда сиз масофавий таълим тизимининг элементларидан фойдаланиш имкониятини қандай баҳолайсиз?” деган саволга берилган жавоблари қуйидагича тақсимланди. Сўровда қатнашган талабаларнинг баъзилари - 35,6% - салбий, 26,9% - ижобий, 32,6% - нейтрал ва 6,8% - бу ҳақда ҳеч ўйламаган деб жавоб беришдилар.

Масофавий таълим тизимининг муҳолифлари ўзларининг салбий фикрларини мавжудлигига асосладилар фаолиятнинг ушбу шакли билан боғлиқ бўлган бир қатор салбий томонларини кўрсатиб ўтдилар. Мисол:

- улардан аксарияти электрон портал тизимида интернет тезлигига билан боғлиқ муаммоларни қайд этишди (100 талабага 70,6).

-баъзи талабалар ўқитувчи ва бошқа талабалар билан шахсий алоқалар йўқлиги билан қониқишмади (100 га 47,1);

- ўқитувчи томонидан тўғридан-тўғри назорат йўқлик (100 га 34,5);
интерфейси порталнинг ноқулайлиги (100 га 19,3);

-баъзи ўқув материалларини электрон шаклда ўзлаштириш қийинлиги (16,8 та) 100).

Баъзи талабалар қуйидаги салбий оқибатларни алоҳида таъкидладилар:

- сурункали чарчоқ ҳисси пайдо бўлиши, уйқусизлик - 100 кишига 59,7 кишига тўғри келади

- талабаларнинг бўш вақти етишмаслиги - 100 киши учун 52,9,

- соғлиғининг ёмонлашуви - 31,1 киши 100

